



## **YO'LOVCHI VA BAGAJ TASHISH QOIDALARI**

**FKG-ML-GRH-06.1.24**

**Toshkent**

## MUNDARIJA

MUNDARIJA	2
1-BOB. ASOSIY QISM	10
1.1. UMUMIY QOIDALAR	10
1.2. QONUNCHILIK BILAN O'ZARO MUNOSABATLAR	11
1.3. QOIDALARNI O'ZGARTIRISH	11
2-BOB. YO'LOVCHILAR VA BAGAJNI HAVO TRANSPORTIDA TASHISH SHARTLARI	12
UMUMIY QOIDALAR	12
2.1. YO'LOVCHILAR VA BAGAJNI HAVO TRANSPORTIDA TASHISH SHARTNOMASI	12
2.2. TASHISH HUJJATLARI	12
2.3. HAVO TRANSPORTIDA TASHISHLARNI BAJARISH	13
2.4. TASHISH YO'NALISHI, YO'NALISH, JO'NASH SANASI VA VAQTINI O'ZGARTIRISH	14
2.5. XIZMATLAR VA MA'LUMOTLARNI TAQDIM ETISH	14
2.6. HK DA TASHISH SIG'IMINI BRONLASH	16
2.7. YO'LOVCHI VA BAGAJ HAQIDA MA'LUMOTLAR	17
2.8. TARIFLAR, SOLIQLAR, YIG'IMLAR VA CHEGIRMALAR	19
3-BOB. YO'LOVCHILARNI TASHISH	20
3.1. HUJJATLAR: YO'LOVCHI CHIPTASI VA BAGAJ KVITANSIYASI	20
3.2. AMAL QILMAYDIGAN YO'LOVCHI CHIPTASI	23
3.3. YO'LOVCHI CHIPTASINING AMAL QILISH MUDDATI	23
3.4. CHIPTALARNI RO'YXATDAN O'TKAZISH VA TASHISH UCHUN YO'LOVCHILARNING BAGAJINI RASMIYLASHTIRISH	24
3.5. PARVOZ OLDI RASMIYATCHILIKLARI	25
3.6. HK BORTIDA YO'LOVCHILARGA XIZMAT KO'RSATISH	26
3.7. BOLALARNI TASHISH	26
3.7.1. BOLALARNI HAMROHLIKDA TASHISH	26
3.7.2. BOLALARNI HAMROHLIKSIZ TASHISH	27
3.7.3. DASTLABKI UCHISH MANZILIDA KUZATIB BORILMAYDIGAN BOLALARGA XIZMAT KO'RSATISH	28
3.7.4. KUZATIB BORILMAYDIGAN BOLALARGA BELGILANGAN MANZILDA XIZMAT KO'RSATISH	28
3.8. NOGIRONLAR, KEKSALAR VA BEMOR YO'LOVCHILARNI TASHISH	29
3.9. KO'RISH, ESHITISH QOBILIYATI BO'LMAGAN YO'LOVCHILARNI TASHISH	30
3.10. HOMILADOR AYOLLAR VA YANGI TUG'ILGAN CHAQALOQLARNI TASHISH	30
3.11. DEPORTATSIYA QILINAYOTGAN YO'LOVCHILARNI VA XORIJIY DAVLAT HUDUDIGA YOKI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIGA KIRISHI RAD ETILGAN YO'LOVCHILARNI TASHISH	31
3.12. RASMIY SHAXSLARNI TASHISH	31
3.13. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUKUMATI HUZURIDAGI DAVLAT FELDYEGERLIK XIZMATI XODIMLARINI XIZMAT VAZIFALARINI BAJARISH CHOG'IDA TASHISH	31
3.14. TRANZIT VA TRANSFER YO'LOVCHILARNI TASHISH	32
3.15. BIZNES-KLASS YO'LOVCHILARINI TASHISH.	33
3.16. XIZMAT CHIPTALARI BO'YICHA KETAYOTGAN YO'LOVCHILARNI TASHISH	33
3.17. YO'LOVCHILARGA QO'SHIMCHA O'RINLAR BERISH	33
3.18. DIPLOMATIK KURYERLARNI TASHISH	33

3.19. MAXSUS TOIFADAGI YO'LOVCHILARNI JOYLASHTIRISH UCHUN HK SALONIDAGI TAVSIYA ETILGAN JOYLAR	34
3.20. KONVOY OSTIDA TASHISH	34
4-BOB. BAGAJNI TASHISH	34
4.1. UMUMIY TALABLAR	34
4.2. BAGAJNI BEPUL TASHISH ME'YORI	34
4.3. RO'YXATDAN O'TGAN BAGAJ	36
4.4. YO'LOVCHINING YONIDAGI BUYUMLAR (QO'L YUKI)	38
4.5. ME'YORDAN ORTIQ, OG'IR VAZNLI VA NOGABARIT BAGAJ	38
4.6. ME'YORDAN ORTIQCHA BAGAJ UCHUN TO'LOV HUJJATLARI	39
4.7. HK SALONIDA QO'SHIMCHA JOYLARNI TAQDIM ETGAN HOLDA BAGAJNI TASHISH	39
4.8. BAGAJ VA QO'L YUKIDAGI BUYUMLARGA QO'YILADIGAN TALABLAR	39
4.9. QUROL VA O'Q-DORILARNI TASHISH	42
4.10. UY HAYVONLARI VA QUSHLARINI TASHISH	43
4.11. BAGAJ O'RAMI	45
4.12. BAGAJNI BERISH	45
4.13. BAGAJNI SAQLASH, QIDIRISH VA SOTISH	45
4.14. KARANTIN OSTIDAGI MAHSULOTLARNI BAGAJ SIFATIDA TASHISH	47
4.15. LITIY BATAREYALARI BILAN JIHOZLANGAN KICHIK O'LCHAMLI O'ZIYURAR QURILMALARNI TASHISH	47
4.16. BAGAJ QIYMATINI E'LON QILISH	48
4.17. ME'YORDAN ORTIQCHA RO'YXATDAN O'TKAZILMAGAN BAGAJNI RASMIYLASHTIRISH	49
4.18. RO'YXATDAN O'TGANDAN SO'NG YO'LOVCHILAR FOYDALANADIGAN NOGIRONLAR ARAVACHALARI YOKI NOGIRONLAR VA HAYOT FAOLIYATI CHEKLANGAN BOSHQA SHAXSLAR BO'LGAN YO'LOVCHILARNING SHAXSIY HARAKATLANISH VOSITALARINI HKGA CHIQISHDAN OLDIN RASMIYLASHTIRISH	49
4.19. YO'LOVCHILAR TOMONIDAN RO'YXATDAN O'TGANDAN SO'NG HK BORTIGA CHIQISHDAN OLDIN FOYDALANILADIGAN BOLALAR ARAVACHALARINI TASHISH UCHUN RASMIYLASHTIRISH	50
5-BOB. MA'MURIY RASMIYATCHILIKLAR	51
5.1. UMUMIY TALABLAR	51
5.2. JARIMALAR VA BOSHQA XARAJATLARNI TO'LASH	51
6-BOB. JAVOBGARLIKNI SUG'URTALASH	52
7-BOB. BAJARILMAGAN TASHISH UCHUN SUMMALARNI QAYTARISH	52
7.1. UMUMIY TALABLAR	52
7.2. BAJARILMAGAN TASHISH QIYMATINI QAYTARISH HUQUQIGA EGA BO'LGAN SHAXSLAR	52
7.3. TO'LOV SUMMALARINI QAYTARISH	53
8-BOB. VAKOLATLAR	53
8.1. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ VAKOLATLARI	53
8.2. YO'LOVCHINING VAKOLATLARI	54
9-BOB. JAVOBGARLIK	54
9.1. UMUMIY TALABLAR	54
9.2. YO'LOVCHINING HAYOTI YOKI SOG'LIG'IGA ZARAR YETKAZGANLIK UCHUN «FLY KHIVA GROUP» MCHJ NING JAVOBGARLIGI.	54

9.3. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ NING BAGAJ, SHUNINGDEK, YO'LOVCHI YONIDAGI BUYUMLARNING YO'QOLISHI, KAMOMADI, SHIKASTLANISHI (BUZILISHI) UCHUN JAVOBGARLIGI	55
9.4. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ NING BAGAJ, SHUNINGDEK YO'LOVCHI YONIDAGI BUYUMLAR YO'QOLGANLIGI, KAMOMADI, SHIKASTLANGANLIGI (BUZILGANLIGI) UCHUN JAVOBGARLIGI MIQDORI	55
9.5. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ NING YO'LOVCHI, BAGAJ, YUKNI YETKAZIB BERISH KECHIKTIRILGANLIGI UCHUN JAVOBGARLIGI	56
9.6. YO'LOVCHINING JAVOBGARLIGI	56
9.7. YO'LOVCHILARNI HAVO TRANSPORTIDA TASHISHNING HUQUQIY NORMALARI	57
9.8. PARVOZGA TAYYORGARLIK KO'RISHDA VA HK BORTIDA YO'LOVCHINING O'ZINI TUTISH QOIDALARI	57
<b>10-BOB. TALABLAR, SHIKOYATLAR, DA'VOLAR QO'YISH TARTIBI</b>	<b>58</b>
10.1. UMUMIY TALABLAR	58
10.2. YO'LOVCHI VA BAGAJNI HAVO TRANSPORTIDA TASHISH SHARTNOMASI BUZILGAN TAQDIRDA TALABLAR QO'YISH HUQUQIGA EGA BO'LGAN SHAXSLAR	59
10.3. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ GA SHIKOYAT BILDIRISH MUDDATI	59
10.4. DA'VO BILDIRISH TARTIBI	60

### Normativ havolalar

- IKAO me'yoriy hujjatlari.
- Fuqaro aviatsiyasi xavfsizligiga qarshi qaratilgan noqonuniy harakatlarga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiya (Montreal, 1971 y.).
- Xalqaro havo transportida tashishning ayrim qoidalari bixillashtirish to'g'risidagi konvensiya (Montreal konvensiyasi, 1999 y.).
- «O'zbekiston Respublikasining Havo kodeksi» (keyingi o'rinnarda - O'zR HK).
- O'zbekiston Respublikasi Aviatsiya qoidalari va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlari

### Atamalar, ta'riflar, belgilar va qisqartmalar

**MCHJ** – mas'uliyati cheklangan jamiyat.

**BYB** – Bagaj-yuk bo'lmasi

**HKod** – Havo kodeksi

**HK** – Havo kemasni

**DFX** – Davlat feldyegerlik xizmati

**TransVaz** – Transport vazirligi

**BMT** – Birlashgan Millatlar Tashkiloti

**O'zR** – O'zbekiston Respublikasi

**AXX** – Aviatsiya xavfsizligi xizmati

**YYQ** – Yig'ma yuklash qaydnomasi

**PNL** – Passenger Name List – ma'lum bir reysdagi yo'lovchilar, bronlash klasslari, tashish hujjatlari blankalari raqamlari, maxsus xizmat belgilari va boshqa tegishli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan bronlash tizimidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan telegramma.

**AVIATSIYA XAVFSIZLIGI** – aviatsiyaning aviatsiya sohasidagi faoliyatga noqonuniy aralashuvdan himoyalanganlik holati.

**NOQONUNIY ARALASHUV HARAKATI** – shaxs (shaxslar guruhi) tomonidan HKe, yo'lovchilar, ekipaj a'zolari, aeroport obyektlari va yerdagi xodimlarga nisbatan parvozlar xavfsizligi, odamlarning

hayoti va sog‘lig‘iga tahdid soluvchi noqonuniy zo‘ravonlik harakatlari yoki shunday harakatlar xavfi.  
**YUKNI TASHISHDA NOSOZLIK TO‘G‘RISIDAGI DALOLATNOMA** – yukka yetkazilgan zarar aniqlanganda darhol Tashuvchi yoki Xizmat ko‘rsatuvchi tashkilot tomonidan rasmiylashtirilgan hujjat.  
«FLY KHIVA GROUP» MChJ – Havo transportida yo‘lovchilarni, yuklarni muntazam va nomuntazam (charter) tashishlarni bajarish bo‘yicha ishlar va xizmatlarni amalga oshirish uchun Litsenziyaga ega bo‘lgan ekspluatant.

**AEROVOKZAL (YO‘LOVCHI TERMINALI)** – uchib ketayotgan va uchib kelayotgan yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan inshootlar majmuasi.

**AEROPORT** – HKe ni qabul qilish va jo‘natish, havo transportida tashishlarga xizmat ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan va ushbu maqsadlar uchun zarur uskunalar, aviatsiya xodimlari va boshqa xodimlarga ega bo‘lgan, aerodrom, aerovokzal va boshqa inshootlarni o‘z ichiga olgan inshootlar majmuasi.

**BELGILANGAN AEROPORT (MANZIL)** – havo transportida tashish shartnomasiga muvofiq yo‘lovchi yoki bagaj yetkazib berilishi kerak bo‘lgan aeroport (manzil).

**TRANSFER AEROPORTI (MANZILI)** – chiptada ko‘rsatilgan oraliq aeroport (manzil), unda havo transportida tashish shartnomasiga muvofiq yo‘lovchi tashish yo‘nalishi bo‘yicha keyingi harakatlanish uchun bir reysdan boshqasiga o‘tishni amalga oshiradi.

**TO‘XTASH AEROPORTI (MANZILI)** – yo‘nalishning oraliq aeroporti (manzili), unda yo‘lovchi havo transportida tashish shartnomasiga muvofiq parvozni 24 soat yoki undan ko‘proq vaqtga to‘xtatadi.

**JO‘NASH AEROPORTI (MANZILI)** – havo transportida tashish shartnomasiga muvofiq tashish boshlanadigan aeroport (manzil).

**BAGAJ** – havo transportida tashish shartnomasi asosida Tashuvchi bilan kelishilgan holda HK da tashiladigan yo‘lovchining shaxsiy buyumlari. “Bagaj” deganda ham ro‘yxatdan o‘tkazilgan, ham o‘tkazilmagan bagaj tushuniladi.

**RO‘YXATDAN O‘TKAZILGAN BAGAJ** – Tashuvchi tomonidan uning javobgarligi ostida tashish uchun qabul qilingan yo‘lovchining bagaji, uni rasmiylashtirishda yo‘lovchiga raqamli bagaj yorlig‘ining yirtib olinadigan taloni beriladi, raqamli bagaj yorlig‘ining boshqa qismi qabul qilingan bagajning har bir joyiga mahkamlanadi.

**BAGAJ YORLIG‘I** – Tashuvchi tomonidan faqat yo‘lovchining ro‘yxatdan o‘tkazilgan bagajini identifikasiyalash (tanish) uchun beriladigan hujjat.

**BAGAJ QAYDNOMASI** – ro‘yxatdan o‘tkazilgan bagajning qabul qilinganligi va uning saqlanishi uchun javobgar bo‘lgan shaxslarga topshirilganligini tasdiqlovchi hujjat.

**NOSOZ BAGAJ** – havo transportida tashish yoki xizmat ko‘rsatish natijasida shikastlangan bagaj.

**TALAB QILIB OLINMAGAN BAGAJ** – bagaj yorlig‘ida ko‘rsatilgan belgilangan aeroportga (manzilga) yetib kelgan va yo‘lovchi tomonidan olinmagan bagaj.

**RO‘YXATDAN O‘TKAZILMAGAN BAGAJ (QO‘L YUKI)** - yo‘lovchi yonida Tashuvchining roziligi bilan HKy salonida tashiladigan, raqamsiz «qo‘l yuki» yorliqlari bilan markalangan, ro‘yxatdan o‘tkazilganidan tashqari, yo‘lovchining bagaji.

**PULLI BAGAJ (ME’YORDAN ORTIQ)** – tashuvchi tomonidan belgilangan bagajni bepul tashish me’yordan ortiq bo‘lgan yoki ko‘rsatilgan me’yordan qat’i nazar, majburiy to‘lovni talab qiladigan bagaj qismi.

**QIYMATI E’LON QILINGAN BAGAJ** – yo‘qolganligi, shikastlanganligi yoki yetkazib berish kechikkanligi uchun javobgarlik chegarasini belgilash maqsadida yo‘lovchi tomonidan Tashuvchiga e’lon qilingan bagaj qiymati. Ushbu bagajni tashish uchun miqdori Tashuvchi tomonidan belgilanadigan to‘lov undiriladi.

**PARVOZLAR XAVFSIZLIGI** – havo transporti va aviatsiya ishlarining kompleks tavsifi bo‘lib, odamlarning hayoti va sog‘lig‘iga xavf solmasdan parvozlarni amalga oshirish qobiliyatini belgilaydi.

**«QO‘L YUKI» YORLIG‘I** – yo‘lovchining ro‘yxatdan o‘tkazilmagan bagajini identifikasiyalash uchun Tashuvchi tomonidan beriladigan hujjat.

**«LIMITED RELEASE» YORLIG‘I** - Tashuvchining «FLY KHIVA GROUP» mas’uliyati cheklangan jamiyatining roziligi bilan tashish uchun qabul qilingan har bir bagaj joyini belgilash uchun «Cheklangan javobgarlik» farqlovchi bagaj yorlig‘i.

**QAT’IY HISOBOT BLANKI (QHB)** – belgilangan tartibda tasdiqlangan va ro‘yxatdan o‘tkazilgan, tashuvchining mulki bo‘lgan, tashuvchi yoki u vakolat bergen agent tomonidan berilgan va yo‘lovchi aviachiptalari, pullik bagaj kvitansiyalari (PBK), turli yig‘imlar orderlari (MCO) va boshqalarni o‘z

ichiga olgan tashish va to'lov hujjatlari.

**O'Q-DORILAR** – nishonga zarar yetkazish uchun mo'ljallangan va tarkibida portlovchi, uloqtiruvchi, pirotexnik yoki urib chiqariluvchi zaryadlar yoxud ularning kombinatsiyasi bo'lgan quroq-yarog' buyumlari.

**BRONLASH (REZERVLASH)** – ma'lum bir reys va sana uchun yo'lovchiga HK da joyni oldindan biriktirish yoki HK da bagaj, yuk tashish uchun hajm va tonnajni oldindan biriktirish.

**ICHKI HAVO TRANSPORTIDA TASHISH** – jo'nash manzili, belgilangan manzil va barcha qo'nish manzillari O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan havo transportida tashish.

**SUMMALARNI QAYTARISH** – yo'lovchiga yoki yuk jo'natuvchiga yoxud u vakolat bergen shaxsiga havo transportida tashish yoki xizmat ko'rsatishning u tomonidan ilgari to'langan, lekin foydalanilmagan yoki to'liq foydalanilmagan qismining yoki butun qiymatining to'lanishi.

**HAVO TRANSPORTIDA TASHISH** – havo transportida tashish shartnomasi asosida va shartlariga muvofiq HK da yo'lovchilar, bagaj, yuk va pochtani tashish.

**HAVO KEMASI** – yer yoki suv yuzasidan qaytgan havo bilan o'zaro ta'sirdan farq qiladigan havo bilan o'zaro ta'sir tufayli atmosferada saqlanadigan uchish apparati.

**KATTA YOSHLI YO'LOVCHI (Adult)** – 12 yoshga to'lgan shaxs.

**HAVO TRANSPORTIDA TASHISH SHARTNOMASI** – «FLY KHIVA GROUP» MCHJ va yo'lovchi o'rtaida mazkur Qoidalarda bayon etilgan shartlarda tuziladigan tashish shartnomasi.

**HK NI FRAXTFLASH SHARTNOMASI (CHARTER SHARTNOMASI)** – bir tomon (fraxtlovchi) ikkinchi tomonga (fraxtlanuvchi) bir yoki bir nechta reyslarni bajarish uchun haq evaziga bitta yoki bir nechta HK ni yoki bitta HK ning bir qismini yo'lovchilar, bagaj va yuk tashish uchun taqdim etish majburiyatini oladigan kelishuv.

**KO'ZDAN KECHIRISH** – yo'lovchilar va bagaj xavfsizligini ta'minlash maqsadida vakolatli shaxslar tomonidan noqonuniy aralashuv harakatini amalga oshirish uchun foydalanilishi mumkin bo'lgan quroq, portlovchi moddalar va boshqa xavfli qurilmalarni aniqlash uchun mo'ljallangan texnik va boshqa vositalarni qo'llagan holda o'tkaziladigan harakatlar majmui. Dastlabki ko'zdan kechirish aerovokzalning kirish guruhrarida amalga oshiriladi. Parvozdan oldingi tekshiruv yo'lovchilar ro'yxatdan o'tkazilgandan, sanitariya-karantin, veterinariya, fitosanitariya nazoratidan o'tkazilgandan so'ng, xalqaro parvozlarni amalga oshirishda esa, bundan tashqari, chegara, bojxona, immigratsiya va boshqa nazoratlar amalga oshirilgandan so'ng o'tkaziladi.

**HK NI YUKLASH** – markazlashtirish jadvaliga, yuklash sxemasiga, yig'ma-yuklash qaydnomasiga muvofiq yo'lovchilarni HK salonlariga, bagajni, yukni, pochtani, ballastni BYB ga, yoqilg'ini HK baklariga joylashtirish.

**NOGIRON** – jismoniy nuqsonlari (sezgi organlari yoki harakatlanishning funksional buzilishi), aqliy zaifligi, yoshi, kasalligi yoki funksional buzilishlar tufayli yuzaga kelgan boshqa har qanday sababga ko'ra transportdan foydalanishda harakatlanish qobiliyati cheklangan va uning holati barcha yo'lovchilarga ko'rsatiladigan xizmat turlariga alohida e'tibor qaratish va moslashtirishni talab qiladigan har qanday shaxs (Chikago konvensiyasiga 9-ilova).

**KABINA EKIPAJI** – parvoz xavfsizligi manfaatlarini ko'zlab, tashuvchi yoki havo kemasi komandiri tomonidan yuklatilgan vazifalarni bajaradigan, lekin uchuvchilar tarkibiga kirmaydigan ekipaj a'zolari (bort kuzatuvchi instrukturlari, katta bort kuzatuvchilarshi va bort kuzatuvchilarshi).

**PULLI BAGAJ KVITANSIYASI** – chiptaning (yo'nalihsining/kvitansiyaning) tegishli parvoz kuponida ko'rsatilgan tegishli xizmat ko'rsatish klassi uchun belgilangan bepul tashish me'yordan ortiqcha bagajni yoki tashish uchun haq to'lanishi shart bo'lgan buyumlarni tashish uchun haq to'langanligini tasdiqlovchi hujjat.

**XIZMAT KO'RSATISH KLASSI** – havo transportida tashish shartnomasiga muvofiq yo'lovchilarga ko'rsatiladigan xizmatlar hajmi va qulaylik darajasi.

**KOD-SHERING (KOD-SHER)** – ikki yoki undan ortiq aviakompaniyalar o'rtaida aviareysni birgalikda tijoriy ekspluatatsiya qilish bo'yicha kelishuv bo'lib, ularidan biri hamkor-operator (ya'ni havo kemasidan parvozlar uchun foydalanadigan, parvozlarni amalga oshiradigan va o'z nomidan ushbu reyslarga chipta sotadigan ekspluatant), qolganlari esa marketing hamkorlari (ya'ni o'z nomidan hamkor-operator reysiga chipta sotadi) hisoblanadi. Bunda reys tomonlarning birgalikdagi ikki (yoki undan ortiq) kodi (hamkor-operator kodi/marketing hamkor kodi) bilan belgilanadi.

**HK KOMANDIRI** – pilot (uchuvchi) ning amaldagi sertifikatiga (guvohnomasiga), shuningdek

muayyan turdag'i havo kemasini mustaqil boshqarish uchun zarur bo'lgan tayyorgarlik va tajribaga ega bo'lgan va parvoz topshirig'ini bajarish uchun tayinlangan shaxs.

**TIJORAT DALOLATNOMASI** (xalqaro reyslarda – PIR – PROPERTY IRREGULARITY REPORT) - bagajga yetkazilgan zarar aniqlanganda darhol yo'lovchi yoki u vakolat bergen shaxs ishtirokida Tashuvchi yoki Xizmat ko'rsatuvchi tashkilot tomonidan rasmiylashtirilgan hujjat.

**UCHISH EKIPAJI** – xizmat parvozi vaqt davomida HK ni boshqarish bilan bog'liq vazifalar yuklatilgan guvohnomaga ega ekipaj a'zolari.

**LITSENZIYA** – vakolatlari davlat organi tomonidan korxona yoki tadbirkorga tijorat asosida (haq evaziga yoki yollash bo'yicha) yo'lovchilar va yuklarni tashish, aeroport va HK ga, aeroportlarda yo'lovchilar va yuklarga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq boshqa faoliyatni, korxonalar va aholi ehtiyojlari uchun aviatsiya ishlari amalga oshirish uchun berilgan ruxsatnoma.

**TAMG'ALASH** – o'ramdagi va (yoki) mahsulotdagi matn, shartli belgilar va rasmlar.

**YO'NALISH** – Havo transportida tashish shartnomasida aeroportlar ketma-ketligi ko'rinishida tavsiflangan yo'lovchining harakatlanish yo'li.

**TIJORAT YUKINING MASSASI** – yo'lovchilar, bagaj, yuk va pochtaning umumiy massasi.

**XALQARO HAVO TRANSPORTI ASSOTSIATSIYASI (IATA – INTERNATIONAL AIR TRANSPORT ASSOCIATION)** – fuqaro aviatsiyasi sohasida, shu jumladan tariflarni tuzish va qo'llash, tashishning yagona umumiy shartlari, yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish uchun standartlar va tavsiyalar ishlab chiquvchi nodavlat xalqaro tashkilot.

**XALQARO FUQARO AVIATSIYASI TASHKILOTI (ICAO – INTERNATIONAL CIVIL AVIATION ORGANIZATION)** – fuqaro aviatsiyasi faoliyati masalalarini, shu jumladan samoviy hududdan foydalanish, parvozlar xavfsizligi va boshqa masalalarni tartibga soluvchi hamda fuqaro aviatsiyasi faoliyatini tashkil etish standartlari va tavsiya etiladigan amaliyotini ishlab chiquvchi davlatlararo xalqaro tashkilot, BMning maxsus muassasasi.

**XALQARO VETERINARIYA SERTIFIKATI** – aeroportdagi chegara nazorati veterinariya punkti tomonidan veterinariya ma'lumotnomasi (emlashlar, hayvonning sog'lig'i holati va yashash hududidagi qulay sanitariya-epidemiologiya holati to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan 1-shakl) va it boquvchilar klubining yoki mushuksevarlar klubining hayvonni olib chiqish uchun ruxsatnomasi evaziga beriladigan hujjat.

**XALQARO HAVO TRANSPORTIDA TASHISH** – jo'nash manzili va belgilangan manzil: a) ikki davlat hududida joylashgan; b) bir davlat hududida, agar boshqa davlat hududida qo'nish manzili (manzillari) nazarda tutilgan bo'lsa, joylashgan holatdagi tashish.

**GO'DAK (Infant)** - ikki yoshga to'imagan shaxs.

**HAVO KEMASIGA YER USTI XIZMATINI KO'RSATISH** – havo kemasining aerodromga kelishini va aerodromdan uchib ketishini ta'minlash bo'yicha ishlar majmui, havo harakatiga xizmat ko'rsatish va texnik xizmat ko'rsatish bundan mustasno. Havo kemasiga yer usti xizmatini ko'rsatish yo'lovchilarga xizmat ko'rsatishni, bagaj, yuk va pochtani qayta ishlashni, havo kemasiga xizmat ko'rsatish va yuklashni, yuklashni nazorat qilishni, yoqilg'i quyishni va havo kemasiga muzlashga qarshi ishlov berishni o'z ichiga oladi.

**MAMLAKATGA KIRITILMAGAN YO'LOVCHI** – mamlakat ma'murlari tomonidan uning hududiga kirishi rad etilgan yoki viza yo'qligi, pasport muddati o'tganligi va shu kabi sabablarga ko'ra Tashuvchi yoki davlat organlari tomonidan o'tish manzilidan keyingi tashish rad etilgan yo'lovchi.

**TASHISHNING NOSOZLIGI** – zararli oqibatlarga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan havo transportida belgilangan ish tartibining har qanday buzilishi (bagajni, yukni yuklab jo'natish, vazn yoki o'rinalar soni bo'yicha kamomad, hujjatlarning shikastlanishi, yo'qolishi, bo'linishi, tashish hujjatlarining noto'g'ri rasmiylashtirilishi).

**KUZATIB BORILMAYDIGAN BOLA (UM)** – tashuvchining vakolatlari xodimi nazorati ostida aviakompaniya reyslarda ota-onasi, qonuniy vasiylari yoki safarda ularga hamrohlik qilish huquqiga ega bo'lgan boshqa shaxslar hamrohligisiz tashilayotgan voyaga yetmagan shaxs.

**XIZMAT KO'RSATUVCHI TASHKILOT** – havo kemalari, yo'lovchilar, bagaj, yuklarga xizmat ko'rsatish bo'yicha ishlarni bajarish uchun shartnomada tuzilgan, «FLY KHIVA GROUP» MCHJning ushbu faoliyat turlarini amalga oshiruvchi tashkilotlarga qo'yiladigan talablarini (zarur sertifikatlar, o'qitilgan xodimlar, zarur resurslar mavjudligi) qanoatlantiruvchi tashkilot.

**TURLI YIG'IMLAR ORDERI (MCO - MISCELLANEOUS CHARGES ORDER)** - Tashuvchi yoki

uning vakolatli agenti tomonidan yo'lovchiga chipta, pullik bagaj kvitansiyasi uchun yoki tashish shartlarini bajarish yoki o'zgartirish bilan bog'liq boshqa xizmatlar uchun to'lov amalga oshirish uchun berilgan to'lov hujjati.

**TASHUVCHINING JAVOBGARLIGI** – yo'lovchini, bagajni, yukni havo transportida tashish chog'ida tashuvchi tomonidan yetkazilgan zararni (ziyonni) qoplash majburiyati.

**YO'LOVCHI** – yo'lovchini havo transportida tashish shartnomasiga muvofiq HK da tashilayotgan yoki tashilishi kerak bo'lган shaxs, ekipaj a'zolari bundan mustasno.

**DEPORTATSIYA QILINAYOTGAN YO'LOVCHI** – mamlakatga uning hukumati tomonidan qonuniy ravishda kiritilgan va vaqt o'tishi bilan hukumat organlaridan mamlakatni tark etish to'g'risida ko'rsatma olgan yoki mamlakatga noqonuniy ravishda kelgan yo'lovchi.

**XIZMAT YO'LOVCHISI** – «FLY KHIVA GROUP» MCHJning imtiyozli aviachiptalar berish tartibiga muvofiq imtiyozli aviatashuv huquqiga ega bo'lган yoki xizmat safariga ketayotgan yo'lovchisi, xodimi, shuningdek, Bosh direktor ko'rsatmasiga binoan «FLY KHIVA GROUP» MCHJ reysi bilan ketayotgan yo'lovchi.

**TRANZIT YO'LOVCHI** – oraliq aeroportga kelgan shaxs, u Havo transportida tashish shartnomasiga muvofiq keyinchalik shu reys bilan tashiladi.

**TRANSFER YO'LOVCHI** – Havo transportida tashish shartnomasiga muvofiq transfer (o'tish) manziliga bir reys bilan yetkaziladigan, keyinchalik esa shu yoki boshqa Tashuvchining boshqa reysi bilan tashiladigan shaxs.

**TASHUVCHI** – aviakompaniya yoki Vakolatli agent tomonidan berilgan tashish yoki to'lov hujjatiga muvofiq tashish hujjatini beradigan, havo transportida tashishni amalga oshiradigan yoki amalga oshirish majburiyatini oladigan, shuningdek bunday tashish bilan bog'liq xizmat ko'rsatadigan yoki ko'rsatish majburiyatini oladigan aviakorxona.

**BAGAJNI HAVO TRANSPORTIDA TASHISH DAVRI** – bagaj tashish uchun qabul qilingan paytdan boshlab uni oluvchiga berishgacha yoki mas'uliyatli saqlash uchun topshirishgacha bo'lган vaqt davri.

**YO'LOVCHINI HAVO TRANSPORTIDA TASHISH DAVRI** – yo'lovchi HK ga chiqish uchun aeroport perroniga chiqqan paytdan boshlab yo'lovchi tashuvchining vakolatli shaxslari kuzatuv ostida perronni tark etgan paytgacha bo'lган vaqt davri.

**YO'LOVCHINI TASHISH DAVRI** – yo'lovchi jo'nash aeroportida parvozdan oldingi nazoratdan o'tgan vaqtdan boshlab, yo'lovchini havo transportida tashish davrini qo'shgan holda, yo'lovchi belgilangan aeroportni tark etgungacha bo'lган vaqt davri.

**PERRON** – yo'lovchilarni HK ga chiqarish va undan tushirish, bagaj, yuk va pochtani ortish va tushirish, shuningdek xizmat ko'rsatishning boshqa turlari uchun HK ni joylashtirish uchun mo'ljallangan fuqaro aerodromi uchish maydonining bir qismi.

**PARVOZ KUPONI (FLIGHT COUPON)** – chiptaning yo'lovchiga (yo'lovchi kuponi mavjud bo'lganda) kuponida ko'rsatilgan manzillar o'rtaida tashish huquqini beruvchi qismi.

**«FLY KHIVA GROUP» MCHJ VAKILI** – «FLY KHIVA GROUP» MCHJ bilan tuzilgan shartnomasi bo'yicha va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan ishonchnoma asosida «FLY KHIVA GROUP» MCHJ HK parvozlarini amalga oshirish aeroportida vakillik funksiyalarini amalga oshiruvchi jismoniy shaxs/yuridik shaxs xodimi.

**DA'VO** – manfaatdor shaxs tomonidan havo transportida tashish davrida yuzaga kelgan zararni qoplash to'g'risida yozma shaklda tuzilgan talab.

**TASHISH SIG'IMI** – tijorat yuklash uchun ishlatiladigan HK yo'lovchi kabinasi, HK BYB ning bir qismi.

**BORTDA OVQATLANISH RATSIONI** – «FLY KHIVA GROUP» MCHJ yoki boshqa buyurtmachilarning so'rovlari muvofiq yo'lovchilar va ekipaj a'zolari uchun ovqatlanish turlari bo'yicha to'plangan tayyor taomlar va/yoki oziq-ovqat, qandolatchilik va non-bulka mahsulotlari hamda xarid qilinadigan tovarlar to'plami.

**BOLA (Child)** – ikki yoshga to'lган, lekin 12 yoshga to'lmanagan shaxs.

**REYS** – yo'nalishning boshlang'ich nuqtasidan oxirgi nuqtasigacha bir yo'nalishda bitta raqam ostida amalga oshiriladigan havo kemasining (jadval bo'yicha / jadvaldan tashqari) jo'nash vaqtidan yetib kelish vaqtigacha bo'lган vaqtini hisobga olgan holda parvozi.

**JADVAL BO'YICHA REYS (MUNTAZAM)** – belgilangan jadvalga muvofiq yo'nalish bo'yicha bajariladigan HK parvozi (lari).

**QO'SHIMCHA REYS** – muntazam reys bajariladigan yo'naliш bo'yicha jadvalga qo'shimcha ravishda bajariladigan HKning parvozi (lari).

**CHARTER REYSI** - HK fraxtlash shartnomasiga muvofiq amalga oshiriladigan HK parvozi (lari).

**YIG'IM** – Tashuvchi, uning Vakolatli agenti yoki boshqa vakolatli organlar tomonidan tarifdan tashqari undiriladigan, belgilangan tartibda tasdiqlangan summa.

**CHEGIRMA** – Tashuvchi tomonidan IATA tavsiyalarini hisobga olgan holda belgilanadigan e'lon qilingan tarifni pasaytirish summasi.

**TARIF** – havo transportida yo'lovchini, bepul tashishning belgilangan normasidan (og'irligi, hajmi, o'rinnar sonidan) ortiqcha bagajni, yuk yoki pochtani tashish haqi.

**NORMAL TARIF** – bir yil davomida hech qanday cheklavlarsiz amal qiladigan tegishli xizmat ko'rsatish toifasining tarifi (amal qilish muddati tashish mavsumi bilan belgilanadigan mavsumiy tariflar bundan mustasno).

**E'LON QILINGAN TARIF** – davlat organlari tomonidan tegishli tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan va tarif ma'lumotnomalarida e'lon qilingan tarif.

**O'TISH TARIFI** – butun yo'naliш bo'yicha tashish haqini to'lash uchun qo'llaniladigan tarif.

**MAXSUS TARIF** – chegirmalarni hisobga olgan holda belgilangan, normal tarifdan farq qiladigan tarif.

**VAKOLATLI AGENT** – «FLY KHIVA GROUP» MCHJ nomidan tashish hujjatlarini bronlashtirish, sotish va rasmiylashtirish, shu jumladan, pul summalarini qaytarish, dublikatlarni rasmiylashtirish va boshqa servis funksiyalarini amalga oshirishga vakolatli bo'lgan mas'ul shaxs.

**HAQIQIY TASHUVCHI** – birgalikda foydalanish reysi (kod-sher) yoki haqiqiy tashuvchi va tashuvchi o'rtasidagi boshqa shartnomaviy munosabatlar doirasida butun tashishni yoki uning bir qismini amalga oshiruvchi tashuvchi yoki tashuvchi tomonidan vakolat berilgan shaxs.

**CHARTER TASHISH** – charter shartnomasiga muvofiq bajariladigan havo transportida tashish.

**HK EKIPAJI** – HKdan uchish va texnik foydalanish bo'yicha belgilangan vazifalarni bajarish, parvoz topshirig'ini bajarishda HKdagi yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish belgilangan tartibda topshirilgan shaxslar tarkibi. HK ekipaji uchuvchilar ekipajidan (HK komandiri, uchuvchilar tarkibining boshqa shaxslari) va kabina ekipajidan (katta bortkuzatuvchilar va bortkuzatuvchilar) tashkil topadi.

**ELEKTRON CHIPTA (ELEKTRON YO'LOVCHI CHIPTASI VA BAGAJ KVITANSIYASI)** – yo'lovchi va bagaj tashish shartnomasini tasdiqlash uchun foydalaniladigan hujjat bo'lib, unda yo'lovchi va bagajni havo transportida tashish to'g'risidagi axborot elektron-raqamli shaklda taqdim etiladi.

**ELEKTRON KO'P MAQSADLI HUJJAT (EMD)** – ko'rsatiladigan xizmatlar uchun yig'imlar va to'lovlarni undirishda yo'lovchiga beriladigan va unda xizmat, yig'im yoki to'lov to'g'risidagi axborot elektron-raqamli shaklda taqdim etilgan to'lov hujjati.

**M2-CLOSED FARE** – Aviakompaniya va aeroport o'rtasida o'tish tariflari hamda yo'lovchilar va bagajga xizmat ko'rsatishning maxsus texnologiyalarini qo'llagan holda aeroport orqali tutashuv yo'naliшlari tarmog'ini yaratish maqsadida tuziladigan bitim.

## 1-BOB. ASOSIY QISM

Ushbu Yo'lovchi va bagaj tashish qoidalari: birinchi marta kuchga kiradi, ro'yxat raqami: FKG-ML-GRH-06.1.24.

Bosh direktor tomonidan tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi va bekor qilingunga yoki qayta nashr etilgunga qadar amal qiladi.

Davriy tekshiruvlar va hujjatni aktuallashtirish uchun mas'ul shaxs: Yer usti xizmati boshlig'i.

Davriy tekshirish muddati: yiliga 1 marta.

### 1.1. UMUMIY QOIDALAR

1.1.1. Mazkur Qoidalar O'zbekiston Respublikasi HKod ga muvofiq, shuningdek, havo transportida tashish sohasidagi xalqaro huquqiy hujjatlar asosida ishlab chiqilgan hamda «FLY KHIVA GROUP» MCHJ va fuqarolarning huquqlari, majburiyatlar va javobgarligini belgilaydi.

1.1.2. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ havo transportining ekspluatanti hisoblanadi va 19-O-sonli Ekspluatant sertifikatiga ega.

1.1.3. Qoidalar Yo'lovchi va bagajni havo transportida tashish shartnomasini tuzish va bajarishda rioxalari.

qilinadigan yo'lovchilar va bagajni tashishning umumiy shartlarini belgilaydi. Ushbu Qoidalalar Yo'lovchi va bagajni havo transportida tashish shartnomasining ajralmas qismi hisoblanadi.

1.1.4. Yo'lovchi va bagajni havo transportida tashish shartnomasi shartlari tarifni qo'llash shartlarida, tashish hujjatlarida, O'zR HKod da, ushbu Qoidalarda va O'zR Fuqaro aviatsiyasi sohasidagi boshqa me'yoriy hujjatlarda keltirilgan.

1.1.5. Yo'lovchi va bagajni havo transportida tashish shartnomasini tuzishda tashish hujjati rasmiylashtirilgan sanada amalda bo'lgan qoidalari, tariflar va yig'imlar qo'llaniladi.

1.1.6. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ xodimlari va xizmat yo'lovchilarining boshqa toifalarini tashish ushbu Qoidalarga va «FLY KHIVA GROUP» MCHJning ushbu Qoidalarni rivojlantirish maqsadida ishlab chiqilgan boshqa tashkiliy hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

1.1.7. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ ishtirokida bitta tashish hujjati bo'yicha (to'g'ridan-to'g'ri/aratash yo'nalishda) turli transport turlarida amalga oshiriladigan yo'lovchilar va bagajlarni tashish «FLY KHIVA GROUP» MCHJ va tashish jarayonida ishtirok etuvchi boshqa Tashuvchilar o'rtasidagi shartnomalar bilan tartibga solinadi.

1.1.8. Ushbu Qoidalalar tanishib chiqish uchun ochiq:

- a) «FLY KHIVA GROUP» MCHJning barcha ofislarida;
- b) «FLY KHIVA GROUP» MCHJ vakolatxonalarida;
- c) Vakolatli agentlarning tashishlarini sotish punktlarida;
- d) «FLY KHIVA GROUP» MCHJ HK parvozlarini amalga oshirish aeroportlarida;
- f) «FLY KHIVA GROUP» MCHJning internet-saytida.

## **1.2. QONUNCHILIK BILAN O'ZARO MUNOSABATLAR**

1.2.1. Tomonlarning Yo'lovchilar va bagajni havo transportida tashish shartnomasidan kelib chiqadigan huquqlari, majburiyatlar va javobgarligi quydagilar bilan tartibga solinadi:

a) Xalqaro havo transportida tashishga taalluqli konvensiyalar, shuningdek O'zRning amaldagi xalqaro shartnomalari va bitimlari qoidalari.

b) O'zR HKod va O'zRning boshqa qonun hujjatlari bilan.

c) Ushbu Qoidalalar.

1.2.2. Xalqaro tashishlarni bajarishda ushbu Qoidalalar O'zbekiston Respublikasining havo qatnovi to'g'risidagi xalqaro bitimlariga zid bo'limgan qismida qo'llaniladi.

1.2.3. Agar ushbu Qoidalalar yoki tashish hujjatlarida belgilangan biron-bir qoidalari xorijiy davlat qonunchiligiga zid bo'lsa va Havo transportida tashish shartnomasi tomonlarining kelishuvi bilan o'zgartirilishi mumkin bo'lmasa, bunday qoidalari o'z kuchida qoladi va ko'rsatilgan qonunchilikka zid bo'limgan darajada Havo transportida tashish shartnomasining bir qismi hisoblanadi. Bunday holda, ushbu Qoidalarning biron bir qoidasining haqiqiy emasligi ushbu Qoidalarning boshqa qoidalaring amal qilishini bekor qilmaydi.

1.2.4. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ Havo transportida tashish shartnomasi bo'yicha majburiyatlarni yoki ularning bir qismini «FLY KHIVA GROUP» MCHJ nomidan tashish hujjatlarini bronlash, sotish va rasmiylashtirishni amalga oshiruvchi shaxsga (Vakolatli agent), aerovokzal majmuasi binolarida ketayotgan va kelayotgan yo'lovchilarga xizmat ko'rsatuvchi shaxsga (Xizmat ko'rsatuvchi tashkilot) yoki boshqa shaxsga, shu jumladan boshqa Tashuvchiga o'tkazishga haqli, ularning harakatlari (harakatsizligi) uchun yo'lovchi oldida va Havo transportida yo'lovchini tashish shartnomasining bajarilishi uchun javobgar bo'lib qoladi. Havo transportida tashish shartnomasi bo'yicha majburiyatlar boshqa Tashuvchiga o'tkazilganda, «FLY KHIVA GROUP» MCHJ yo'lovchini tashishni amalga oshirayotgan haqiqiy Tashuvchi haqida xabardor qiladi. Bunday holda, agar «FLY KHIVA GROUP» MCHJ va haqiqiy Tashuvchi o'rtasidagi kod-sher shartnomasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, haqiqiy Tashuvchining tashish qoidalari yo'lovchiga nisbatan qo'llaniladi.

1.2.5. Xalqaro havo tashuvlarida «FLY KHIVA GROUP» MCHJning javobgarligi xalqaro havo tashuvlariga taalluqli konvensiyalar, ICAO hujjatlari bilan tartibga solinadi, ushbu hujjatlarning ta'rifiqa ko'ra bunday hisoblanmaydigan tashuvlar bundan mustasno.

1.2.6. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ yo'lovchi havo transportida tashishni bron qilishda o'zining aloqa ma'lumotlarini (telefon raqami, elektron pochta manzili va hokazo) taqdim etmagan yoki «FLY KHIVA

GROUP» MCHJ ko'rsatilgan telefon raqamlari (manzillari va hokazo) ning har biri bo'yicha kamida bir marta murojaat qilib, ko'rsatilgan aloqa ma'lumotlari bo'yicha yo'lovchi bilan bog'lana olmagan, shu jumladan yo'lovchi tomonidan noto'g'ri aloqa ma'lumotlari taqdim etilishi natijasida, yo'lovchini reyslar jadvalidagi o'zgarishlar, jo'nash/kelish aeroportining o'zgarishi, reysning bekor qilinishi yoki reysning istalgan boshqa parametrlari o'zgarganligi to'g'risida xabardor qilmaganligi uchun javobgar bo'lmaydi. Ko'rsatilgan holatlarda «FLY KHIVA GROUP» MCHJ yo'lovchiga bunday xabar bermaslik oqibatida yetkazilgan zararni qoplamaydi.

1.2.7. Yo'lovchi «FLY KHIVA GROUP» MCHJga tashishning alohida shartlarini kelishish va xabardor qilish to'g'risida reys jo'nashidan 36 soat oldin murojaat qilgan taqdirda, «FLY KHIVA GROUP» MCHJ ularni kelishishni rad etish huquqini o'zida saqlab qoladi.

1.2.8. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ, agar tashish alohida chiptalar bilan rasmiylashtirilgan bo'lsa, reyslarning tutashishini ta'minlash uchun ham javobgar bo'lmaydi.

### **1.3. QOIDALARNI O'ZGARTIRISH**

1.3.1. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ Qoidalarga «FLY KHIVA GROUP» MCHJda o'rnatilgan tartibda XX-XX-XXX-04.1.22-sonli «FLY KHIVA GROUP» MCHJning hujjatlashtirilgan ma'lumotlarini boshqarish bo'yicha qo'llanma»ga muvofiq o'zgartirishlar kiritadi.

1.3.2. Ushbu Qoidalalar, shuningdek ularga qo'shimcha ravishda chiqarilgan havo transportida tashishni tartibga soluvchi boshqa tashkiliy hujjatlar «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tomonidan yo'lovchilarni oldindan ogohlantirmasdan o'zgartirilishi mumkin, agar bunday o'zgartirishlarning hech biri yo'lovchini havo transportida tashish shartnomasi tuzilganidan keyin qo'llanilmasa. Bunda mazkur Qoidalarga kiritilgan o'zgartirishlar ular rasman amalga kiritilgan sanadan boshlab kuchga kiradi.

1.3.3. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ vakillari, «FLY KHIVA GROUP» MCHJ nomidan yo'lovchilar va bagajlarni havo transportida tashish xizmatlarini ko'rsatuvchi vakolatli agentlar va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar ushbu Qoidalarning amaldagi tahriri qoidalarni o'zgartirish yoki bekor qilish huquqiga ega emas.

## **2-BOB. YO'LOVCHILAR VA BAGAJNI HAVO TRANSPORTIDA TASHISH SHARTLARI**

### **UMUMIY QOIDALAR**

#### **2.1. YO'LOVCHILAR VA BAGAJNI HAVO TRANSPORTIDA TASHISH SHARTNOMASI**

2.1.1. Yo'lovchilar va bagajni havo transportida tashish «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tomonidan ushbu Qoidalarga rioya qilgan holda Havo transportida tashish shartnomasi asosida amalga oshiriladi. Havo transportida tashish shartnomasi ommaviy shartnomasi bo'lib, u tuzilish usuliga ko'ra qo'shilish shartnomasiga kiradi va yo'lovchidan «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tomonidan taklif qilingan shartlar asosida Havo transportida tashish shartnomasiga qo'shilishni talab qiladi. Havo transportida tashish shartnomasi havo transportida tashish uchun tegishli ravishda va o'z vaqtida haq to'langan paytdan e'tiboran tuzilgan hisoblanadi. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ yoki uning Vakolatli agenti tashish haqi to'liq to'langandan so'ng yo'naliш kvitansiyasini yo'lovchining qo'liga beradi yoki unga elektron pochta yoki faksimil aloqa orqali yuboradi.

2.1.2. Yo'lovchini havo transportida tashish shartnomasi bo'yicha «FLY KHIVA GROUP» MCHJ HK yo'lovchisini belgilangan manzilga olib borishi va unga chiptada ko'rsatilgan yo'naliш bo'yicha reysni amalga oshirayotgan HKda joy taqdim etishi, havo transportida bagaj tashilgan taqdirda esa, bagajni belgilangan manzilga yetkazib berishi va yo'lovchiga yoki bagajni olishga vakolatli shaxsga berishi shart. HK yo'lovchisi havo transportida tashish haqini to'lashi, agar unda bagaj yoki majburiy to'lanishi lozim bo'lgan bagajni bepul tashishning belgilangan normasidan ortiqcha bagaj mavjud bo'lsa, ushbu bagaj tashish uchun qo'shimcha haq to'lashi shart.

2.1.3. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ yo'lovchilar va bagajni muntazam reyslar orqali Yo'lovchini havo transportida tashish shartnomasi va ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan tartib va muddatlarda havo transportida tashishni amalga oshiradi.

2.1.4. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ Charter reyslari orqali yo'lovchilar va bagajni havo transportida

tashishni Fraxtlanuvchi va «FLY KHIVA GROUP» MCHJ o‘rtasida tuziladigan Havo charteri shartnomasiga muvofiq amalga oshiradi.

2.1.5. Har bir havo transportida tashish shartnomasi va uning shartlari «FLY KHIVA GROUP» MCHJ yoki Vakolatli agent tomonidan beriladigan tashish hujjati bilan tasdiqlanadi.

2.1.6. Bitta tashish hujjati (shu jumladan u bilan birga berilgan qo‘srimcha tashish yoki to‘lov hujjatlari) bo‘yicha bir nechta Tashuvchilar tomonidan jo‘nash aeroportidan belgilangan aeroportgacha amalga oshiriladigan yo‘lovchilar va bagajni tashish, o‘tish yoki tashishda tanaffus bo‘lganligidan qat’i nazar, yagona tashish sifatida ko‘rib chiqiladi.

## **2.2. TASHISH HUJJATLARI**

2.2.1. Har bir Havo transportida tashish shartnomasi va uning shartlari «FLY KHIVA GROUP» MCHJ yoki «FLY KHIVA GROUP» MCHJning Vakolatli agenti tomonidan rasmiylashtiriladigan tashish hujjatlari bilan tasdiqlanadi.

2.2.2. Quyidagilar tashish hujjatlari hisoblanadi:

a) yo‘lovchini (va bagajni) tashishda - chipta va bagaj kvitansiyasi;  
b) to‘lanishi lozim bo‘lgan bagajni tashishda - me’yordan ortiqcha bagaj uchun to‘lov kvitansiyasi, elektron ko‘p maqsadli hujjat (EMD), turli yig‘imlar orderi (MCO);

c) yo‘lovchi tomonidan Havo transportida tashish shartnomasini bajarishga taalluqli ko‘rsatilgan xizmatlar uchun yig‘imlar va to‘lovlari to‘langanda - turli yig‘imlar orderi (MCO)

d) turli yig‘imlar kvitansiyasi, elektron ko‘p maqsadli hujjat (EMD). Tashish hujjatlarini rasmiylashtirish tashish hujjatining elektron yoki qog‘oz shakliga zarur ma’lumotlarni kiritish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

2.2.3. Ko‘rsatib o‘tilgan tashish hujjatlari qat’iy hisobda turadigan tashish hujjatlari hisoblanadi va yo‘lovchilar bilan pul va naqd pulsiz hisob-kitoblar hamda tashish jarayoni qatnashchilari o‘rtasidagi o‘zaro hisob-kitoblar uchun hisob-moliyaviy nazorat hujjatlari sifatida foydalaniadi. Qat’iy hisobda turadigan tashish hujjatlari ro‘yxatdan o‘tkazilishi shart. Tashishlarni (xizmatlarni) rasmiylashtirish uchun ro‘yxatdan o‘tkazilmagan qat’iy hisobotdagi tashish hujjatlarini qo‘llashga yo‘l qo‘yilmaydi.

2.2.4. Yo‘lovchini havo transportida tashish shartnomasi bitta chipta yoki u bilan birga rasmiylashtirilgan qo‘srimcha chipta(lar) bilan rasmiylashtiriladi, unda rasmiylashtirilgan chipta(lar) raqami ko‘rsatiladi.

## **2.3. HAVO TRANSPORTIDA TASHISHLARNI BAJARISH**

Tashish yo‘nalishi bo‘yicha yo‘lovchilar va bagajni havo transportida tashish e’lon qilingan jadvalga muvofiq muntazam ravishda yoki HKni fraxtlash shartnomasiga muvofiq nomuntazam ravishda amalga oshiriladi.

2.3.1. Jadval bo‘yicha havo transportida tashishlarni bajarish

2.3.1.1. E’lon qilingan HK harakat jadvalida har bir muntazam qatnov bo‘yicha quyidagi ma’lumotlar aks ettirilishi lozim:

- a). jo‘nab ketish aeroporti;
- b). belgilangan aeroport;
- c). havo kemalarining harakat jadvali bo‘yicha HK qo‘nishi ko‘zda tutilgan tashish yo‘nalishi bo‘yicha joylashgan aeroport(lar);
- d). Tashuvchining kodi;
- e). reys raqami;
- f). reyslar amalga oshiriladigan hafta kunlari;
- g). jo‘nash vaqt (mahalliy);
- h). kelish vaqt (mahalliy);
- i). reysni bajarish davri;
- j). HK turi(lari).

HK harakat jadvalida boshqa ma’lumotlar ham bo‘lishi mumkin.

2.3.1.2. Yo‘lovchi chiptasida, bagaj kvitansiyasida bayon etilgan ma’lumotlar ko‘rsatib o‘tilgan tashish hujjatlarini rasmiylashtirish vaqtida jadvalda e’lon qilingan ma’lumotlarga muvofiq bo‘lishi kerak.

2.3.1.3. Jadval «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tomonidan yo‘lovchilar va yuk jo‘natuvchilarni oldindan xabardor qilmasdan o‘zgartirilishi mumkin.

2.3.1.4. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tuzilgan Havo transportida tashish shartnomasiga muvofiq tashishni o‘z vaqtida bajarish maqsadida o‘ziga bog‘liq bo‘lgan barcha choralarini ko‘radi.

2.3.1.5. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ, agar parvozlar xavfsizligi yoki aviatsiya xavfsizligini ta’minalash shartlari talab qilsa, shuningdek, vakolatli davlat organlarining talabiga binoan chiptada ko‘rsatilgan reysni bekor qilish, ko‘chirish yoki kechiktirish, HKni almashtirish, reys raqamini o‘zgartirish, tashish yo‘nalishini o‘zgartirish huquqiga ega.

2.3.1.6. HK harakat jadvali o‘zgargan taqdirda, «FLY KHIVA GROUP» MCHJ havo transportida tashish shartnomasi tuzilgan yo‘lovchilarni HK harakat jadvali o‘zgarganligi to‘g‘risida har qanday mavjud usul bilan xabardor qilish uchun barcha mumkin bo‘lgan choralarini ko‘radi, xususan:

a) bronlash tizimiga ma’lumotlarni kiritish;

b) yo‘lovchi tomonidan bronlashda ko‘rsatilgan kontaktlar bo‘yicha telefon aloqasi orqali;

c) SMS yuborish orqali;

d) elektron pochta orqali;

e) aeroportda «FLY KHIVA GROUP» MCHJ Vakili tomonidan xabardor qilish;

f) Ro‘yxatdan o‘tkazish bo‘yicha Agent tomonidan ro‘yxatdan o‘tkazishda Xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotni xabardor qilish;

g) aeroportda vizual, akustik axborot berish;

h) ma’lumotlarni «FLY KHIVA GROUP» MCHJning internet-saytiga joylashtirish orqali;

i) agar har bir muayyan holatda mumkin bo‘lsa, boshqa usullar bilan.

2.3.1.7. Yo‘lovchini, yo‘lovchi chiptasida ko‘rsatilgan bagajni yetkazib berish imkonini bo‘lmagan taqdirda va agar bunday imkoniyatsizlik yo‘lovchi tomonidan ushbu Qoidalarning buzilishi tufayli yuzaga kelmagan bo‘lsa, «FLY KHIVA GROUP» MCHJ yo‘lovchi bilan kelishgan holda:

a) ushbu yo‘lovchini, bagajni tashish hujjatida ko‘rsatilgan manzilgacha boshqa reys bilan tashishni amalga oshirishi;

b) ushbu yo‘lovchini, bagajni tashishni boshqa Tashuvchiga topshirishi;

c) boshqa transport turida tashishni tashkil etishi;

d) ushbu Qoidalarga muvofiq summalarini qaytarishi mumkin.

2.3.1.8. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ boshqa yuridik shaxslar tomonidan «FLY KHIVA GROUP» MCHJ bilan kelishmasdan e’lon qilingan jadvaldagi xatolar, buzilishlar, kamchiliklar uchun javobgar bo‘lmaydi.

2.3.2. Charter havo tashuvlarini amalga oshirish

2.3.2.1. Charter tashuvlari «FLY KHIVA GROUP» MCHJ va Yuk tashuvchi o‘rtasida tuzilgan HKni fraxtlash shartnomasiga muvofiq amalga oshiriladi. HKni fraxtlash shartnomasi bo‘yicha «FLY KHIVA GROUP» MCHJ Fraxtlanuvchiga yo‘lovchilar, bagaj va yuklarni tashish maqsadida bir yoki bir nechta reyslarni bajarish uchun bir yoki bir nechta HKning barcha yoki bir qismini haq evaziga taqdim etish majburiyatini oladi.

2.3.2.2. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tomonidan charter tashuvlari Charter tashish shartnomasida belgilangan tashish shartlariga rioya qilgan holda amalga oshiriladi.

2.3.2.3. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ HK Fraxtlanuvchisini orqali yo‘lovchini charter tashish shartlari va ularni bajarish zarurligi to‘g‘risida xabardor qiladi.

## **2.4. TASHISH YO‘NALISHI, YO‘NALISH, JO‘NASH SANASI VA VAQTINI O‘ZGARTIRISH**

2.4.1. Yo‘lovchilar va bagajni tashish tashish hujjatlarida ko‘rsatilgan aeroportlar (manzillar) o‘rtasida amalga oshiriladi. Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa yoki parvozlar xavfsizligini ta’minalash shartlari talab qilmasa, tashish hujjatlarida ko‘rsatilgan tashish yo‘nalishi manzilini (manzillarini) o‘zgartirish «FLY KHIVA GROUP» MCHJ va yo‘lovchi o‘rtasidagi kelishuvga ko‘ra amalga oshirilishi mumkin.

2.4.2. «FLY KHIVA GROUP» MCHJning Yo‘lovchilarni havo transportida tashish shartnomasida ko‘rsatilgan sana yoki vaqtda yo‘nalish bo‘yicha tashishni bajara olmasligi «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tashabbusi bilan yo‘lovchi, bagaj va yuk tashishni majburiy ravishda rad etish hisoblanadi.

Bunday holatda «FLY KHIVA GROUP» MCHJ yo‘lovchiga yo‘nalish, tashish sanasi yoki vaqtini o‘zgartirgan holda tashishni taklif qiladi, yo‘lovchi taklif etilgan tashish shartlaridan voz kechgan taqdirda esa «FLY KHIVA GROUP» MCHJ ushbu Qoidalarga muvofiq tashish qiymatini qaytaradi.

2.4.3. Yo‘lovchining tashish sanasi yoki vaqtini tashish hujjatida ko‘rsatilganidan kechroq yoki ertaroq muddatga o‘zgartirishi yo‘lovchining tashabbusi bilan tashishdan ixtiyoriy ravishda voz kechish deb hisoblanadi. Bunda «FLY KHIVA GROUP» MCHJ bunday tashish qiymatini qayta hisob-kitob qiladi.

## 2.5. XIZMATLAR VA MA’LUMOTLARNI TAQDIM ETISH

2.5.1. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ (shu jumladan Xizmat ko‘rsatuvchi tashkilot orqali) yoki uning Vakolatli agenti aeroportlarda va boshqa tashishlarni ro‘yxatdan o‘tkazish punktlarida, tashishlarni sotish punktlarida, HK bortida yo‘lovchilarga havo transportida tashishlarni amalga oshirish va ta’minalash bilan bog‘liq xizmatlar ko‘rsatilishini ta’minalaydi. Ko‘rsatilgan xizmatlar yo‘lovchilarga sifatli xizmat ko‘rsatishga qaratilgan. Xizmatlar bepul yoki pullik asosda ko‘rsatiladi.

2.5.2. Yo‘lovchi uchun yo‘lovchi o‘rni va tashish sig‘imini bron qilishda Vakolatli agent yoki «FLY KHIVA GROUP» MCHJ yo‘lovchiga quyidagi ishonchli va to‘liq ma’lumotlarni taqdim etadi:

a) «FLY KHIVA GROUP» MCHJ HK harakat jadvali to‘g‘risida;

b) tashish yo‘nalishi bo‘yicha «FLY KHIVA GROUP» MCHJ reyslarida bo‘s sh yo‘lovchi o‘rinlari va tashish sig‘imlari mavjudligi to‘g‘risida;

c) tariflar va tariflarni qo‘llash shartlari, shu jumladan tashish uchun to‘langan tashish haqini qaytarish (qaytarmaslik) shartlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

d) «FLY KHIVA GROUP» MCHJning yo‘lovchilarni tashish qoidalari to‘g‘risida;

e) Yo‘lovchini havo transportida tashish shartnomasi shartlari to‘g‘risida;

f) HK bortida xizmat ko‘rsatish shartlari to‘g‘risida;

g) HK turi to‘g‘risida;

h) amalda tashishni amalga oshiradigan Tashuvchi to‘g‘risida.

2.5.3. Bronlashtirishda Vakolatli agent yo‘lovchiga tashishning maqbul yo‘nalishini, tashish yo‘nalishi bo‘yicha tashishni amalga oshiruvchi tashuvchi(lar)ni va tashish uchun haqni tariflar va ularni qo‘llash shartlarini hisobga olgan holda tanlash bo‘yicha qo‘shimcha xizmatlar ko‘rsatishga haqli.

2.5.4. Tashish reysha haqni to‘lash va/yoki rasmiylashtirishda Vakolatli agent tashishlarni sotish punktlarida (agar mavjud bo‘lsa) yoki «FLY KHIVA GROUP» MCHJda (shu jumladan «FLY KHIVA GROUP» MCHJning internet-saytida) qo‘shimcha to‘lovsiz yo‘lovchiga tashish shartlari to‘g‘risida ishonchli va to‘liq ma’lumotlarni, shu jumladan quyidagi ma’lumotlarni taqdim etadi:

a) rasmiylashtirilgan tashish hujjatida ko‘rsatilgan ma’lumotlar;

b) Yo‘lovchini havo transportida tashish shartnomasi shartlari, shu jumladan bagajni bepul tashish normalari, tashish taqiqlangan predmetlar va buyumlar, bagaj tashishning alohida shartlari va boshqalar to‘g‘risida;

c) qatnovlarni bajarish jadvali, bajariladigan yo‘nalishlar bo‘yicha havo transportida tashish qiymati, shu jumladan bolalar va yo‘lovchilarning boshqa toifalarini tashishning imtiyozli shartlari to‘g‘risida;

d) tarifni qo‘llash shartlari to‘g‘risida;

e) «FLY KHIVA GROUP» MCHJning yo‘lovchilar, bagaj tashish qoidalari to‘g‘risida;

f) amalda tashishni amalga oshiradigan Tashuvchi to‘g‘risida;

g) jo‘nab ketish aeroportigacha borish usuli to‘g‘risida;

h) reysga ro‘yxatdan o‘tishning boshlanish va tugash joyi va vaqtini to‘g‘risida;

i) O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan chegara, bojxona, sanitariya-karantin, veterinariya, karantin fitosanitariya nazorati bilan bog‘liq umumiy talablar to‘g‘risida;

j) HK bortida xizmat ko‘rsatish shartlari to‘g‘risida;

k) HK turi to‘g‘risida;

l) tashishlarni sotish va bronlash punktlarining manzillari to‘g‘risida.

2.5.5. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ, Vakolatli agent (agar mavjud bo‘lsa) yoki Xizmat ko‘rsatuvchi tashkilot parvozlarni amalga oshirish aeroportlarida yo‘lovchilarni qo‘shimcha to‘lovlarsiz quyidagi ma’lumotlar bilan ta’minalaydi:

- a) reyslarni bajarish jadvali, bajariladigan yo‘nalishlar bo‘yicha havo transportida tashish qiymati to‘g‘risida;
- b) savdo shoxobchalarining manzillari, tashishlarni sotish va bronlash qoidalari to‘g‘risida;
- c) yo‘lovchilar va bagajni tashish qoidalari, shu jumladan bagajni bepul tashish normalari, havo transportida tashish taqiqlangan predmetlar va buyumlar hamda tashishning boshqa alohida shartlari to‘g‘risida;
- d) jadval (parvoz rejasi) bo‘yicha tashishni bajaruvchi HKning uchib ketish va yetib kelish vaqtini to‘g‘risida;
- e) chiptada ko‘rsatilgan reysga ro‘yxatdan o‘tish joyi, boshlanish va tugash vaqtini to‘g‘risida;
- f) jadval (parvoz rejasi) bo‘yicha tashishni amalga oshirayotgan HKga yo‘lovchilarni chiqarish joyi, boshlanish va tugash vaqtini to‘g‘risida;
- g) reysning kechiktirilishi yoki bekor qilinishi hamda reysning kechiktirilishi yoki bekor qilinishi sabablari to‘g‘risida;
- h) eng yaqin aholi manzilgohigacha borish, aeroport terminallari o‘rtasida, aeroportlar o‘rtasida harakatlanish usullari to‘g‘risida;
- i) yo‘lovchilar, bagaj va qo‘l yukini parvozdan oldingi va keyingi ko‘rikdan o‘tkazish qoidalari va tartibi to‘g‘risida;
- j) O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan chegara, bojxona, sanitariya-karantin, veterinariya, karantin fitosanitariya nazorat turlari bilan bog‘liq talablarni yo‘lovchilar tomonidan bajarilishining umumiyligi qoidalari to‘g‘risida;
- k) ona va bola xonalarining joylashuvi to‘g‘risida.

2.5.6. Muayyan yo‘lovchi nomiga yoki muayyan yukka tashish hujjatlarini rasmiylashtirish, jo‘nash aeroportida ro‘yxatdan o‘tish, jo‘natish va yetib kelish to‘g‘risidagi ma’lumotlarni taqdim etish faqat davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslarning yozma so‘rovlari asosida, agar bu so‘rovlardan qonun hujjatlarini yoki me’yoriy hujjatlar talablari bilan asoslangan bo‘lsa, amalga oshiriladi.

2.5.7. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ (shu jumladan Xizmat ko‘rsatuvchi tashkilot, AXX va davlat organlari orqali) aeroportlarda qo‘srimcha to‘lov undirmasdan quyidagi xizmatlar ko‘rsatilishini ta’minlaydi:

- a) tashish hujjatida ko‘rsatilgan yo‘nalish va reys bo‘yicha yo‘lovchilarni ro‘yxatdan o‘tkazish va bagajni rasmiylashtirish;
- b) yo‘lovchilar, bagaj, yukning aviatsiya xavfsizligini maxsus nazorat qilish;
- c) uchib ketayotgan va uchib kelgan yo‘lovchilarni aerovokzal binosidan HKga, HKdan aerovokzal binosiga yetkazish, ularni jo‘natish, oraliq, transfer, belgilangan aeroportlarda HK bortiga chiqarish va HK bortidan tushirish;
- d) tashish uchun rasmiylashtirilgan bagajni HKga yetkazish, uni HKga ortish, joylashtirish va mahkamlash, bagajni HKdan tushirish, bagajni tashish va yo‘lovchilarga berish;
- e) xalqaro tashishlarda bojxona, chegara, shuningdek, zarurat bo‘lganda, sanitariya-karantin, viza, immigratsiya, veterinariya va fitosanitariya nazoratini o‘tkazish;
- f) 7 yoshgacha farzandlari bo‘lgan yo‘lovchilarni ona va bola xonasiga joylashtirish.

2.5.8. «FLY KHIVA GROUP» MCHJning aybi bilan tashishda tanaffus bo‘lganda, shuningdek, parvoz kechiktirilganda, noqulay meteorologik sharoitlar, texnik va boshqa sabablarga ko‘ra parvoz bekor qilinganda, tashish yo‘nalishi o‘zgarganda, «FLY KHIVA GROUP» MCHJ ushbu reysga ro‘yxatdan o‘tgan yo‘lovchilar uchun jo‘nash manzillarida va oraliq manzillarda qo‘srimcha to‘lov undirmasdan quyidagi xizmatlarni tashkil qiladi:

- a) yetti yoshgacha farzandlari bo‘lgan yo‘lovchilarni ona va bola xonasiga joylashtirish;
- b) reys jo‘natilishini ikki soatdan ortiq kutganda ikkita telefon qo‘ng‘irog‘i yoki ikkita elektron pochta orqali xabar;
- c) reys jo‘nashini 2 (ikki) soatdan ortiq kutganda salqin ichimliklar bilan ta’minalash;
- d) reys jo‘nashini 4 (to‘rt) soatdan ortiq va keyinchalik har 6 (olti) soatda - kunduzgi vaqtida va har 8 (sakkiz) soatda - tungi vaqtida kutganda issiq ovqat bilan ta’minalash;
- e) yo‘lovchilar reys jo‘nashini 12 (o‘n ikki) soatdan ortiq - kunduzgi vaqtida va 8 (sakkiz) soatdan

ortiq - tungi vaqtida kutganda mehmonxonaga joylashtirilishi.

- f) mehmonxona qo'shimcha to'lov undirilmasdan taqdim etilgan hollarda yo'lovchilarni aeroportdan mehmonxonagacha va orqaga transportda yetkazib berish;
- g) bagajni saqlashni tashkil etish.

## 2.6. HK DA TASHISH SIG'IMINI BRONLASH

2.6.1. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ HKda tashish sig'imini (yo'lovchi o'rni, tonnaji, hajmi) bron qilish yo'lovchi uchun yo'lovchi va bagajni havo transportida tashishning zarur sharti hisoblanadi.

2.6.2. Tashish sig'imini bronlash Vakolatli agent yoki «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tomonidan amalga oshiriladi.

2.6.3. Yo'lovchi uchun tashish sig'imini bronlash, yo'lovchi, bagajni tashish uchun tashish hujjatlarini rasmiylashtirish «FLY KHIVA GROUP» MCHJ yoki Vakolatli agent tomonidan «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tariflarini qo'llash shartlarida belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

2.6.4. Yo'lovchi va uning bagaji uchun tashish sig'imini bronlash yo'lovchi «FLY KHIVA GROUP» MCHJ yoki Vakolatli agentga bevosita murojaat qilganda ham, telefon, faksimil aloqa, elektron pochta, internet orqali, shuningdek, boshqa aloqa turlari yordamida ham amalga oshirilishi mumkin.

2.6.5. «FLY KHIVA GROUP» MCHJda kamida 10 (o'n) yo'lovchi bo'lishi sharti bilan guruhli bronlash ko'zda tutilgan.

2.6.6. Tashish sig'imini bronlash faqat u «FLY KHIVA GROUP» MCHJ bronlash tizimiga kiritilgan, «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tomonidan belgilangan qoidalarga muvofiq bajarilgan va «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tariflarini qo'llash shartlariga zid bo'limgan taqdirdagina haqiqiy hisoblanadi.

2.6.7. HKda tashish sig'imini bronlashni o'zgartirish yoki bekor qilish imkoniyati «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tomonidan belgilangan tariflarni qo'llash shartlariga muvofiq cheklanishi yoki bekor qilinishi mumkin.

2.6.8. Yo'lovchi uchun yo'lovchi o'rni va tashish sig'imini bronlashda Vakolatli agent yoki «FLY KHIVA GROUP» MCHJ yo'lovchiga xizmat ko'rsatish klassi ko'rsatilgan HK salonidagi aniq yo'lovchi o'rnnini biriktirmaydi. Yo'lovchiga ajratiladigan muayyan joy raqami yo'lovchi va uning bagaji uchib ketish aeroportida (manzilida) ro'yxatdan o'tkazilayotganda ko'rsatiladi.

2.6.9. Yo'lovchi uchun tashish sig'imini bronlash «FLY KHIVA GROUP» MCHJ yoki uning Vakolatli agenti tomonidan yo'lovchiga rasmiylashtirilgan tashish hujjati berilgunga qadar dastlabki hisoblanadi.

2.6.10. Bronlash yo'lovchini ogohlantirmsandan quyidagi hollarda bekor qilinadi:

- a) Agar yo'lovchi tomonidan «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tomonidan belgilangan muddatda tashish to'lovi amalga oshirilmagan va unga chipta rasmiylashtirilmagan bo'lsa.
- b) «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tariflarini qo'llash shartlari bajarilmasa.
- c) Bronlash tizimida bronni saqlash muddati tugaganidan keyin.

2.6.11. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ alohida hollarda yo'lovchidan u uchun avval amalga oshirilgan tashish sig'imini buyurtma qilingan yo'nalish, jo'nash sanasi va vaqt, shuningdek HK bortida yo'lovchiga xizmat ko'rsatish klassi bo'yicha bronlashtirishni tasdiqlashni talab qilish huquqiga ega.

## 2.7. YO'LOVCHI VA BAGAJ HAQIDA MA'LUMOTLAR

2.7.1. Yo'lovchi HKda tashish sig'imini bron qilishda «FLY KHIVA GROUP» MCHJ yoki Vakolatli agentga tashish yo'nalishi, jo'nash sanasi va vaqt, bron qilinadigan o'rnlarning zarur soni, HK bortidagi xizmat ko'rsatish klassi, mavjud fuqaroligi, yo'lovchi va bagajni tashishning alohida shartlari, aloqa ma'lumotlari (telefon raqami yoki uni xabardor qilish uchun boshqa aloqa usuli) to'g'risida xabar berishi lozim.

2.7.2. Yo'lovchi bronlash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etishni rad etgan taqdirda, bronlash amalga oshirilmaydi.

2.7.3. Nogironlik va hayot faoliyati cheklanganligi «FLY KHIVA GROUP» MCHJ yoki tashish hujjatlarini bronlash, sotish va rasmiylashtirishni amalga oshiruvchi Vakolatli agent tomonidan nogiron yo'lovchilardan va hayot faoliyati cheklangan boshqa shaxslardan ularning nogironligi yoki hayot faoliyati cheklanganligi sababli bunday yo'lovchilarning sog'lig'i holatini tasdiqlovchi hujjatlarni talab

qilish uchun asos bo‘lishi mumkin emas.

2.7.4. Tashish sig‘imini bronlashda «FLY KHIVA GROUP» MCHJ bilan tashishning alohida shartlarini kelishish talab etiladi:

- 2 yoshgacha bo‘lgan farzandi bor yo‘lovchi
- Voyaga yetgan yo‘lovchi yoki O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik qonunchiligiga muvofiq o‘n sakkiz yoshga to‘lgunga qadar to‘liq muomala layoqatiga ega bo‘lgan yo‘lovchi hamrohligida bo‘lmagan bola «FLY KHIVA GROUP» MCHJ kuzatuvi ostida tashiladi.
- Og‘ir bemor yo‘lovchi
- kuzatuvchi iti bo‘lgan ko‘zi ojiz yo‘lovchi;
- Havo transportidan foydalanishda harakatlanish imkoniyati cheklangan va/yoki holati xizmat ko‘rsatishda alohida e’tibor talab qiladigan yo‘lovchi (keyingi o‘rinlarda – harakatlanishi cheklangan yo‘lovchi)
- Quroli va/yoki o‘q-dorilari bo‘lgan yo‘lovchi.
- Tashuvchi tomonidan bagajni bepul tashish me’yori nazarda tutilgan yo‘lovchini havo transportida tashish shartnomasini tuzishda yo‘lovchining bagaji, tashuvchi tomonidan belgilangan bagajni bepul tashish me’yordan yoki yo‘lovchining bagajini bepul tashish me’yori nazarda tutilmagan yo‘lovchini havo transportida tashish shartnomasini tuzishda yo‘lovchining bagaji (keyingi o‘rinlarda – normadan ortiq bagaj).
- Qadoqlangan holatda bir joyning o‘lchamlari uch o‘lchov yig‘indisida 203 (ikki yuz uch santimetr) dan oshadigan bagaj (keyingi o‘rinlarda – nogabarit bagaj).
- Bir o‘rnining og‘irligi 32 (o‘ttiz ikki) kilogrammdan ortiq bo‘lgan bagaj (keyingi o‘rinlarda – og‘ir vaznli bagaj).
- Faqat HK salonida tashilishi kerak bo‘lgan bagaj.
- Pul belgilari yoki tangalar, aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlar, kredit va bank kartalari, zargarlik buyumlari, qimmatbaho metallar, qimmatbaho yoki yarim qimmatbaho toshlar, shu jumladan sanoat olmoslari ko‘rinishidagi valyutalar (keyingi o‘rinlarda – qimmatli yuk).
- Qiymati e’lon qilingan yuk.
- Muayyan saqlash muddati tugashi natijasoda yoki harorat, namlik yoki atrof-muhitning boshqa noqulay sharoitlari ta’sirida buziladigan buyumlar va moddalar (keyingi o‘rinlarda – tez buziladigan yuk).
- Sog‘liq, xavfsizlik, mol-mulk yoki atrof-muhitga tahdid solishi mumkin bo‘lgan va xavfli yuklar ro‘yxatida ko‘rsatilgan yoki O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari va qonunchiligiga muvofiq xavfli yuklar sifatida tasniflangan buyumlar yoki moddalar (keyingi o‘rinlarda – xavfli yuk).
- Itlar, mushuklar, qushlar va boshqa mayda uy (qo‘lga o‘rgatilgan) hayvonlari (keyingi o‘rinlarda – uy hayvonlari / qushlari).
- Hayvonlar, qushlar, hasharotlar, baliqlar va shu kabilar (keyingi o‘rinlarda – hayvonlar).
- Maxsus tashish shartlarini talab qiladigan yuklar.
- Inson qoldiqlari va hayvonlar qoldiqlari.
- Sport anjomlari.
- Alohida taomga muhtoj yo‘lovchi.
- Vizasiz transfert yoki tranzit yo‘lovchi.
- Deportatsiya qilinayotgan yo‘lovchi.

2.7.5. Vakolatli agent yoki «FLY KHIVA GROUP» MCHJ yo‘lovchidan olingan ma’lumotlarni uchinchi shaxslarga bermaydi, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi yoki xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

2.7.6. Amaldagi qonunchilik doirasida yo‘lovchi «FLY KHIVA GROUP» MCHJga «FLY KHIVA GROUP» MCHJ yoki Vakolatli agentga tashishni bron qilish, qo‘srimcha xizmatlardan foydalanish, bagajni qidirish tizimida va chiptalar bilan bog‘liq firibgarliklarning oldini olish va fosh etish tizimlarida ishslash yoki kompensatsiya olish, parvozdan oldingi va keyingi rasmiyatichiliklardan o‘tishni osonlashtirish maqsadida taqdim etilgan o‘zi haqidagi ma’lumotlarni saqlashga ruxsat beradi. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ yuqorida ko‘rsatilgan maqsadlarda yo‘lovchi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘zining xizmatchilariga, xizmat ko‘rsatish agentlariga, agentlariga, boshqa Tashuvchilarga, qo‘srimcha xizmatlar provayderlariga yoki hududiga, hududidan yoki hududi orqali tashish amalga oshirilayotgan mamlakatning davlat organlariga (ularning so‘roviga ko‘ra) berish huquqiga ega.

2.7.7. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ yo‘lovchi/yuk jo‘natuvchining shaxsga doir ma’lumotlarini qayta

ishlashga haqli bo‘lib, ular bronlash, chipta rasmiylashtirishda, shuningdek tashish shartlari o‘zgarganda yoki tashishdan ixtiyoriy ravishda voz kechilganda ularga har qanday shaklda xabar qilinadi. Ushbu Qoidalar doirasida yo‘lovchining shaxsga doir ma’lumotlarini qayta ishslash deganda «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tomonidan Havo transportida tashish shartnomasi bo‘yicha majburiyatlarini bajarish doirasida avtomatlashtirish vositalaridan foydalangan holda yoki bunday vositalardan foydalanmasdan amalga oshiriladigan har qanday harakat (operatsiya) yoki harakatlar (operatsiyalar) majmui tushuniladi, shu jumladan shaxsga doir ma’lumotlarni to‘plash, yozish, tizimlashtirish, saqlash, aniqlashtirish (yangilash, o‘zgartirish), ajratib olish, foydalanish, uzatish (tarqatish, taqdim etish, kirish), egasizlantirish, bloklash, o‘chirish, yo‘q qilish.

2.7.8. Ushbu Qoidalar kontekstida yo‘lovchining shaxsga doir ma’lumotlari deganda quyidagilar tushuniladi:

- a) familiyasi, ismi, otasining ismi;
- b) pasport ma’lumotlari;
- c) yashash joyi manzili;
- d) aloqa telefoni raqami;

e) yo‘lovchi tomonidan tashishni bronlash va rasmiylashtirishda ko‘rsatilgan elektron pochta manzili va boshqa ma’lumotlar.

2.7.9. Havo transportida tashish shartnomasini tuzish fakti yo‘lovchining quyidagilarga roziligini tasdiqlaydi:

a) uning shaxsga doir ma’lumotlarini yo‘lovchilarni bronlashtirish va ro‘yxatga olishning avtomatlashtirilgan tizimiga va boshqa avtomatlashtirilgan tizimlarga (shu jumladan, bunday uzatish shaxsga doir ma’lumotlarning transchegaraviy uzatilishi bo‘lgan hollarda ham) uzatish.

b) «FLY KHIVA GROUP» MCHJ o‘z Agentlariga yoki «FLY KHIVA GROUP» MCHJ topshirig‘iga ko‘ra tashishni amalga oshirish yoki taqdim etish jarayoniga jalb qilingan boshqa shaxslarga yo‘lovchining shaxsga doir ma’lumotlariga ishlov berishni amalga oshirishga vakolat berishga haqli ekanligi.

## **2.8. TARIFLAR, SOLIQLAR, YIG‘IMLAR VA CHEGIRMALAR**

2.8.1. Yo‘lovchilar va bagajni muntazam reyslarda tashish uchun Vakolatli agent yoki «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tomonidan tashish haqi undiriladi. Tashish haqini to‘lash shakllari va tartibi «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tomonidan belgilanadi hamda tashishni rasmiylashtirishda yo‘lovchilar e’tiboriga yetkaziladi.

2.8.2. Tashish haqi tashish hujjatida ko‘rsatiladi. HK (havo charteri) ni fraxtlash shartnomasi bo‘yicha amalga oshiriladigan yo‘lovchi va bagaj tashish uchun to‘lov tashish hujjatida ko‘rsatilmaydi.

2.8.3. Tashish haqi «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tomonidan quyidagilar asosida belgilanadi:

- Yo‘lovchini havo transportida tashish shartnomasiga muvofiq yo‘lovchini va/yoki bagajni tashish yo‘nalishining ikki manzili o‘rtasida tashish uchun pul summasi (keyingi o‘rinlarda – tariflar) yoki yo‘lovchi va bagajni tashish boshlanadigan aeroport (manzil) dan tariflar kombinatsiyasi;
- yo‘lovchi tomonidan yuqori qulaylikdagi qo‘srimcha xizmatlarga buyurtma berilgan taqdirda, «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tomonidan belgilangan yuqori qulaylikdagi qo‘srimcha xizmatlar narxi.

2.8.4. Vakolatli agent tomonidan yo‘lovchiga tashishning maqbul yo‘nalishini, yo‘nalish bo‘yicha tashishni amalga oshiruvchi tashuvchi (lar) ni, tashish shartlarining yo‘lovchi tomonidan berilgan ustuvor parametrlariga va/yoki har bir Tashuvchiga nisbatan umumiyl tashish shartlariga va maslahat xizmatlariga muvofiq tashish uchun tashish haqini tanlash bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatilganligi uchun Vakolatli agent tomonidan yo‘lovchidan qo‘srimcha haq olinishi mumkin.

2.8.5. Havo transportida tashish tarifi faqat yo‘lovchini, uning bagajini jo‘nash manzilidan belgilangan manzilgacha tashish uchun haq to‘lash uchun qo‘llaniladi va «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tomonidan belgilanadi. Tarif aeroportlar o‘rtasida hamda aeroport va aholi manzilgohi markazi o‘rtasida yer usti transport xizmatini o‘z ichiga olmaydi, bunday xizmat ko‘rsatish «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tomonidan nazarda tutilgan va qo‘srimcha to‘lovlarsiz taqdim etilgan hollar bundan mustasno.

2.8.6. Tashish to‘lovi va chiptani rasmiylashtirish bronlashdan keyin amalga oshiriladi, quyidagi holatlar bundan mustasno:

- jo'nab ketish sanasi ochiq bo'lgan chiptani rasmiylashtirish (chiptada belgilangan sana ko'rsatilmagan holda);
- bo'sh tashish sig'imini kutish maqomiga ega chiptani rasmiylashtirish («qo'nishga» maqomiga ega chipta);
- yo'lovchilar chiptalarini ro'yxatdan o'tkazish va bagajni rasmiylashtirish tugagandan so'ng bo'sh tashish sig'imlari mavjud bo'lganda chiptani rasmiylashtirish.

2.8.7. Tashish uchun haq to'lash oldindan to'lov bo'yicha amalga oshirilishi mumkin. Bunda tashish haqini to'lash tashishlarni sotishning bitta manzilida, tashish hujjatini rasmiylashtirish esa tashishlarni sotishning boshqa manzilida amalga oshirilishi mumkin.

2.8.8. Yo'lovchini va uning bagajini tashish uchun haq to'lashda tashish boshlangan sanada amalda bo'lgan tariflar qo'llaniladi.

2.8.9. Yo'lovchi tomonidan to'langan va «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tomonidan e'lon qilingan tarif yoki valyuta kursi o'zgarishidan oldin rasmiylashtirilgan chipta, bagaj kvitansiyasi, agar havo transportida tashish shartnomasida o'zgartirish kiritilmasa, tashish boshlangan kunda amalda bo'lgan tarifgacha qo'shimcha to'lovsiz haqiqiyidir. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tariflaridagi yoki tariflarni qo'llash shartlaridagi hech qanday o'zgarishlar, agar tashish allaqachon boshlangan bo'lsa, havo transportida tashish shartlariga ta'sir qilmaydi.

2.8.10. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ Yo'lovchini havo transportida tashish shartnomasi shartlarini quyidagi sabablarga ko'ra o'zgartirgan taqdirda:

- chiptada ko'rsatilgan reysning bekor qilinishi yoki kechiktirilishi (2 soat yoki undan ko'proq), yagona tashish rasmiylashtirilgan holatlar bundan mustasno;
- tashish yo'nalishini o'zgartirish;
- jadvalning erta jo'nash tomonga o'zgarishi, 30 daqiqadan ortiq;
- yo'lovchiga chiptada ko'rsatilgan sana va reysga joy berish imkoniyati yo'qligi sababli yo'lovchi jo'natilmaganda;
- agar bagajni ko'zdan kechirish yoki yo'lovchini shaxsiy ko'rikdan o'tkazish paytida tashish taqilangan moddalar va buyumlar topilmagan bo'lsa, tekshiruvning uzoq davom etishi tufayli yo'lovchining aeroportda ushlanib qolishi natijasida HKda yo'lovchini tashish amalga oshmagan bo'lsa;
- yagona tashish amalga oshirilgan taqdirda reyslar tutashishini ta'minlamaslik;
- tibbiy hujjatlar bilan tasdiqlangan yo'lovchining to'satdan kasal bo'lishi yoki u bilan birga HKda ketayotgan oila a'zosining kasalligi yoki o'limi;
- yo'lovchiga chiptada ko'rsatilgan klass bo'yicha xizmat ko'rsatilmaganda;
- Vakolatli agent yoki «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tomonidan chipta noto'g'ri rasmiylashtirilganda; – (keyingi o'rirlarda – Yo'lovchini havo transportida tashish shartnomasi shartlarini majburiy o'zgartirish) tashish boshlangunga qadar yoki tashish boshlangandan keyin yo'lovchidan qo'shimcha to'lov undirilmaydi.

2.8.11. Yo'lovchi tomonidan Havo transportida tashish shartnomasi shartlari tashish boshlanishidan oldin yoki tashish boshlangandan keyin tashuv haqi o'zgarganda ixtiyoriy ravishda o'zgartirilgan taqdirda, tashish yangi tashishga mos keladigan tarif bo'yicha amalga oshiriladi. Yangi tashish uchun tarif, agar «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tariflarini qo'llash shartlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, tashish boshlangan kunda amalda bo'lgan boshlang'ich tashish manzilidan qayta hisoblanadi. Qo'shimcha to'lov summasi dastlabki tarif va yangi tashish tarifi o'rtasidagi farq sifatida, barcha zurna to'lovlarni hisobga olgan holda hisoblanadi. Agar yangi tashish uchun tarif dastlabki tarifdan kam bo'lsa, u holda ular o'rtasidagi farq dastlabki chipta sotib olingan joyda qaytarish uchun MCO (EMD) ga o'tkaziladi.

2.8.12. Yo'lovchilardan ushlab qolinadigan soliqlar va yig'imlarni hisoblash tartibi tegishli davlat organlari va/yoki «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tomonidan belgilanadi va tashishni rasmiylashtirishda sotuv punktlarida yo'lovchilar e'tiboriga yetkaziladi. Har qanday soliq yoki yig'im, agar «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tariflarini qo'llash shartlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, yo'lovchi tomonidan tarifdan tashqari to'lanadi.

2.8.13. Havo transporti tariflariga chegirmalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi asosida ishlab chiqilgan «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tariflarini qo'llash shartlari bilan belgilanadi.

2.8.14. Tariflar, soliqlar va yig'imlar yo'lovchi tomonidan, agar bu sotuvchi mamlakatning valyutani tartibga solish qoidalariga zid bo'limasa, tashish hujjati rasmiylashtirilayotgan mamlakat valyutasida yoki

«FLY KHIVA GROUP» MCHJ tomonidan to‘lov uchun belgilangan boshqa valyutada to‘lanadi.

2.8.15. Agar tashish uchun to‘lov tarif e’lon qilingan valyutadan boshqa valyutada amalga oshirilsa, u holda to‘lov valyutasidagi ekvivalentni hisoblash tashishni rasmiylashtirish paytida amalda bo‘lgan bronlash tizimlarida e’lon qilingan kurs asosida amalga oshiriladi. Bunda tarif to‘lovi ekvivalenti miqdori «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tomonidan tartibga solinishi mumkin.

2.8.16. Yo‘lovchi (to‘lovni amalga oshiruvchi tashkilot yoki shaxs) tomonidan tegishli tarif (lar) va/yoki tegishli yig‘im (lar) bo‘yicha to‘lov amalga oshirilmagan yoki «FLY KHIVA GROUP» MCHJ o‘rtasida tuzilgan kredit shartnomasiga rioya qilinmagan taqdirda «FLY KHIVA GROUP» MCHJ yo‘lovchi, bagaj, yuk tashishni rad etishi mumkin.

### **3-BOB. YO‘LOVCHILARNI TASHISH**

#### **3.1. HUJJATLAR: YO‘LOVCHI CHIPTASI VA BAGAJ KVITANSIYASI**

3.1.1. Elektron yo‘lovchi chiptasi va bagaj kvitansiyasi (keyingi o‘rinlarda – elektron chipta) quyidagi tuzilma va mazmunga ega:

3.1.1.1. Elektron chipta (Electronic Ticket) ning tuzilishi:

a) elektron parvoz kuponi (reyslar soniga qarab elektron parvoz kuponlari soni 1 tadan 4 tagacha bo‘lishi mumkin);

b) elektron nazorat kuponi;

c) elektron agentlik kuponi;

d) yo‘nalish-kvitansiyasi (Itinerary Receipt) (havo tashuvlarini rasmiylashtirishning avtomatlashtirilgan axborot tizimidan ko‘chirma), u yo‘lovchi uchun elektron chiptani rasmiylashtirish natijalari bo‘yicha shakllantiriladi.

#### **IZOHLAR:**

- Elektron parvoz kuponi va yo‘nalish-kvitansiyaning mavjudligi majburiy hisoblanadi.
- Elektron yo‘lovchi chiptasi va bagaj kvitansiyasi tashish hujjatining mustaqil shakli bo‘lib, yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatishning barcha texnologik operatsiyalarida va tashish jarayoni ishtirokchilarining munosabatlarida qo‘llaniladi.

3.1.1.2. Elektron chiptaning mazmuni – yo‘nalish-kvitansiya (havo transportida tashishlarni rasmiylashtirishning avtomatlashtirilgan axborot tizimidan ko‘chirma), elektron parvoz, elektron nazorat, elektron agentlik kuponlari yo‘lovchi va bagajni tashish to‘g‘risidagi quyidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi:

- yo‘lovchi haqidagi ma’lumotlar;
- ichki tashishlar uchun – familiyasi, ismi, otasining ismi, shaxsni tasdiqlovchi hujjatning seriyasi va raqami, nomi;
- xalqaro tashishlar uchun – familiyasi, xalqaro me’yorlarga muvofiq boshqa ma’lumotlar.
- Tashuvchining nomi va/yoki kodi («FLY KHIVA GROUP» MCHJ);
- reys raqami;
- reysning jo‘nash sanasi;
- reysning jo‘nash vaqt;
- har bir reys uchun aeroportlar/jo‘nash va borish manzillarining nomi va (yoki) kodlari;
- tarif;
- tarif ekvivalenti (agar qo‘llanilsa);

- qo'llaniladigan sotuv valyutasi;
- tashishning yakuniy qiymati;
- to'lov shakli;
- yig'imlar (agar qo'llanilsa);
- bandlov klassining nomi va/yoki kodi;
- bandlov holatining kodi;
- rasmiylashtirish sanasi;
- chiptani rasmiylashtirgan Vakolatli agent yoki Tashuvchining nomi («FLY KHIVA GROUP»);
- bagajni bepul tashish me'yori (xohishga ko'ra);
- elektron chiptaning noyob raqami.

3.1.1.3. Yo'naliш-kvitansiya (havo tashuvlarini rasmiylashtirishning avtomatlashtirilgan axborot tizimidan ko'chirma) yo'lovchiga majburiy tartibda rasmiylashtiriladi va beriladi (elektron shaklda axborot-telekommunikatsiya tarmog'i orqali yuboriladi). Yo'naliш-kvitansiya (havo tashuvlarini rasmiylashtirishning avtomatlashtirilgan axborot tizimidan ko'chirma) qat'iy hisobot hujjati hisoblanadi.

3.1.1.4. Yo'naliш-kvitansiya (havo tashuvlarini rasmiylashtirishning avtomatlashtirilgan axborot tizimidan ko'chirma), elektron parvoz kuponi, elektron nazorat kuponi, elektron agentlik kuponi tashish shartlari yoki yo'lovchilar va bagajga xizmat ko'rsatish xususiyatlari to'g'risidagi boshqa qo'shimcha ma'lumotlarni, shu jumladan nogiron yo'lovchilar va hayot faoliyati cheklangan boshqa shaxslarning hayot faoliyati cheklanganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi mumkin.

3.1.2. Elektron chipta avtomatlashtirilgan tizimdan foydalangan holda shakllantiriladi. Har bir yo'lovchi uchun alohida elektron chipta rasmiylashtiriladi.

3.1.3. Chipta O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga yoki O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasiga muvofiq yo'lovchini Havo transportida tashish shartnomasida nazarda tutilgan yo'naliш bo'yicha tashish uchun zarur bo'lgan yo'lovchining shaxsini tasdiqlovchi hujjat ma'lumotlari asosida rasmiylashtiriladi.

3.1.4. Maxsus tarif bo'yicha tashish sotilgan taqdirda, chipta ushbu Qoidalarning 3.1.3-bandida ko'rsatilgan hujjat ma'lumotlari va yo'lovchining maxsus tarifni qo'llash huquqini tasdiqlovchi hujjatlar asosida rasmiylashtiriladi.

3.1.5. Tashish haqi naqd pulsiz hisob-kitob bo'yicha yoki to'lov kechiktirilgan holda to'langan taqdirda chipta tashish haqi to'langanligini tasdiqlovchi (kafolatlovchi) hujjatlar asosida rasmiylashtiriladi.

3.1.6. Elektron chiptani sotib olish usullari:

- «FLY KHIVA GROUP» MCHJ aviakassalarida.
- «FLY KHIVA GROUP» MCHJning internet sayti orqali.
- Ishonchli vakil orqali.

3.1.7. Jo'nash manzili, belgilangan manzil ikki davlat hududida yoki bir davlat hududida joylashgan xalqaro tashishlarda, agar boshqa davlat hududida qo'nish manzili (manzillari) nazarda tutilgan bo'lsa, shuningdek, jo'nash manzili, belgilangan manzil va barcha qo'nish manzillari bir davlat (O'zbekiston Respublikasi emas) hududida joylashgan ichki tashishlarni rasmiylashtirishda elektron chipta ingliz tilida rasmiylashtiriladi.

3.1.8. Jo'nash manzili, belgilangan manzil va barcha qo'nish manzillari O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan ichki tashishlar uchun elektron chipta o'zbek tilida rasmiylashtiriladi (agar «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tomonidan elektron chiptani ingliz tilida rasmiylashtirish nazarda tutilmagan bo'lsa).

3.1.9. Elektron aviachipta sotib olinganda (bron qilinganda) yo'lovchi yo'naliш-kvitansiyani olishi kerak. Yo'naliш-kvitansiya printerda A4 formatdagi standart varaqda chop etiladi. Internet orqali aviatashuv sotib olingan taqdirda, yo'naliш-kvitansiya yo'lovchiga elektron pochta orqali yuboriladi.

Aviatashuvlarni «FLY KHIVA GROUP» MCHJ internet-saytida xarid qilganda, yo‘nalish-kvitansiyani yuklab olish, chop etish va veb-ro‘yxatdan o‘tkazish imkoniyati ham mavjud bo‘ladi.

### 3.1.10. Yo‘lovchi:

- elektron chiptaning yo‘nalish-kvitansiyasini bevosita Vakolatli agent yoki «FLY KHIVA GROUP» MCHJning tashishlarni sotish punktida olishi;
- yoki elektron chiptaning yo‘nalish-kvitansiyasini axborot-telekommunikatsiya tarmog‘i orqali elektron shaklda olishi mumkin.

3.1.11. Yo‘nalish-kvitansiya yo‘lovchiga faqat belgilangan tarif bo‘yicha tashish haqi to‘langandan keyin beriladi.

3.1.12. To‘lovlarni rasmiylashtirish uchun Vakolatli agent yoki «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tomonidan quyidagilarni tasdiqlovchi hujatlardan foydalaniladi:

- yig‘imlar va xizmatlar to‘lovi (turli yig‘imlar orderi, EMD, turli yig‘imlar kvitansiyasi);
- «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tomonidan belgilangan bagaj, qiymati e’lon qilingan bagaj, qo‘srimcha haq to‘lanadigan boshqa bagajlarni bepul tashish me’yordan ortiqcha bagaj tashish uchun to‘lov (me)yordan ortiqcha bagaj uchun to‘lov kvitansiyasi, EMD).

3.1.13. Yo‘lovchi tashishga faqat tegishli tarzda rasmiylashtirilgan elektron shakldagi haqiqiy chipta mavjud bo‘lganda qo‘yiladi.

3.1.14. Agar bronlashda elektron chipta chiqarilganligi to‘g‘risida ma’lumot bo‘lmasa va avtomatlashtirilgan ro‘yxatga olish tizimining PNL da yo‘lovchi to‘g‘risidagi ma’lumotlar bo‘lmasa, yo‘lovchi tashishga qo‘yilmaydi.

3.1.15. Chiptaga o‘zgartirishlar kiritish yo‘lovchining iltimosiga ko‘ra amalga oshiriladi va «FLY KHIVA GROUP» MCHJning tariflarini qo‘llash shartlariga muvofiq «FLY KHIVA GROUP» MCHJning roziligi bilan Vakolatli agent tomonidan yoki bevosita «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tomonidan amalga oshiriladi.

3.1.16. Reys raqami, jo‘nash sanasi va vaqtini o‘zgartirish «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tariflarini qo‘llash shartlariga muvofiq yig‘imlarni to‘lagan holda chiptani qayta rasmiylashtirish orqali amalga oshiriladi.

3.1.17. Yo‘lovchi sayohat uchun zarur bo‘lgan barcha hujatlari, vizalar, ruxsatnomalar va boshqalarni olish, shuningdek, jo‘nash, kelish va tranzit mamlakatining chiqish, kirish va tranzit to‘g‘risidagi barcha amaldagi qonunlariga rioya qilish uchun javobgardir. Yo‘lovchi bunday hujatlarni yoki vizalarni olmagan yoki amaldagi qonunlar talablarini bajarmagan taqdirda «FLY KHIVA GROUP» MCHJ yo‘lovchi oldida javobgar bo‘lmaydi. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ talabiga ko‘ra, yo‘lovchi barcha chiqish, kirish, tranzit, sog‘lig‘i holati to‘g‘risidagi hujatlarni, amaldagi qonunchilikda talab qilinadigan boshqa hujatlarni taqdim etishi, shuningdek, «FLY KHIVA GROUP» MCHJga hujatlarning nusxalarini ko‘chirishga va o‘zida qoldirishga yoki, agar «FLY KHIVA GROUP» MCHJ buni zarur deb hisoblasa, tegishli hujatlardagi ma’lumotlarni o‘zida qoldirishga ruxsat berishi shart.

## 3.2. AMAL QILMAYDIGAN YO‘LOVCHI CHIPTASI

3.2.1. Yo‘lovchi tegishli ravishda rasmiylashtirilgan chipta mavjud bo‘lganda tashishga qo‘yiladi.

3.2.2. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ yo‘lovchini Havo transportida tashish shartnomasi tuzilganligi fakti aniqlanmagunga qadar yo‘lovchini tashishga qo‘ymasligi mumkin, agar:

a) Elektron shaklda rasmiylashtirilgan chiptaning tegishli parvoz kuponi parvoz uchun mo‘ljallanmagan maqomga ega bo‘lsa.

b) «FLY KHIVA GROUP» MCHJ talabiga ko‘ra, yo‘lovchining muayyan chipta uchun to‘lov amalga oshirilayotgan bank kartasi nusxasi yoki yo‘lovchining chipta uchun to‘lov amalga oshirilgan bank kartasi bo‘yicha tranzaksiyaga avtorizatsiya kodi taqdim etilmagan taqdirda, bank kartalaridan noqonuniy foydalanish va elektron firibgarlik holatlaridan himoya qilish doirasida.

c) Chipta «FLY KHIVA GROUP» MCHJning Vakolatli agenti bo‘lmasdan shaxsdan sotib olingan bo‘lsa.

3.2.3. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ bilan havo transportida tashish shartnomasi tuzilganligi fakti yo‘lovchi tashilishi kerak bo‘lgan tegishli reys amalda jo‘natilgandan keyin aniqlangan yo‘lovchiga, unga «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tomonidan qo‘llaniladigan tarif shartlariga muvofiq, to‘langan tarifa

mos keladigan, o'sha xizmat ko'rsatish klassida bo'sh joy va tashish sig'imi mavjud bo'lgan eng yaqin reysda amalga oshirilmagan tashish yo'nalihi bo'yicha tashishdan foydalanish yoki amalga oshirilmagan tashish uchun pulni qaytarish (tashuvdan ixtiyoriy ravishda voz kechilgan taqdirda yo'lovchiga to'lanishi mumkin bo'lgan summa miqdorida) taklif qilinishi mumkin. Interlayn-sherik tomonidan rasmiylashtirilgan chipta bo'yicha amalga oshirilmagan tashish uchun to'lovnii qaytarish interlayn-sherik tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

3.2.4. Yo'lovchi tomonidan yo'qotilgan me'yordan ortiqcha bagaj uchun to'lov kvitansiyasi va turli yig'imlar orderi tiklanmaydi va dublikatlar rasmiylashtirilmaydi.

### **3.3. YO'LOVCHI CHIPTASINING AMAL QILISH MUDDATI**

3.3.1. Chipta unda ko'rsatilgan yo'nalihi va xizmat ko'rsatish klassi bo'yicha yo'lovchi va uning bagajini jo'nash manzilidan belgilangan manzilgacha tashish uchun amal qiladi. Har bir parvoz kuponi (chiptaning bir qismi) yo'lovchi va uning bagajini tashish uchun faqat unda ko'rsatilgan yo'nalihi uchastkasi, xizmat ko'rsatish klassi, u rasmiylashtirilgan sana va reys uchun amal qiladi. Agar chipta bron qilinganligi to'g'risida belgi qo'yilmagan (jo'nash sanasi ochiq bo'lgan) holda rasmiylashtirilgan bo'lsa, u holda so'ralgan reysda bo'sh o'rinalar mavjud bo'lgan taqdirda yo'lovchining talabiga muvofiq joy bron qilinadi.

3.3.2. Sotish va foydalanish shartlarini cheklamaydigan tarif (keyingi o'rnlarda – normal tarif) bo'yicha to'langan chipta «FLY KHIVA GROUP» MCHJning yo'lovchi va uning bagajini tashishning boshlanish sanasidan, agar tashish boshlanmagan bo'lsa, chipta rasmiylashtirilgan sanadan boshlab bir yil davomida tashish majburiyatini tasdiqlaydi.

3.3.3. Maxsus tarif bo'yicha to'langan chipta «FLY KHIVA GROUP» MCHJning Yo'lovchini havo transportida tashish shartnomasida belgilangan muddatlarda yo'lovchi va uning bagajini tashish majburiyatini tasdiqlaydi va faqat «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tariflarini qo'llash shartlarida belgilangan muddat davomida tashish yoki almashtirish uchun amal qiladi.

3.3.4. Maxsus tarif bo'yicha rasmiylashtirilgan yo'lovchi chiptasining yaroqlilik muddati tashish boshlangan sanadan boshlab belgilanadi. Agar maxsus tarif bo'yicha rasmiylashtirilgan chiptaning amal qilish muddati tugagan bo'lsa, bunday chipta, agar tarifni qo'llash shartlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, yuqoriroq tarifgacha qo'shimcha haq to'lagan holda ayrboshlash uchun qabul qilinishi mumkin. Bunda yangidan rasmiylashtirilgan chiptaning yaroqlilik muddati, agar tashish boshlangan bo'lsa, chiptaning birinchi parvoz kuponi bo'yicha yoki, agar hech qanday parvoz kuponi ishlatilmagan bo'lsa, chipta berilgan sanadan boshlab hisoblanadi. Qo'shimcha to'lov, agar «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tariflarini qo'llash shartlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, qayta rasmiylashtirish vaqtida amalda bo'lgan tarif bo'yicha butun yo'nalihi (borish va qaytish) bo'yicha hisoblanadi. Bu holda dastlabki chipta bo'yicha summa qaytarilmaydi.

3.3.5. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ yo'lovchi ushbu Qoidalarning 2.8.10-bandiga muvofiq tashishdan majburiy bosh tortgan hollarda yo'lovchidan qo'shimcha to'lov undirmasdan chiptaning amal qilish muddatini uzaytirishi mumkin.

3.3.6. Agar yo'lovchi o'zining yoki oila a'zosining kasalligi tufayli chiptaning amal qilish muddati davomida boshlangan tashishni tugata olmasa, bunday chiptaning amal qilish muddati yo'lovchi tomonidan taqdim etilgan tibbiy hujatlarning amal qilish muddatiga uzaytiriladi.

### **3.4. CHIPTALARNI RO'YXATDAN O'TKAZISH VA TASHISH UCHUN YO'LOVCHILARNING BAGAJINI RASMIYLASHTIRISH**

3.4.1. Yo'lovchi va bagajni tashish uchun «FLY KHIVA GROUP» MCHJ chiptalarni ro'yxatdan o'tkazish va yo'lovchilarning bagajini tashish uchun rasmiylashtirishni ta'minlaydi.

3.4.1.1. Ro'yxatdan o'tkazish bosqichida hamrohlik qiluvchi shaxs bo'lmaganda, hamrohlik qiluvchining mavjudligi majburiy bo'lgan hollarda, yo'lovchi tashishga qabul qilinmaydi.

3.4.2. Yo'lovchi chiptasiga ega bo'lgan yo'lovchi jo'nash aeroportida yoki «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tomonidan belgilangan boshqa manzilda bagajni ro'yxatdan o'tkazish va rasmiylashtirish jarayonidan o'tishi kerak. Xalqaro yo'nalihi bo'yicha tashishda yo'lovchi bojxona, chegara, ziar hollarda esa sanitariya-karantin, immigratsiya, veterinariya, fitosanitariya va boshqa nazorat turlaridan

ham o‘tishi kerak.

3.4.3. Yo‘lovchi oldindan (xalqaro reyslarda - 3 soatdan kechiktirmasdan, ichki reyslarda - chiptada ko‘rsatilgan HK jo‘nash vaqtidan 2 soatdan kechiktirmasdan) yo‘lovchilar chiptalarini ro‘yxatdan o‘tkazish va ularning bagajini tashish uchun rasmiylashtirish joyiga yetib kelishi, tashish uchun zarur bo‘lgan hujjatlarni o‘zi bilan olib kelishi, chiptalarini ro‘yxatdan o‘tkazish va bagajni rasmiylashtirishning belgilangan tartib-qoidalardan o‘tishi, normadan ortiq va boshqa to‘lanishi kerak bo‘lgan bagaj uchun to‘loymi amalga oshirishi, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi yoki hududidan tashish amalga oshirilayotgan mamlakat qonunchiligidagi nazarda tutilgan aviatsiya xavfsizligini nazorat qilish, chegara, bojxona, sanitariya-karantin, veterinariya, karantin, fitosanitariya nazorat turlari bilan bog‘liq parvoz oldi rasmiyatchiliklaridan o‘tishi, shuningdek HK bortiga chiqish uchun yetib kelishi kerak.

3.4.4. Aeroportda «FLY KHIVA GROUP» MCHJ reyslariga yo‘lovchi chiptalarini ro‘yxatdan o‘tkazish va tashish uchun bagajni rasmiylashtirish **respublika ichki reyslarida** parvozlar jadvali yoki rejasি bo‘yicha HK jo‘nash vaqtiga **30 daqiqa, xalqaro reyslarda esa 60 daqiqa** qolganda yakunlanadi.

3.4.5. Aeroport tashqarisida joylashgan ro‘yxatga olish punktlarida ro‘yxatdan o‘tishning tugash vaqt, shuningdek, «FLY KHIVA GROUP» MCHJning internet-saytida ro‘yxatdan o‘tish vaqt yo‘lovchilar va bagajni HKga chiqish (ortish) uchun jo‘nash aeroportiga yetkazib berish (kelish) va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi yoki hududidan tashish amalga oshirilayotgan mamlakat qonunchiligidagi nazarda tutilgan chegara, bojxona, sanitariya-karantin, veterinariya, karantin, fitosanitariya nazorat turlari bilan bog‘liq parvoz oldi rasmiyatchiliklari va talablaridan o‘tish uchun zarur bo‘lgan vaqtini hisobga olgan holda belgilanadi.

3.4.6. Agar biror-bir yo‘lovchi ro‘yxatdan o‘tish joyiga va o‘tkazish punktiga yo‘lovchilar va bagajni rasmiylashtirish tugagandan keyin yoki tashish uchun zarur hujjatlarsiz kelgan bo‘lsa, bu holda «FLY KHIVA GROUP» MCHJ bunday yo‘lovchini tashishni rad etishga haqli.

3.4.7. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ yo‘lovchining davlat xizmatlari (bojxona, chegara, immigratsiya va boshqalar) bilan o‘zaro hamkorligi masalalarida javobgar bo‘lmaydi. Shu bilan birga, «FLY KHIVA GROUP» MCHJ yo‘lovchi va uning bagaji tashish uchun qabul qilingunga qadar chiptani ro‘yxatdan o‘tkazish va bagajni rasmiylashtirishda barcha zarur hujjatlarni tekshirish huquqiga ega.

3.4.8. Chiptani ro‘yxatdan o‘tkazish va bagajni rasmiylashtirish jarayonidan o‘tish uchun yo‘lovchi chipta rasmiylashtirilgan shaxsini tasdiqlovchi hujjatni, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi nazarda tutilgan boshqa hujjatlarni taqdim etishi kerak. Shuningdek, yo‘lovchining yonida ushbu yo‘lovchi va uning bagajini tashishning alohida shartlarini tasdiqlovchi hujjatlar (bolaga ishonchnoma, tibbiy xulosa, veterinariya sertifikati va boshqalar) bo‘lishi kerak, nogironlar va nogironligi yoki hayot faoliyati cheklanganligi sababli hayot faoliyati cheklangan boshqa shaxslar orasidan bo‘lgan yo‘lovchining sog‘lig‘i holatini tasdiqlovchi hujjatlar bundan mustasno.

3.4.9. Xalqaro tashishlarda yo‘lovchi hududiga, hududidan yoki hududi orqali tashish amalga oshiriladigan mamlakat qonunchiligiga muvofiq talab qilinadigan belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan chiqish, kirish va boshqa hujjatlarga ega bo‘lishi kerak. Vizasiz transfer doirasida xalqaro reyslar bilan parvoz qilayotgan yo‘lovchi o‘zi bilan transfer aeroportidan butun yo‘nalish bo‘yicha tasdiqlangan bron qilingan haqiqiy chipta (yo‘nalish-kvitansiya yoki qo‘nish taloni) mavjudligini tasdiqlovchi hujjatlarni olib yurishi shart.

3.4.10. Ro‘yxatdan o‘tishda yo‘lovchiga quyidagilar ko‘rsatilgan joylashish taloni beriladi:

- a) yo‘lovchining ismi va familiyasi;
- b) reys raqami;
- c) jo‘nash sanasi;
- d) reysga joylashishning tugash vaqt;
- e) joylashishga olib boradigan chiqish joyi raqami;
- f) HK bortidagi joylashish joyi raqami;
- g) zarur bo‘lganda boshqa ma’lumotlar.

3.4.11. Yo‘lovchi joylashish joyiga joylashish talonida ko‘rsatilgan reysga joylashish tugash vaqtidan kechikmay yetib kelishi kerak. Yo‘lovchini HK bortiga joylashtirish yo‘lovchi tomonidan tegishli reysga joylashish taloni taqdim etilganda amalga oshiriladi.

3.4.12. Chiptalarini ro‘yxatdan o‘tkazish va bagajni rasmiylashtirish yoki HKga joylashish vaqtiga kechikkan yo‘lovchiga ushbu reysda tashish rad etilishi mumkin.

3.4.13. HKga joylashish uchun kelmagan ro‘yxatdan o‘tgan yo‘lovchining bagaji HKdan yechib olinishi

va majburiy ko'rikdan o'tkazilishi kerak.

### **3.5. PARVOZ OLDI RASMIYATCHILIKLARI**

3.5.1. Parvoz xavfsizligini ta'minlash maqsadida yo'lovchilar, bagaj, yo'lovchining yonidagi buyumlar aviatsiya xavfsizligi nazoratidan o'tkaziladi. Yo'lovchi, bagaj, yo'lovchining yonidagi buyumlarni parvozdan oldin ko'zdan kechirish aeroportda va/yoki HKda aeroport AXXning vakolatli shaxslari tomonidan amalga oshiriladi. Parvozdan oldingi tekshiruvga transportdagi ichki ishlar organlari xodimlari jalg etiladi.

3.5.2. Diplomatik maqomga ega, diplomatik daxlsizlikka ega bo'lgan yo'lovchilar, shuningdek, xat-xabarlarni kuzatib boruvchi feldyegerlar umumiylasoslarda ko'rikdan o'tkaziladi, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

3.5.3. Nogironlar va hayot faoliyati cheklangan boshqa shaxslar (qo'litiqtayoq bilan, nogironlar aravachasida harakatlanuvchi) bo'lgan yo'lovchilar qo'lda, ularga hamrohlik qiluvchi shaxslar esa umumiylasoslarda ko'rikdan o'tkaziladi.

3.5.4. Parvozdan oldingi ko'zdan kechirishni o'tkazish O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan tartibda tezkor-qidiruv, jinoyat-protsessual va boshqa faoliyatni amalga oshirishga vakolatlari bo'lgan shaxslar tomonidan ko'zdan kechirishni o'tkazish imkoniyatini istisno qilmaydi.

3.5.5. Yo'lovchi ko'zdan kechirishdan bosh tortganda, «FLY KHIVA GROUP» MCHJ yo'lovchining tashishdan ixtiyoriy bosh tortishi shartlari asosida «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tariflarini qo'llash shartlariga muvofiq tashish haqini qoplagan holda Havo transportida tashish shartnomasini bekor qilishga haqli.

3.5.6. Xalqaro yo'naliш bo'yicha tashishda yo'lovchi, shuningdek, bojxona, chegara, zarur hollarda esa sanitariya-karantin, immigratsiya, veterinariya, fitosanitariya va boshqa nazorat turlaridan o'tishi kerak.

#### **IZOHLAR:**

1. Bojxona nazorati milliy, shu jumladan bojxona qonunchiligi va davlatning xalqaro shartnomalariga rioya etilishini ta'minlash maqsadida bojxona organlari tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmui bo'lib, ularning bajarilishini nazorat qilish bojxona organlariga yuklatilgan, xususan, HK va ularda tashiladigan yuqlarni, shuningdek ushbu HKda ketayotgan shaxslarning bagaji va qo'l yukini, valyuta va valyuta boyliklarini davlat chegarasi orqali olib o'tishni nazorat qilishni o'z ichiga oladi.

2. Pasport-viza nazorati (chevara nazorati) yo'lovchilarda haqiqiy pasportlar, kirish, chiqish, zarur hollarda esa tranzit vizalari mayjudligini tekshirishdan iborat.

### **3.6. HK BORTIDA YO'LOVCHILARGA XIZMAT KO'RSATISH**

3.6.1. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ HK bortidagi yo'lovchilarga HK turi va jihozlari, parvoz davomiyligi, parvoz amalga oshiriladigan kun vaqt, shuningdek, tashish hujjatida ko'rsatilgan xizmat ko'rsatish klassiga qarab xizmatlar majmuasini taqdim etadi. Xizmatlar hajmi va ularni ko'rsatish tartibi «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tomonidan belgilanadi.

3.6.2. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ HK bortida yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish uchun O'zbekiston Respublikasi Fuqaro aviatsiyasining amaldagi me'yorlari va qoidalariga muvofiq parvoz xavfsizligini ta'minlash, xizmat ko'rsatish, zarur hollarda tibbiyot xodimlari yetib kelgunga qadar birinchi tibbiy yordam ko'rsatish uchun yetarli miqdorda tayyorgarlikdan o'tgan xodimlarni tayinlaydi.

3.6.3. HK kabina ekipaji (bortkuzatuvchilari) ning asosiy vazifasi «FLY KHIVA GROUP» MCHJning tarmoq va ichki me'yorlari bilan belgilangan xizmat ko'rsatish standartlari bilan tartibga solingan xizmatlarni ko'rsatgan holda parvoz xavfsizligini ta'minlash va HK bortida yo'lovchilarga sifatli xizmat ko'rsatishdan iborat.

3.6.4. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ HK bortidagi yo'lovchilarni quyidagilar haqida xabardor qilishni ta'minlaydi:

- a). parvoz shartlari to'g'risida;
- b). HK bortida yo'lovchilar xulq-atvorining umumiylasoslari qoidalari to'g'risida;
- c). HK komponovkasi to'g'risida;
- d). asosiy va zaxira chiqish joylari to'g'risida;

- e). HK salonida shaxsiy himoya vositalari va shishiriladigan traplarning joylashuvi to‘g‘risida;
- f). avariya holatlarida HKni tark etish shartlari to‘g‘risida;
- g). parvoz davomida HK bortida ko‘rsatiladigan xizmatlar to‘g‘risida.

3.6.5. Bortda ovqatlanish ratsionlari, shu jumladan salqin va/yoki issiq ichimliklar yo‘lovchilarga parvoz davomida parvoz davomiyligi va kun vaqtini hisobga olgan holda xizmat ko‘rsatish klassiga muvofiq bepul taqdim etiladi. Issiq ovqat HK uchishining davomiyligi uch soatdan ortiq bo‘lganda va undan keyin har to‘rt soatda - kunduzgi vaqtda va har olti soatda - tungi vaqtda yo‘lovchilarga beriladi.

*IZOH. Havo kemasi bortida yo‘lovchilarga oziq-ovqat va issiq ichimliklar berilmasligi mumkin, bu haqda yo‘lovchilar havo transportida tashish shartnomasi tuzilgunga qadar xabardor qilinadi.*

«FLY KHIVA GROUP» MCHJ sutka vaqt va konstruksiyasi yo‘lovchilarga issiq ovqat bilan xizmat ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan maxsus jihozlardan foydalanishga imkon bermaydigan HKda parvoz davomiyligidan qat‘i nazar, yo‘lovchilarga «sovutq ovqat» ratsioni bilan xizmat ko‘rsatish huquqini o‘zida saqlab qoladi.

3.6.6. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ yo‘lovchiga parvozda yuqori qulaylik uchun qo‘sishimcha xizmatlar ko‘rsatishi mumkin. Yuqori qulaylikdagi qo‘sishimcha xizmatlar, ularni taqdim etish va to‘lash tartibi «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tomonidan belgilanadi.

### **3.7. BOLALARNI TASHISH**

Aviakompaniya tomonidan bolalarni tashish shartnomasini bajarish bilan bog‘liq xizmatlarni ko‘rsatish hududiga, hududidan yoki hududi orqali tashish amalga oshirilayotgan har qanday mamlakatning tegishli qonunlari, qoidalari va davlat organlarining ko‘rsatmalariga bo‘ysunadi.

#### **3.7.1. BOLALARNI HAMROHLIKDA TASHISH**

3.7.2.1. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ ikki yoshdan o‘n olti yoshgacha bo‘lgan bolalarni ota-onasi yoki voyaga yetgan muomalaga layoqatli yo‘lovchi hamrohligida bitta xizmat ko‘rsatish klassida tashishni amalga oshiradi.

3.7.2.2. Ikki yoshgacha bo‘lgan bir nafar bola «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tomonidan bolaga alohida joy ajratmagan holda, majburiy ravishda chipta rasmiylashtirgan holda, «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tomonidan tasdiqlangan tariflarga muvofiq voyaga yetgan yo‘lovchi hamrohligida tashiladi:

3.7.2.3. Olti yoshgacha bo‘lgan bola, shuningdek, o‘n ikki yoshgacha bo‘lgan nogiron bola faqat voyaga yetgan yo‘lovchi hamrohligida tashiladi.

3.7.2.4. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ olti yoshgacha bo‘lgan bolalarni voyaga yetgan yo‘lovchi hamrohligisiz tashishni amalga oshirmaydi.

3.7.2.5. Agar hamrohlik qiluvchi yo‘lovchining iltimosiga ko‘ra ikki yoshgacha bo‘lgan bolaga alohida joy ajratilsa, bunday bola «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tomonidan «FLY KHIVA GROUP» MCHJning tasdiqlangan tariflarida nazarda tutilgan chegirma bilan tashiladi.

3.7.2.6. Yo‘lovchi bilan birga ketayotgan ikki yoshgacha bo‘lgan boshqa bolalar, shuningdek ikki yoshdan o‘n ikki yoshgacha bo‘lgan bolalar «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tomonidan tasdiqlangan tariflarga muvofiq miqdorda chegirma bilan alohida joylar taqdim etilgan holda chiptalar bo‘yicha tashiladi.

3.7.2.7. Bolaning yoshi tashish hujjatida ko‘rsatilgan jo‘nash aeroportidan (manzilidan) tashish boshlangan sanada aniqlanadi. Bolaning tug‘ilgan sanasi yo‘lovchi chiptasida ko‘rsatilishi kerak. Chiptani rasmiylashtirishda va bolani ro‘yxatdan o‘tkazish jarayonida bolaning yoshini tasdiqlovchi hujjatni ko‘rsatish kerak.

3.7.2.8. Tashish boshlanganidan keyin bolani kuzatib borayotgan yo‘lovchi tomonidan Yo‘lovchini havo transportida tashish shartnomasi shartlari ixtiyoriy ravishda o‘zgartirilgan taqdirda, bolaning chiptasi jo‘nash aeroportidan (manzilidan) tashish boshlangan sanadagi bolaning yoshiga mos keladigan tarif bo‘yicha qayta rasmiylashtiriladi (almashtiriladi).

#### **3.7.2. BOLALARNI HAMROHLIK SIZ TASHISH**

3.7.3.1. Ota-onalar, farzandlikka oluvchilar, vasiylar yoki homiylar hamrohligisiz ketayotgan va hech qanday voyaga yetgan yo‘lovchiga ishonib topshirilmagan olti yoshdan o‘n olti yoshgacha bo‘lgan

bolalar hamrohiksiz tashilishi mumkin. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ olti yoshgacha bo‘lgan bolalarni voyaga yetgan yo‘lovchi hamrohligisiz tashishni amalga oshirmaydi.

3.7.3.2. Olti yoshdan o‘n olti yoshgacha bo‘lgan kuzatib borilmaydigan bolalar «FLY KHIVA GROUP» MCHJ kuzatuvi ostida faqat to‘g‘ridan to‘g‘ri muntazam reyslarda ota-onalar, farzandlikka oluvchilar, vasiylar yoki homiylar tomonidan kuzatib borilmaydigan bolani tashish uchun yozma ariza va javobgarlik to‘g‘risidagi deklaratsiya jo‘nash aeroportida rasmiylashtirilgandan so‘ng, chiptada (bronda) chiptani sotib olayotgan shaxs imzosi bilan ishonchnoma (rozilik) mavjudligi to‘g‘risida belgi qo‘yilgan holda tashiladi.

3.7.3.3. Kuzatib borilmaydigan bola «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tomonidan tashishga quyidagi shartlarda qabul qilinadi:

a). kuzatib borilmaydigan bolani tashish uchun «FLY KHIVA GROUP» MCHJning oldindan roziligi olingan bo‘lsa;

b). kuzatib borilmaydigan bolalar faqat ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar tomonidan Ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarning javobgarligi to‘g‘risidagi deklaratsiya imzolangandan keyingina tashishga qabul qilinadi.

c). bolaga hamrohlik qiluvchi shaxslar HK jo‘nashidan oldin aeroportda bo‘lsa;

d). kuzatib borilmaydigan bola belgilangan aeroportda albatta kutib olinsa;

e). kuzatib borilmaydigan bola to‘g‘ridan to‘g‘ri muntazam reysda harakatlansa;

f). kuzatib borilmaydigan bolani tashish to‘liq normal tarif bo‘yicha to‘langan bo‘lsa;

g). tashilayotgan kuzatib borilmaydigan bolalar soni bitta HKda ikkitadan oshmasa.

3.7.3.4. O‘n olti yoshdan oshgan bolalar «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tomonidan voyaga yetgan yo‘lovchining hamrohligisiz tashilishi mumkin.

3.7.3.5. Kuzatib borilmaydigan bolani tashish to‘g‘risidagi ariza va javobgarlik to‘g‘risidagi deklaratsiya 4 nusxada to‘ldiriladi: Birinchi nusxa kuzatuvchi shaxslarda qoladi. Ro‘yxatdan o‘tishda ikkinchi nusxasi jo‘nash aeroportida «FLY KHIVA GROUP» MCHJ vakiliga (Xizmat ko‘rsatuvchi tashkilot agentiga) beriladi. Uchinchi nusxa HK bortida kuzatib kuzatib borilmaydigan bolaga xizmat ko‘rsatish uchun mas‘ul bo‘lgan bortkuzatuvchiga beriladi. To‘rtinchi nusxa bortkuzatuvchi tomonidan belgilangan manzildagi «FLY KHIVA GROUP» MCHJ vakiliga (Xizmat ko‘rsatuvchi tashkilot agentiga) beriladi.

3.7.3.6. Kuzatib borilmaydigan bolani tashish uchun normal tarifning 100% miqdorida tashish haqi undiriladi, bunday chiptalar uchun chegirmalar qo‘llanilmaydi.

### **3.7.3. DASTLABKI UCHISH MANZILIDA KUZATIB BORILMAYDIGAN BOLALARGA XIZMAT KO‘RSATISH**

3.7.4.1. Kuzatib borilmayotgan bolani tashish uchun qabul qilishdan oldin dastlabki uchish manzilida ota-onalar yoki vasiylarning deklaratsiyasi va kuzatib borilmayotgan bolaning hujjatlari uchun identifikasiya konvertini o‘z ichiga olgan «Kuzatib borilmayotgan bolani tashish uchun so‘rovnama» standart shakli rasmiylashtirilishi kerak. Ushbu shakl to‘g‘ri yo‘nalishda tashish uchun rasmiylashtiriladi. Kuzatib borilmayotgan bolani qaytish yo‘nalishida tashishda hujjatni rasmiylashtirish qaytish uchish manzilida «FLY KHIVA GROUP» MCHJ vakili/agenti tomonidan qayta amalga oshiriladi.

3.7.4.2. Bolani tashish uchun ota-onasi yoki hamrohlik qiluvchi shaxslardan qabul qilishda yer usti xizmati agenti yoki «FLY KHIVA GROUP» MCHJ vakili kuzatib borilmayotgan bolaning quyidagi hujjatlarining mavjudligi va amal qilish muddatlarini tekshirishi shart:

- Bolaning shaxsini tasdiqlovchi va chegarani kesib o‘tish uchun haqiqiy bo‘lgan hujjat;
- Tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnoma (O‘zbekiston hududi bo‘ylab tashish uchun);
- Aviachipta yoki yo‘nalish kvitansiyasi;
- «Kuzatib borilmayotgan voyaga yetmagan bolani tashish uchun so‘rovnama» / «Ota-onalar yoki vasiylarning javobgarligi to‘g‘risida deklaratsiya» standart blankasi;
- Tibbiy ma’lumotnoma (faqat nogiron bolalar uchun).

3.7.4.3. Tashish so‘rovi va identifikasiya konvertining standart shakli ota-onalar yoki bolani kuzatib

borayotgan boshqa shaxslar bolani reysga ro'yxatdan o'tkazishdan oldin murojaat qilganda, yer usti xizmati agentining vakolatli xodimi yoki «FLY KHIVA GROUP» MCHJ vakili tomonidan rasmiylashtiriladi.

3.7.4.4. «Kuzatib borilmayotgan bolani tashish uchun so'rovnoma» standart blankasida barcha zarur tashish tafsilotlari to'ldirilgandan va ko'rsatilgandan so'ng, shuningdek, Ota-onalar yoki vasiylarning javobgarligi to'g'risidagi deklaratsiya imzolanganidan so'ng, bola yerdagi agentning bolaga hamrohlik qilish vakolatiga ega xodimiga yoki «FLY KHIVA GROUP» MCHJ vakiliga topshiriladi.

3.7.4.5. Kuzatib borilmayotgan bolaning hujjatlari maxsus identifikatsion konvertga solinadi, konvertning old tomoni ham belgilangan tartibda to'ldirilishi kerak. Identifikatsiyalovchi xatjild barcha ilova qilingan hujjatlar bilan birga bolaning yelkasi va boshi yoki bo'yniga shunday kiydiriladiki, uchib ketish aeroporti xodimlari va havo kemasi ekipajiga bolani kuzatuvchisiz shaxs sifatida identifikatsiya qilish imkonini beradigan ma'lumotlar ko'rinish turishi lozim.

3.7.4.6. Bolaning ota-onasi yoki vasiylariga havo kemasi bortigacha kuzatib borish uchun bolani qabul qilib olgan shaxsning imzosi bilan rasmiylashtirilgan «Kuzatib borilmayotgan bolani tashish uchun so'rovnoma» shaklining birinchi nusxasi beriladi.

3.7.4.7. Shundan so'ng, yerda xizmat ko'rsatish bo'yicha agentning vakolatli vakili yoki «FLY KHIVA GROUP» MCHJ vakili kuzatib borilmayotgan bolaning reysga ro'yxatdan o'tishini ta'minlaydi, bolani havo kemasi bortigacha kuzatib boradi va bolani bortkuzatuvchilar brigadiriga imzo qo'ydirib topshiradi. Bunda, bola topshirilgan bortkuzatuvchining belgisi qo'yilgan «Kuzatib borilmayotgan bolani tashish uchun so'rovnoma» standart blankasining ikkinchi nusxasi yerdagi xizmat ko'rsatish bo'yicha vakolatli agentda yoki «FLY KHIVA GROUP» MCHJ vakilida qoladi va kuzatib borilmayotgan bolaning havo kemasi ekipaji javobgarligiga topshirilganligi faktini tasdiqlash uchun xizmat qiladi.

### **3.7.4. KUZATIB BORILMAYDIGAN BOLALARGA BELGILANGAN MANZILDA XIZMAT KO'RSATISH**

3.7.5.1. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ vakili va yerda xizmat ko'rsatish bo'yicha agentning vakolatli xodimi bortida kuzatib borilmayotgan bola bo'lgan havo kemasi belgilangan aeroportga qo'ngandan so'ng, kuzatib borilmayotgan bolani bort kuzatuvchisining imzosi bilan kutib olishlari va qabul qilishlari shart.

3.7.5.2. Uchrashuvdan so'ng «FLY KHIVA GROUP» MCHJ yoki yer usti xizmati bo'yicha agentning vakolatli xodimi kuzatib borilmayotgan bolaga davlat rasmiyatçiliklaridan o'tishda, bagajni olishda va bolani kutib oluvchi shaxsga kuzatib qo'yishda yordam berishi shart.

3.7.5.3 Kuzatib borilmayotgan bolani kutib oluvchiga topshirish Kutib oluvchining shaxsini tasdiqlovchi hujjatni tekshirish va «Kuzatib borilmayotgan bolani tashish uchun so'rovnoma»da ko'rsatilgan kutib oluvchi shaxs to'g'risidagi ma'lumotlarni taqqoslash amalga oshiriladi.

3.7.5.4. Bolani kutib oluvchiga topshirish «FLY KHIVA GROUP» MCHJ vakolatxonasida yoki O'zbekiston Respublikasi hududidagi belgilangan aeroportda qoladigan tashish uchun so'rovnomaning qolgan nusxalarida imzo qo'ydirib amalga oshiriladi.

### **3.8. NOGIRONLAR, KEKSALAR VA BEMOR YO'LOVCHILARNI TASHISH**

3.8.1. Yo'lovchi o'z sog'lig'ining holatidan kelib chiqqan holda havo transportidan foydalanish imkoniyatini aniqlashi shart. Nogiron, keksa yoki bemor yo'lovchini tashish yo'lovchi sog'lig'ining yomonlashishi yoki yo'lovchining yoshi, ruhiy yoki jismoniy holati tufayli yuzaga keladigan boshqa oqibatlar uchun «FLY KHIVA GROUP» MCHJ javobgar bo'lmagan taqdirda amalga oshiriladi, bu «FLY KHIVA GROUP» MCHJ vakili yoki Xizmat ko'rsatuvchi tashkilotni ro'yxatdan o'tkazish agenti asoslar mavjud bo'lganda so'rashga haqli bo'lgan yo'lovchining majburiyati (tilxat, 2-ilova) bilan tasdiqlanadi.

3.8.1.1. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ zambilda bemorlarni tashishni amalga oshirmaydi.

3.8.2. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ xodimlarida yo'lovchining sog'lig'i haqida xavotir uyg'otadigan jismoniy yoki ruhiy holati bo'lgan yo'lovchi, davolash muassasasining ushbu yo'lovchiga havo transportida tashish taqilganmaganligi to'g'risidagi, tashish shartlariga maxsus talablar ko'rsatilgan ma'lumtonmasi taqdim etilgandan so'ng havo transportida tashishga qo'yiladi.

3.8.3. Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan yo'lovchini tashish ota-onalar, farzandlikka oluvchilar yoki vasiylarning iltimosnomasiga ko'ra va muomalaga layoqatsiz yo'lovchining xavfsizligini va atrofdagi odamlarning xavfsizligini ta'minlashga qodir bo'lган voyaga yetgan yo'lovchi hamrohligida «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tomonidan amalga oshiriladi.

3.8.4. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ reyslarida muomala layoqati cheklangan yo'lovchilarga oldindan belgilangan joylar taqdim etiladi. Tibbiy ko'rsatmalarga ko'ra tashish vaqtida qo'shimcha kislorodga muhtoj bo'lган muomala layoqati cheklangan yo'lovchilar tashishga qabul qilinmaydi.

3.8.5. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ mustaqil harakatlana olmaydigan yo'lovchini kreslo-aravachada, elektr aravachada, yig'ma kresloda, og'ir bemor yo'lovchini faqat HK bortida ushbu yo'lovchiga qarashni ta'minlovchi shaxslar kuzatuvida tashiydi.

3.8.6/ (4.18.1). Nogironlar va hayot faoliyati cheklangan boshqa shaxslar bo'lган yo'lovchilar foydalanadigan kreslo-aravachalar va boshqa yordamchi qurilmalar HK BYBda ro'yxatdan o'tgan bagaj sifatida bepul tashiladi va ushbu individual harakatlanish vositalarining og'irligi bagajni bepul tashish me'yoriga kiritilmaydi.

3.8.7/ (4.18.3). HK yo'lovchi salonida yig'ma kreslo-aravachalar va yo'lovchilar foydalanadigan, og'irligi va o'lchamlari HK salonida yo'lovchi o'rindig'i ustidagi tokchaga yoki oldinda turgan yo'lovchi o'rindig'i tagiga xavfsiz joylashtirish imkonini beradigan boshqa yordamchi qurilmalarni tashishga ruxsat etiladi.

3.8.8. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ yoki Xizmat ko'rsatuvchi tashkilot nogironlar va hayot faoliyati cheklangan boshqa shaxslar bo'lган yo'lovchilarni, og'ir bemor yo'lovchilarni yakka tartibdagi harakatlanish vositalarida tashishda ularni HK bortidan va bortiga yetkazish bo'yicha zarur choralarini ko'rish uchun bunday yo'lovchilarni tashish to'g'risida belgilangan va oraliq qo'nish manzillarini oldindan xabardor qiladi.

3.8.9/ (4.18.4). Yo'lovchi foydalanadigan elektr yuritmali kreslo-aravacha reysga ro'yxatdan o'tishda ro'yxatdan o'tgan bagajga topshiriladi. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ yoki Xizmat ko'rsatuvchi tashkilot belgilangan va oraliq qo'nish manzillariga HK bortida elektr aravachasi bo'lган nogiron yo'lovchi borligi to'g'risida ma'lumot beradi, shunda u yetib kelganida birinchi navbatda elektr aravacha bilan ta'minlanadi. Ushbu ma'lumotda yo'lovchining ismi, elektr aravachasi va alohida joylashtirilgan elektr batareyalarining joylashgan joyi ko'rsatiladi.

3.8.10/ (4.18.5). Elektr yuritmali kreslo-aravachadan foydalanadigan yo'lovchilar ICAO texnik shartlariga muvofiq kreslo-aravacha akkumulyator klemmalarini ajratish uchun kalitlar to'plami / moslamalar, shuningdek, akkumulyator o'ramiga ega bo'lishlari shart. Elektr yuritmali kreslo-aravacha akkumulyatorining klemmalarini ajratish va ulash yo'lovchilar tomonidan mustaqil ravishda yoki xizmatlarga bo'lган ehtiyoj to'g'risidagi so'rov bo'yicha – Xizmat ko'rsatuvchi tashkilot tomonidan amalga oshiriladi.

3.8.11. Parvoz xavfsizligini ta'minlash, texnik yoki ekspluatatsion talablarni bajarish maqsadida «FLY KHIVA GROUP» MCHJ o'zining istalgan reyslarida, hatto bunday yo'lovchilarga malakali hamrohlik mavjud bo'lган taqdirda ham, tashiladigan bemor yo'lovchilar va nogiron yo'lovchilar sonini cheklashga haqli. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ reyslarida muomala layoqati cheklangan yo'lovchilar soni avariya holatida ularga yordam ko'rsatishga qodir bo'lган xodimlar sonidan ko'p bo'lishi mumkin emas va bitta HKda bunday yo'lovchilar soni uchtadan oshmasligi kerak. Nogironlar va hayot faoliyati cheklangan boshqa shaxslardan iborat yo'lovchilar guruqlarini tashish «FLY KHIVA GROUP» MCHJ bilan oldindan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

## **3.9. KO'RISH, ESHITISH QOBILIYATI BO'L MAGAN YO'LOVCHILARNI TASHISH**

3.9.1. Bir vaqtning o'zida eshitish va ko'rish bo'yicha nogiron bo'lган yo'lovchi unga parvozda yordam ko'rsatayotgan yo'lovchi hamrohligida tashiladi.

3.9.2. Eshitish yoki ko'rish qobiliyatidan mahrum bo'lган nogiron yo'lovchi kuzatuvchi yo'lovchisiz tashilishi mumkin.

3.9.3. Ko'rish qobiliyatidan mahrum bo'lган yo'lovchi kuzatuvchi it hamrohligida tashilishi mumkin.

3.9.4. Ko'zi ojiz yo'lovchini kuzatuvchi it hamrohligida tashish «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tomonidan ushbu yo'lovchining nogironligini tasdiqlovchi hujat va kuzatuvchi itning maxsus

o'rgatilganligini tasdiqllovchi hujjat taqdim etilgandan so'ng amalga oshiriladi.

3.9.5. Ko'rish qobiliyatidan mahrum bo'lgan yo'lovchini kuzatuvchi it hamrohligida tashishda, Vakolatl agent ushbu yo'lovchiga HK bortida joy band qilishda va unga yo'lovchi chiptasini rasmiylashtirishda, jo'nash aeroportida ro'yxatdan o'tishda va belgilangan aeroportda HKga va undan havo kemasiga yetkazib berish jarayonida yo'lovchiga yordam berish maqsadida «FLY KHIVA GROUP» MCHJni bunday yo'lovchining bo'lajak tashilishi haqida xabardor qilishi kerak.

3.9.6. Ko'rish qobiliyatidan mahrum bo'lgan yo'lovchiga hamrohlik qiluvchi kuzatuvchi it «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tomonidan belgilangan bagajni bepul tashish me'yordan tashqari bepul tashiladi. Kuzatuvchi it bo'yinbog' va tumshuqbog'ga ega bo'lishi va o'zi kuzatib borayotgan yo'lovchining oyoqlari yonidagi kresloga bog'langan bo'lishi kerak.

3.9.7. HKda tashiladigan kuzatuvchi itlar soni HK bortidagi nogironlar va hayot faoliyati cheklangan boshqa shaxslar soniga qarab belgilanadi, lekin bitta HKda kuzatuvchi itlar soni ikkitadan oshmasligi kerak.

## **3.10. HOMILADOR AYOLLAR VA YANGI TUG'ILGAN CHAQALOQLARNI TASHISH**

3.10.1. Homilador ayollarni tashish faqat yo'lovchi ro'yxatdan o'tish paytida tegishli majburiyatni imzolagan holda amalga oshiriladi (1-ilova). Bunda "FLY KHIVA GROUP" MChJ tashish paytida va tashish natijasida yo'lovchi hamda homila uchun yuzaga kelishi mumkin bo'lgan noxush oqibatlar uchun javobgar bo'lmaydi. Homilador ayolning sog'lig'i yaxshi bo'lsa ham, **u shifokor tomonidan imzolangan tibbiy ma'lumotnomasi taqdim etishi shart**. Ushbu hujjatda homiladorlik muddati, homiladorlikning asoratsiz kechayotganligi va parvozga qarshi ko'rsatmalar yo'qligi haqidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

3.10.2. Homilador ayollarni tashish quyidagi shartlar bajarilganda amalga oshiriladi.

Homiladorlik muddati:

- 28 haftagacha bo'lgan ayollar, shifokor tomonidan berilgan va tibbiyot muassasasining muhri bilan tasdiqlangan homiladorlik muddati to'g'risidagi ma'lumotnomasi mavjud bo'lganda va parvoz uchun qarshi ko'rsatmalar bo'limganda tashiladi;

- ko'p homilali homiladorlikda 28 haftadan 30 haftagacha bo'lgan ayollar, shifokor tomonidan berilgan va tibbiyot muassasasining muhri bilan tasdiqlangan homiladorlik muddati to'g'risidagi ma'lumotnomasi mavjud bo'lganda va parvoz uchun qarshi ko'rsatmalar bo'limganda tashiladi;

- bir homilali homiladorlikdagi homilador ayollar shifokor tomonidan berilgan va tibbiyot muassasasining muhri bilan tasdiqlangan homiladorlik muddati to'g'risidagi ma'lumotnomasi va parvoz uchun qarshi ko'rsatmalar mavjud bo'limganda 32 haftagacha, shu jumladan 32 haftagacha bo'lgan muddatda tashiladi.

3.10.3. Agar homiladorlik muddati 32 haftadan oshsa, parvozga ruxsat berilmaydi.

Homilador ayolni tashish aviatashuvchi yuzaga kelgan oqibatlar uchun yo'lovchi oldida hech qanday javobgar bo'limgan taqdirda amalga oshiriladi. Agar aviakompaniya vakilida homilador ayolning homiladorlikning har qanday davrida xavfsiz parvoz qilish imkoniyatiga shubha tug'ilsa, aviakompaniya yo'lovchini tashishni rad etish huquqiga ega.

3.10.4. Yetti kundan kam bo'lgan yangi tug'ilgan chaqaloqlarni tashish «FLY KHIVA GROUP» MCHJ bolasining sog'lig'i uchun tashish oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan oqibatlar uchun ota-onalar oldida javobgar bo'lmasisligi sharti bilan amalga oshiriladi, bu yo'lovchi tomonidan imzolangan, ro'yxatdan o'tkazish paytida to'ldiriladigan tegishli majburiyat bilan tasdiqlanadi (3-ilova).

## **3.11. DEPORTATSIYA QILINAYOTGAN YO'LOVCHILARNI VA XORIJIY DAVLAT HUDUDIGA YOKI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIGA KIRISHI RAD ETILGAN YO'LOVCHILARNI TASHISH**

3.11.1. Ushbu toifadagi yo'lovchilarni tashish O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Fuqaro aviatsiyasi sohasidagi xalqaro qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

3.11.2. Yo'lovchini deportatsiya qilish to'g'risidagi qaror tegishli organlar tomonidan qabul qilinadi. Deportatsiya qilinayotgan yo'lovchini jo'natishda «Deportatsiya dalolatnomasi»ning 1 nusxasi ilova

qilinishi kerak.

3.11.3. Deportatsiya qilinayotgan yo'lovchi va kirishi rad etilgan yo'lovchi ushbu tashish munosabati bilan «FLY KHIVA GROUP» MCHJda yuzaga kelgan barcha xarajatlarni qoplash, shuningdek, «FLY KHIVA GROUP» MCHJ va boshqa olib chiquvchi Tashuvchilarining, agar ular mavjud bo'lsa, qaytish yo'nalishida tashish, kirish rad etilgan manzilda va qaytish yo'nalishidagi transfer manzillarida joylashish va ovqatlanish bilan bog'liq barcha xarajatlarini qoplash uchun javobgardir.

3.11.4. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ yo'lovchi yoki yo'lovchini tashishni rasmiylashtirgan Tashkilot tomonidan foydalanilmagan parvoz uchun to'langan har qanday summani yoki yo'lovchi yoki chipta haqini to'langan Tashkilot tomonidan to'langan «FLY KHIVA GROUP» MCHJdagi boshqa har qanday summani amalga oshirilgan xarajatlarini qoplash uchun qaytarish huquqiga ega.

### **3.12. RASMIY SHAXSLARNI TASHISH**

3.12.1. Jo'nash, kelish, tranzit yoki transfer aeroportlarida rasmiy shaxslarga xizmat ko'rsatish rasmiy shaxslar va delegatsiyalar zallarida (agar ular mavjud bo'lsa) amalga oshiriladi. Rasmiy shaxslarni ro'yxatga olishda belgilangan rasmiyatchiliklarni o'tkazishga qo'yiladigan talablar umumiyl qabul qilingan talablardan farq qilmaydi.

3.12.2. Rasmiy shaxslar va delegatsiyalar zallarida rasmiy shaxslarga xizmat ko'rsatish buyurtmalar asosida amalga oshiriladi. Arizalar davlat, jamoat, siyosiy, diniy va tijorat tashkilotlarining vakillari tomonidan beriladi. Rasmiy shaxslar va delegatsiyalar zalida xizmat ko'rsatish uchun yo'lovchi to'lovni amalga oshirishi shart.

3.12.3. Rasmiy shaxslar jo'nash aeroportiga yo'lovchilarni reysga ro'yxatdan o'tkazish tugaydigan vaqtdan kechikmay yetib kelishlari kerak.

### **3.13. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUKUMATI HUZURIDAGI DAVLAT FELDYEGERLIK XIZMATI XODIMLARINI XIZMAT VAZIFALARINI BAJARISH CHOG'IDA TASHISH**

3.13.1. O'zR Hukumati huzuridagi DFX xodimlariga yo'lovchi chiptalarini rasmiylashtirish va berish navbatdan tashqari amalga oshiriladi.

3.13.2. Ko'rsatib o'tilgan idora xodimlariga chiptalarini ro'yxatdan o'tkazish, ular tashiydigan xat-xabarlarini rasmiylashtirish yo'lovchilarni ro'yxatdan o'tkazish boshlangunga qadar, ro'yxatdan o'tkazish vaqtida esa - navbatdan tashqari amalga oshiriladi.

3.13.3. DFX xodimlarini, ularning qo'l yuki va bagajini (xat-xabarlar ilova qilingan joylardan tashqari) parvozdan oldin ko'rildan o'tkazish umumiyl asoslarda, navbatdan tashqari amalga oshiriladi.

3.13.4. DFX xodimlariga xizmat vazifalarini bajarishda HK bortida o'zi bilan qurol olib yurishga ruxsat etiladi.

3.13.5. O'zR Hukumati huzuridagi DFX xat-xabarlarini tashish xat-xabarlarini og'irligi 75 kg dan ortiq bo'lmagan yo'lovchi o'rindiqlarida, har bir o'rindiqda, uni kuzatib borayotgan xodim yonida yoki uni kuzatish uchun qulay joyda belgilangan tartibda joylashtirgan holda amalga oshiriladi.

3.13.6. HK salonida xat-xabarlarini tashish yo'lovchi chiptasi bilan rasmiylashtiriladi, uning narxi tegishli xizmat ko'rsatish klassining normal tarifining 100% ni tashkil qiladi. Bunday chiptaga bagajni bepul tashish me'yori tatbiq etilmaydi.

3.13.7. O'zR Hukumati huzuridagi DFX ning xat-xabarlarini tashuvchi xodimlarini HK bortiga chiqarish yo'lovchilarni umumiyl chiqarish boshlanishidan oldin amalga oshiriladi.

### **3.14. TRANZIT VA TRANSFER YO'LOVCHILARNI TASHISH**

3.14.1. Tranzit yo'lovchini havo transportida tashish «FLY KHIVA GROUP» MCHJning bitta reysi bilan amalga oshiriladi, agar parvoz davomida HKning oraliq qo'nishi ko'zda tutilgan yoki amalga oshirilgan bo'lsa.

3.14.2. Yo'lovchilarni HK tranzit manziliga uchib kelishi bilan HKdan aeroport binosiga yetkazish va ushbu yo'lovchilarni belgilangan manzilgacha parvozni davom ettirish uchun HK bortiga chiqarish birinchi navbatda amalga oshiriladi.

3.14.3. Yo'lovchi va bagajni havo transportida tashish shartnomasiga muvofiq transfer aeroportiga «FLY KHIVA GROUP» MCHJning bitta reysi bilan kelgan, keyinchalik esa «FLY KHIVA GROUP» MCHJning yoki boshqa Tashuvchining tashish yo'nalishi bo'yicha boshqa reysi bilan tashiladigan yo'lovchini (keyingi o'rnlarda – transfer yo'lovchi) tashish Tashuvchilar o'rtasidagi shartnomalarga yoki «M2-Closed Fare» bitimlariga muvofiq amalga oshiriladi.

3.14.4. Bojxona nazoratidan o'tkazilishi kerak bo'lgan transfer yo'lovchining bagaji O'zbekiston Respublikasi bojxona qonunchiligiga va/yoki hududiga, hududidan yoki hududi orqali tashish amalga oshirilayotgan mamlakatning bojxona qonunchiligiga muvofiq tashish uchun qabul qilinadi.

3.14.5. «FLY KHIVA GROUP» yoki uning Vakolatli agenti yo'lovchiga tranzit yoki transfer tashish yo'nalishi bo'yicha chipta rasmiylashtirishda:

1. Yo'lovchiga belgilangan vaqtida ro'yxatdan o'tish uchun transfer aeroportiga yetib kelish imkonini beruvchi transfer aeroportidan belgilangan manzilgacha oraliq aeroportda yo'lovchini o'tkazish bilan tashishni bronlashtirishni va bronlashtirishni tasdiqlashni ta'minlaydi.

2. Oraliq aeroportda o'tish yoki HK ning qo'nishi bilan ketayotgan yo'lovchini yo'lovchi uni belgilangan manzilga keyingi tashish uchun bajarishi kerak bo'lgan protseduralar to'g'risida xabardor qiladi.

3. Yo'lovchini xalqaro tashishda transfer aeroportidagi davlat organlarining talablari to'g'risida xabardor qiladi, shu jumladan:

a). O'zbekiston Respublikasi hududidagi jo'nash aeroportidan O'zbekiston Respublikasi hududidan jo'nab ketish joyida oraliq qo'nish bilan belgilangan aeroportga tashish yo'nalishi bo'yicha ketayotganda bagajni belgilangan aeroportgacha transfer sifatida rasmiylashtirish imkoniyati to'g'risida, faqat unda yozma shaklda bojxona deklaratsiyasi topshirilishi kerak bo'lgan tovarlar mavjud bo'lмаган taqdirda;

b) transfer yuki oxirgi manzilgacha rasmiylashtirilishi mumkin bo'lgan soddalashtirilgan tartibning qo'llanilishi transfer yo'lovchini O'zbekiston Respublikasining bojxona ishi to'g'risidagi bojxona qonunchiligining boshqa talablariga rioxal qilishdan ozod qilmasligi to'g'risida.

3.14.6. Bitta chipta, bagaj kvitansiyasi yoki u bilan birga rasmiylashtirilgan qo'shimcha chipta(lar), unga(larga) rasmiylashtirilgan chipta(lar) raqami ko'rsatilgan bagaj kvitansiyasi(lari) bo'yicha tashishni amalga oshirishda «FLY KHIVA GROUP» MCHJ yo'lovchida joy bron qilingan reys bilan minimal ulanish vaqtini ta'minlash bo'yicha barcha mumkin bo'lgan choralarini ko'radi, bu yo'lovchiga transfer aeroportida nazarda tutilgan barcha parvozoldi rasmiyatshiliklaridan o'tish va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi va/yoki hududiga, hududidan yoki hududi orqali tashish amalga oshirilayotgan mamlakat qonunchiligidagi nazarda tutilgan chegara, bojxona, sanitariya-karantin, veterinariya, karantin fitosanitariya nazorat turlari bilan bog'liq talablarni bajarish imkonini beradi.

3.14.7. Jo'nash manzilida transfer yo'lovchilarining bagajini rasmiylashtirishda har bir bagaj joyi maxsus transfer yorliqlari bilan belgilanadi, bagaj belgilangan manzilgacha rasmiylashtiriladi.

### **3.15. BIZNES-KLASS YO'LOVCHILARINI TASHISH.**

3.15.1. Aeroportda biznes-klass yo'lovchilariga maxsus xizmat ko'rsatiladi, shu jumladan alohida peshtaxtada ro'yxatdan o'tish, biznes-zalda xizmat ko'rsatish va ekonom-klass yo'lovchilaridan alohida HK bortiga yetkazib borish, shuningdek, bagajni bepul tashishning oshirilgan me'yorlari taqdim etiladi.

3.15.2. HK bortida biznes-klass yo'lovchilariga biznes-klass salonida joy beriladi va maxsus xizmat tashkil etiladi.

3.15.3. Uchib kelishi bilan biznes-klass yo'lovchilarini HKni birinchi navbatda, ekonom-klass yo'lovchilaridan alohida tark etadilar, lekin rasmiy shaxslardan oldin emas.

### **3.16. XIZMAT CHIPTALARI BO'YICHA KETAYOTGAN YO'LOVCHILARNI TASHISH**

3.16.1. Xizmat yo'lovchilarini «FLY KHIVA GROUP» qatnovlarida uning roziligi bilan xizmat chiptalari bo'yicha tashilishi mumkin. Xizmat yo'lovchisiga tasdiqlangan yoki tasdiqlanmagan bron bilan xizmat chiptasi berilishi mumkin.

3.16.2. Band qilinganligi tasdiqlangan xizmat chiptalari bo'yicha ketayotgan yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish chipta qiymatini to'lagan yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish kabi ro'yxatdan o'tkazishning

amaldagi standart tartibiga muvofiq amalga oshiriladi. Tasdiqlangan bronlashtirishga ega bo'limgan yo'lovchilarga xizmat ko'rsatishda quyidagi shartlarga rioya qilinishi kerak:

a) yo'lovchi ro'yxatdan o'tgandan keyin bo'sh joy mavjud bo'lganda tashishga qabul qilinishi mumkin;

b) yo'lovchi tranzit tashilgan taqdirda, har qanday tranzit aeroportlardan birida keyingi tashish uchastkalarida bo'sh joylar yo'qligi sababli tashish to'xtatilishi mumkinligi va «FLY KHIVA GROUP» MCHJ buning uchun hech qanday javobgarlikka tortilmasligi to'g'risida yo'lovchiga ma'lum qilinishi kerak;

c). transfer tashish holatida yo'lovchi va uning bagaji faqat birinchi oraliq qo'nish aeroportigacha rasmiylashtirilishi mumkin.

3.16.3. Parvozlar muntazamligi buzilgan taqdirda, bron qilinganligi tasdiqlangan xizmat chiptalariga ega bo'lgan yo'lovchilarga chipta uchun to'lovnini amalga oshirgan yo'lovchilar kabi xizmat ko'rsatiladi. Tasdiqlangan bronlashtirishga ega bo'limgan va tashishga qabul qilingan xizmat chiptalariga ega bo'lgan yo'lovchilarga parvozlar muntazamligi buzilgan taqdirda boshqa barcha yo'lovchilar kabi xizmat ko'rsatiladi.

3.16.4. Transfer aeroportida tasdiqlangan bronlashtirishga ega bo'limgan xizmat chiptalariga ega bo'lgan yo'lovchilarga jo'nash aeroportidagi kabi xizmat ko'rsatiladi.

### **3.17. YO'LOVCHILARGA QO'SHIMCHA O'RINLAR BERISH**

Yuqori qulaylik bilan tashish uchun yo'lovchi kerakli miqdordagi joylarni band qilishi mumkin. Qo'shimcha o'rindiqlar uchun to'lov amaldagi tarifning 100% miqdorida amalga oshiriladi.

### **3.18. DIPLOMATIK KURYERLARNI TASHISH**

3.18.1. Diplomatik kuryer maxsus bagaj yoki pochtani kuzatuvchi shaxs sifatidagi maxsus vakolatlarini tasdiqlovchi hujjatlarga ega bo'lishi va «FLY KHIVA GROUP» MCHJ talabiga binoan taqdim etishi kerak.

3.18.2. Diplomatik kuryerlarni tashish davlat organlari talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

3.18.3. Dipkuryer kuzatib borayotgan diplomatik bagajni (pochtani) HK salonida tashishga ruksat etiladi. Bunday bagaj dipkuryerning shaxsiy bagajidan alohida ro'yxatdan o'tmagan bagaj (qo'l yuki) sifatida rasmiylashtiriladi va alohida yo'lovchi o'rindig'ida (o'rindiqlarida) joylashtirilishi mumkin.

3.18.4. HK salonida tashilayotgan diplomatik bagajning (pochtaning) og'irligi yo'lovchi og'irligining o'rtacha qiymatidan oshmasligi kerak (80 kg dan ko'p emas), bagajning gabarit o'lchamlari esa uni alohida yo'lovchi o'rindig'iga (o'rindiqlariga) joylashtirish imkonini berishi kerak.

3.18.5. Diplomatik bagajni (pochtani) tashish «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tomonidan bronlash tizimlarida e'lon qilingan belgilangan tariflar bo'yicha to'lanadi.

### **3.19. MAXSUS TOIFADAGI YO'LOVCHILARNI JOYLASHTIRISH UCHUN HK SALONIDAGI TAVSIYA ETILGAN JOYLAR**

3.19.1. Aloida toifaga quyidagi yo'lovchilar kiradi:

a) kuzatib borilmaydigan bolalar;

b) jismoniy imkoniyati cheklangan yo'lovchilar;

s) topshiriqni bajarish joyiga uchishni amalga oshirayotgan ekipaj a'zolari.

3.19.2. HK turiga qarab ushbu toifadagi yo'lovchilarni tavsiya etilgan joylashtirish 5-ilovada keltirilgan.  
*Izoh:*

*Kichik bolali yo'lovchilar uchun mo'ljallangan bitta o'rindiq blokiga 2 yoshgacha bo'lgan bir nafardan ortiq (joysiz) bolani joylashtirish taqiqlanadi.*

### **3.20. KONVOY OSTIDA TASHISH**

«FLY KHIVA GROUP» MCHJ tomonidan konvoy ostidagi mahkumlar va qamoqqa olingan shaxslarni tashish amalga oshirilmaydi.

## **4-BOB. BAGAJNI TASHISH**

### **4.1. UMUMIY TALABLAR**

4.1.1. Yo'lovchining bagaji jo'nash aeroporti, transfer aeroporti, to'xtash aeroporti yoki boshqa ro'yxatga olish punktida tashish uchun rasmiylashtirilganda «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tomonidan tashish uchun qabul qilinadi.

4.1.2. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tomonidan tashish uchun ro'yxatdan o'tgan bagaj sifatida qabul qilingan yo'lovchining bagaji HK BYB ga tashiladi. Yo'lovchining yonidagi buyumlar HK salonida ro'yxatdan o'tmagan bagaj (qo'l yuki) sifatida tashiladi.

4.1.3. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ yo'lovchining bagajini ushbu bagaj tegishli bo'lган yo'lovchi tashilayotgan HKda belgilangan manzilga tashiydi. Agar bunday tashish imkon bo'lmasa, «FLY KHIVA GROUP» MCHJ yo'lovchi bilan kelishgan holda yo'lovchining bagajini yo'lovchining belgilangan manziliga eng yaqin reysni amalga oshirayotgan HKga olib boradi.

4.1.4. Agar yo'lovchi bagajining og'irligi, o'rindiqlar soni, tarkibi, o'lchami yoki o'rami ushbu Qoidalar talablariga javob bermasa, «FLY KHIVA GROUP» MCHJ uning bagajini tashishni rad etish huquqiga ega.

4.1.5. Ro'yxatdan o'tgandan so'ng HKga chiqish uchun kelmagan yo'lovchining bagaji, shuningdek, HK bortida bo'lган tranzit yo'lovchining bagaji va uning qo'l yuki HK bortidan olib qo'yilishi va majburiy ravishda ko'zdan kechirilishi kerak.

### **4.2. BAGAJNI BEPUL TASHISH ME'YORI**

4.2.1. Yo'lovchi o'z bagajini «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tomonidan belgilangan me'yor doirasida qo'shimcha to'lovsiz tashish huquqiga ega (keying o'rinnarda – bagajni bepul tashish me'yori).

Ro'yxatdan o'tkazishda yo'lovchi tomonidan tashilayotgan, qo'l yuki uchun bagajni bepul tashish me'yorida ortiq bo'lган qo'l yuki:

- qo'l yuki o'rinnari soniga qarab; yoki
- qo'l yuki joyining og'irligi bo'yicha; yoki
- qo'l yuki joyining kamida bitta yo'l qo'yiladigan cheklangan gabarit o'lchami bo'yicha, faqat HK BYB da ro'yxatdan o'tgan bagaj sifatida, ro'yxatdan o'tgan bagaj uchun bagajni bepul tashish me'yoriga rioya qilgan holda tashishga ruxsat etiladi.

4.2.2. «FLY KHIVA GROUP» MCHJning xalqaro va ichki reyslarida bagajni bepul tashish me'yorining standart shartlari:

- xizmat ko'rsatishning ekonom-klass uchun
  - og'irligi 23 kg dan ortiq bo'lмаган, hajmi uch o'lchov yig'indisi bo'yicha 158 sm dan oshmaydigan ro'yxatdan o'tkazilgan bagajning bitta joyi
  - hajmi uch o'lchov yig'indisi bo'yicha 118 sm (55x40x23 sm) dan oshmaydigan, og'irligi 10 kg gacha bo'lган bitta qo'l yuki joyi
- xizmat ko'rsatishning biznes-klassi uchun
  - har birining og'irligi 32 kg dan ortiq bo'lмаган, har birining hajmi uch o'lchov yig'indisi bo'yicha 158 sm dan oshmaydigan ikkita ro'yxatdan o'tkazilgan bagaj joyi
  - og'irligi 10 kg dan ortiq bo'lмаган, hajmi uch o'lchov yig'indisi bo'yicha 118 sm dan oshmaydigan bitta qo'l yuki joyi (55x40x23 sm)

#### **IZOH:**

- Ko'rsatilgan bagajni bepul tashishning standart me'yorlari katta yoshli yo'lovchilarga, ikki yoshdan o'n ikki yoshgacha bo'lган bolalarga, joy ajratilgan holda ikki yoshgacha bo'lган bolalarga nisbatan qo'llaniladi.

- *Ikki yoshgacha bo'lgan bolalar uchun alohida joy ajratilmagan holda ro'yxatdan o'tkaziladigan bagajni olib o'tishning bepul me'yori og'irligi 10 kg dan ortiq bo'lman va hajmi uch o'lchov yig'indisi bo'yicha 158 sm dan ortiq bo'lman 1 ta joyni tashkil etadi.*

4.2.3. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ yo'naliш va HK turiga qarab bepul tashish me'yorlarini o'zgartirish huquqiga ega, bunda o'zgartirishlar «FLY KHIVA GROUP» MCHJning xalqaro va mahalliy yo'naliшlarida qo'shimcha xizmatlar ro'yxati bo'yicha tegishli hujjat bilan Bosh direktor tomonidan tasdiqlanadi.

4.2.4. Bagaj tashish tariflarini qo'llash tartibi:

Agar bagaj ushbu Qoidalarda belgilangan bagajni:

- bagaj o'rinnari soni bo'yicha;
- bagaj joyining ruxsat etilgan og'irligi bo'yicha;
- bagaj joyining uchta gabarit o'lchamlari yig'indisi bo'yicha;

bepul tashish me'yordan oshsa, belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan «FLY KHIVA GROUP» MCHJning amaldagi tariflari bo'yicha bagajni bepul tashish me'yordan ortiqcha tashiladigan bagaj uchun to'lov undiriladi.

4.2.5. Bagajni bepul tashish me'yorlari muntazam reyslarga ham, charter reyslarga ham tatbiq etiladi. Charter reyslarda Buyurtmachi bilan shartnomaviy munosabatlardan kelib chiqqan holda istisnolar bo'lishi mumkin. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ havo transportida tashishning muayyan yo'naliшlarida bagajni bepul olib o'tishning belgilangan tarifdan oshirilgan normalarini qo'llashga haqli.

4.2.6. Yo'lovchi qo'l yuki sifatida «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tomonidan belgilangan me'yordan ortiqcha va qo'shimcha to'lov undirilmagan holda quyidagi buyumlarni olib o'tish huquqiga ega:

• hajmi 3 o'lchov yig'indisi bo'yicha 115 sm bo'lgan va maksimal og'irligi 5 kg bo'lgan ryukzak, yoki ayollar sumkasi, yoki ryukzak, yoki sumka, yoki portfelga solingan buyumlar bilan portfel,

- Guldasta;
- Ustki kiyimlar;
- Parvoz vaqtida bola uchun bolalar ovqati;
- Portpledda kostyum;

• Bolani tashish uchun qurilma (bolalar belanchagi, ikki yoshgacha bo'lgan bolalar uchun ushlab turuvchi tizimlar (qurilmalar), bolalar aravachasi va boshqa qurilmalar), ularning o'lchamlari ushbu Standart bilan belgilangan va ularni havo kemasi salonida yo'lovchi o'rindig'i ustidagi tokchaga yoki oldinda turgan yo'lovchi o'rindig'i ostiga xavfsiz joylashtirish imkonini berishi kerak.

- Dori-darmonlar, parvoz vaqtida zarur bo'lgan miqdordagi maxsus parhez ehtiyojlari.

• Yo'lovchi foydalanadigan va ularni havo kemasi salonida yo'lovchi o'rindig'i ustidagi tokchaga yoki oldinda turgan yo'lovchi o'rindig'i ostiga xavfsiz joylashtirish imkonini beradigan gabaritlarga ega bo'lgan qo'ltiqtayoqlar, hassalar, yurgizgichlar, rollatorlar, yig'iladigan kreslo-aravacha.

• Aeroportdagи boj olinmaydigan savdo do'konlaridan sotib olingan, boj olinmaydigan savdo do'konining cheklolvariga muvofiq muhrlangan (plombalangan) plastik paketga qadoqlangan tovarlar.

4.2.7. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tashish uchun bepul tashish me'yori tatbiq etilmaydigan maxsus toifadagi bagajni qabul qiladi:

• Uy hayvonlari, qushlar.  
• Maxsus vositalar, sovuq va o'qotar qurollar, ularga o'q-dorilar. Ko'rsatilgan bagajni tashish yo'lovchining bagaj sifatida tashiladigan boshqa buyumlaridan qat'i nazar, e'lon qilingan tariflarga muvofiq to'lanadi.

4.2.8. Safarning bitta maqsadi bilan birgalikda ketayotgan yo'lovchilarning hujjat bilan tasdiqlangan iltimosiga ko'ra (yo'naliш-kvitansiya raqamlari ketma-ket keladi yoki chiptalar bitta agentlikdan bir kunda sotib olingan), bitta reys bilan bitta belgilangan aeroportga (manzilga) yoki bitta to'xtash aeroportiga (manziliga) (oila a'zolari, birgalikda sayohat qilayotgan yoki xizmat safariga ketayotgan shaxslar) va bunday yo'lovchilar tomonidan yo'lovchini havo transportida tashish bo'yicha bagajni bepul tashish me'yорни nazarda tutuvchi shartnomalar tuzilgan taqqirda, «FLY KHIVA GROUP» MCHJ ushbu yo'lovchilarga bagajni bepul tashishning birlashtirilgan normasini qo'llaydi. Bitta reys bilan bitta belgilangan aeroportga (manzilga) yoki bitta to'xtash aeroportiga (manziliga) borish maqsadida birga

ketayotgan yo'lovchilar (oila a'zolari, birgalikda ketayotgan yoki xizmat safariga ketayotgan shaxslar) tomonidan yo'lovchini havo transportida tashish to'g'risida bagajni bepul tashish me'yorini nazarda tutmaydigan shartnomalar tuzilgan taqdirda va bunday yo'lovchilar tomonidan bagajga haq to'lash tashuvchi tomonidan belgilangan bagaj tarifi bo'yicha amalga oshirilgan taqdirda, tashuvchi yo'lovchilarning iltimosiga ko'ra bagaj tarifida nazarda tutilgan bagaj og'irligini birlashtirishi shart. Birlashtirilgan bagaj uchun bir joyning og'irligi o'ttiz kilogrammdan oshmasligi kerak va qo'shimcha to'lov undirilmasdan tashishga qabul qilinadi. Birlashtirilgan bagaj bitta joyining og'irligi o'ttiz kilogrammdan ortiq bo'lган taqdirda, bunday bagaj uchun haq to'lash tashuvchining qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi. Bagaj har bir yo'lovchi uchun alohida rasmiylashtirilishi kerak.

4.2.9. Xizmat ko'rsatish klassi majburiy pasaytirilganda yo'lovchi haq to'langan xizmat ko'rsatish klassi uchun belgilangan bagajni bepul tashish me'yori bo'yicha bagaj tashish huquqiga ega.

4.2.10. Boshqa Tashuvchilar bilan birgalikda foydalilanidigan qatnovlarda, agar hamkor Tashuvchilar o'rtaсидаги kelishuvda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, amalda qatnovni amalga oshirayotgan Tashuvchining bagaj tashish me'yorlari qo'llanilishi mumkin.

4.2.11. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ yoki uning Vakolatli agenti chiptani rasmiylashtirishda yo'lovchini bagajni tashish shartlari, bagajni bepul tashishning belgilangan me'yori, shuningdek, me'yordan ortiqcha bagaj yoki majburiy to'lanishi kerak bo'lган bagaj uchun haq to'lash zarurligi to'g'risida xabardor qiladi.

4.2.12. Agar yo'nalish-kvitansiyada bagajni bepul tashish me'yori «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tomonidan belgilanganidan ortiq ko'rsatilgan bo'lsa, «FLY KHIVA GROUP» MCHJ yo'lovchiga yo'nalish-kvitansiyada ko'rsatilgan bagajni bepul tashish me'yorini kamaytirishga haqli emas. Agar yo'nalish-kvitansiyada me'yor «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tomonidan belgilanganidan kam ko'rsatilgan bo'lsa, «FLY KHIVA GROUP» MCHJ bagajni bepul tashish me'yorini ushbu yo'nalishda belgilangan me'yorgacha oshirish huquqiga ega.

### 4.3. RO'YXATDAN O'TGAN BAGAJ

4.3.1. Chiptani ro'yxatdan o'tkazishda va tashish uchun bagajni rasmiylashtirishda yo'lovchi tashish uchun mo'ljallangan barcha bagajni tortish uchun taqdim etishi shart, yo'lovchining yonida bo'lган va bagajga solinmagan, yo'lovchi bagajni bepul tashishning belgilangan normasidan ortiqcha va to'lov undirmsandan olib yurish huquqiga ega bo'lган buyumlar bundan mustasno.

4.3.2. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ yoki Xizmat ko'rsatuvchi tashkilot bagajni tashishga qabul qilish, o'rinalar soni va bagajning og'irligi to'g'risidagi ma'lumotlarni, yo'lovchining yonida bo'lган va bagajga solinmagan, yo'lovchi bagajni bepul tashishning belgilangan normasidan ortiqcha va to'lov undirmsandan olib yurish huquqiga ega bo'lган buyumlardan tashqari, avtomatlashtirilgan ro'yxatga olish tizimiga elektron shaklda joylashtiradi.

4.3.3. Bagajni rasmiylashtirishda yo'lovchiga raqamli bagaj yorlig'ining bir qismi (ajratib olinadigan talon) beriladi, boshqa qismi esa yo'lovchi tomonidan ushbu buyumlar topshirilgan paytdan boshlab yo'lovchiga berilgan paytgacha ularning saqlanishi uchun «FLY KHIVA GROUP» MCHJ javobgarligi ostida «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tomonidan tashish uchun qabul qilingan bagajning har bir joyiga biriktiriladi (keyingi o'rinalarda - ro'yxatdan o'tkazilgan bagaj).

4.3.4. Raqamli bagaj yorlig'i ro'yxatdan o'tkazilgan har bir bagaj joyini identifikatsiyalash uchun xizmat qiladi va quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi:

- a). yo'lovchining familiyasi va ismi to'g'risida;
- b). reys raqami to'g'risida;
- c). jo'nash sanasi to'g'risida;
- d). jo'nash aeroporti (manzili) to'g'risida;
- e). ro'yxatdan o'tkazilgan bagaj tashish uchun qabul qilingan belgilangan aeroport (manzil) to'g'risida;
- f). bagaj joyining og'irligi to'g'risida;
- g). boshqa qo'shimcha ma'lumotlar – zarurat bo'lganda.

4.3.5. Tashishning alohida shartlarini belgilash uchun ro'yxatdan o'tkazilgan bagajga qo'shimcha ravishda maxsus raqamsiz bagaj yorlig'i biriktirilishi mumkin.

4.3.6. Yo'lovchining ro'yxatdan o'tgan bagaji yo'lovchi ketayotgan «FLY KHIVA GROUP» MCHJ HKda tashiladi.

4.3.7. Ro'yxatdan o'tkazilgan bagajning har bir joyi, agar tashish va ishlov berishda uning saqlanishini ta'minlaydigan va quyidagi imkoniyatlarni istisno etadigan soz o'ramga ega bo'lsa, tashish uchun qabul qilinadi:

- yo'lovchilarga zarar yetkazish;
- ekipaj a'zolariga zarar yetkazish;
- uchinchi shaxslarga zarar yetkazish;
- HK shikastlanishi;
- boshqa yo'lovchilarning bagajiga zarar yetkazilishi;
- boshqa mol-mulkka zarar yetkazish.

Sanab o'tilgan talablarga javob bermaydigan bagaj tashishga qo'yilmaydi.

4.3.8. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ va/yoki Xizmat ko'rsatuvchi tashkilot bagaj tashish uchun rasmiylashtirilgandan so'ng ro'yxatdan o'tkazilgan bagaj va uning o'ramining saqlanishi uchun javobgar bo'ladi.

4.3.9. Ro'yxatdan o'tkazilgan bagaj tashish uchun topshirilgan paytdan boshlab va u berilgunga qadar yo'lovchining ro'yxatdan o'tkazilgan bagajni olishi taqiqlanadi, uni identifikatsiya qilish yoki tegishli vakolatli xizmatlar tomonidan qo'shimcha tekshirish o'tkazish hollari bundan mustasno.

4.3.10. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ yo'lovchi tomonidan olib ketilayotgan bagajning og'irligini jo'nash aeroportida va/yoki belgilangan aeroportda tekshirish huquqiga ega. Agar yo'lovchi belgilangan bepul me'yordan ortiqcha yukni tashish uchun tegishli to'lovnini amalga oshirmaganligi aniqlansa, «FLY KHIVA GROUP» MCHJ yukning bunday qismi uchun to'lovnini amalga oshirishni talab qilishi mumkin.

4.3.11. Bir bagaj joyining o'lchami uch o'lchov yig'indisi bo'yicha 203 sm dan oshmasligi kerak, ro'yxatdan o'tkazilgan bir bagaj joyining og'irligi 32 kg dan oshmasligi kerak, nogironlar va hayot faoliyati cheklangan boshqa shaxslar orasidan bo'lgan yo'lovchi foydalanadigan kreslo-aravacha bundan mustasno. Ko'rsatilgan o'lcham va/yoki vazndan ortiq bo'lgan bagaj faqat «FLY KHIVA GROUP» MCHJ bilan oldindan kelishilgan holda tashiladi va belgilangan tarif bo'yicha haq to'lanadi yoki yuk tashish qoidalariga muvofiq yuk sifatida rasmiylashtiriladi, bunda me'yordan ortiqcha bagajga bagajni bepul tashish me'yori tatbiq etilmaydi.

4.3.12. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ og'irligi va/yoki o'lchami ushbu Qoidalarda belgilangan talablarga javob bermaydigan bagajni ro'yxatdan o'tgan bagaj sifatida tashishga qabul qilishni rad etishga haqli.

4.3.14. 24 soatdan kam vaqt davomida reyslar tutashganda, transfer yuki jo'nash/transfer aeroportining imkoniyatlari va transfer manzilidagi davlat organlarining talablariga qarab oxirgi manzilgacha yoki transfer manzilgacha rasmiylashtiriladi. Agar yo'lovchida reyslar o'rtasidagi tutashuv vaqt 24 soatdan ortiq bo'lsa, uning bagaji faqat transfer manzilgacha rasmiylashtiriladi.

4.3.15. Transfer bagaj oxirgi borish aeroportigacha rasmiylashtirilishi mumkin bo'lgan soddalashtirilgan tartibning qo'llanilishi transfer yo'lovchini boshqa talablarga va O'zbekiston Respublikasining bojxona ishi to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya qilishdan ozod qilmaydi.

4.3.16. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq rasmiylashtirilgan transfer bagajning transfer aeroportida bojxona nazoratini amalga oshirish uchun bojxona organiga taqdim etilishi yo'lovchini O'zbekiston Respublikasining bojxona ishi to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlikdan ozod qilmaydi.

#### **4.4. YO'LOVCHINING YONIDAGI BUYUMLAR (QO'L YUKI)**

4.4.1. Yo'lovchining yonidagi buyumlar (qo'l yuki) ro'yxatdan o'tkazilmagan bagaj hisoblanadi va bagajni bepul tashish me'yori hisobiga tashishga qabul qilinadi.

4.4.2. Qo'l yuki sifatida maksimal og'irligi va o'lchamlari «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tomonidan cheklangan va HK salonida xavfsiz joylashtirish imkonini beradigan buyumlar qabul qilinadi.

4.4.3. Qo'l yukini tashishda u yo'lovchi o'rindig'i ostiga joylashtiriladi. Yo'lovchi o'rindig'i tepasidagi yopiladigan bagaj javonida uncha katta bo'limgan, og'irligi 2 kg dan ortiq bo'limgan yengil buyumlar va yo'lovchining ustki kiyimlari joylashtiriladi.

4.4.4. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ yoki Xizmat ko'rsatuvchi tashkilot HK salonida tashilayotgan qo'l yukini rasmiylashtirishda yo'lovchiga raqamsiz «Qo'l yuki» yorlig'ini beradi va avtomatlashtirilgan ro'yxatga olish tizimiga qo'l yukining og'irligini kiritadi.

4.4.5. Yo'lovchining o'zi HK salonida yo'lovchi tomonidan olib ketilayotgan qo'l yuki va buyumlarning saqlanishi haqida qayg'urishi shart. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ HK salonida yo'lovchi tomonidan olib ketilayotgan qo'l yuki va buyumlar uchun javobgar emas. Yo'lovchi HKdan chiqayotganda HK bortiga joylashtirilgan qo'l yuki va «FLY KHIVA GROUP» MCHJ HK salonida olib ketilayotgan buyumlarni o'zi bilan olib ketishi shart.

## **4.5. ME'YORDAN ORTIQ, OG'IR VAZNLI VA NOGABARIT BAGAJ**

4.5.1. Me'yordan ortiqcha bagaj, nogabarit bagaj va og'ir vaznli bagaj faqat «FLY KHIVA GROUP» MCHJ HKda erkin tashish sig'imi mavjud bo'lganda va yo'lovchi tomonidan bunday bagajni tashish uchun to'lov amalga oshirilgan taqdirda tashishga qabul qilinadi, bunday bagajni tashish «FLY KHIVA GROUP» MCHJ bilan kelishilgan va bronlashda to'langan hollar, shuningdek nogironlar va hayot faoliyati cheklangan boshqa shaxslar jumlasidan bo'lgan yo'lovchi tomonidan foydalaniladigan kreslo-aravachalar va boshqa yordamchi harakatlanish qurilmalarini aeroportlarda va havo kemalarida nogironlar va hayot faoliyati cheklangan boshqa shaxslar jumlasidan bo'lgan yo'lovchilarga xizmatlar ko'rsatish tartibiga muvofiq tashish hollari bundan mustasno.

4.5.2. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ, agar bunday tashish «FLY KHIVA GROUP» MCHJ bilan oldindan kelishilmagan bo'lsa, og'irligi «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tomonidan belgilangan bepul tashish me'yordan ortiq bo'lgan bagajni qabul qilishni, tashishni cheklash yoki tashishni rad etish huquqiga ega.

4.5.3. Agar yo'lovchi tashish uchun bron qilingan va oldindan to'langanidan og'irligi va/yoki o'lchami kamroq bagaj taqdim etgan bo'lsa, «FLY KHIVA GROUP» MCHJ yo'lovchiga bron qilingan va haqiqiy bagaj og'irligi va/yoki o'lchami o'rtasidagi tashish to'lovidagi farqni qaytaradi.

4.5.4. Yo'lovchi tashish yo'nalishi bo'ylab harakatlanayotganda «FLY KHIVA GROUP» MCHJning roziligi bilan tashilayotgan bagajning og'irligi va joylar sonini kamaytirish yoki ko'paytirish huquqiga ega. Yo'lovchi qatnov yo'lida tashilayotgan bagajning vazni va (yoki) o'rinalar soni ko'paygan taqdirda, u vazni yoki gabarlari ilgari to'langan bagajni bepul tashishning belgilangan normasidan ortiq bo'lgan bagajni tashish qiyamatini to'lashi shart. Yo'lovchi tomonidan qatnov yo'lida tashilayotgan bagajning og'irligi kamaytirilgan taqdirda, «FLY KHIVA GROUP» MCHJ bagaj uchun ilgari amalga oshirilgan to'lov bo'yicha hech qanday qayta hisob-kitoblarni amalga oshirmaydi.

4.5.5. Yo'lovchi HKda tashish sig'imini bron qilishda «FLY KHIVA GROUP» MCHJ yoki uning Vakolatli agentini nogabarit yuk tashish to'g'risida xabardor qilishi shart. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ bron qilinmagan nogabarit bagajni tashishga qabul qilishni rad etish huquqiga ega.

4.5.6. Gabaritli bagaj – uch o'lchov yig'indisida bir joyning o'lchamlari 158 dan 203 sm gacha bo'lgan bagaj. Og'ir vaznli bagaj – og'irligi (bir joyning) 24 dan 32 kg gacha bo'lgan va uch o'lchov yig'indisida 158 sm dan oshmaydigan bagaj.

4.5.7. Nogabarit va og'ir vaznli bagajga bepul tashish me'yori tatbiq etilmaydi.

4.5.8. Nogabarit bagaj yuklash lyuklari va «FLY KHIVA GROUP» MCHJ HKning BYB o'lchamlari uni HKga yuklash (tushirish) va HK bortiga joylashtirish imkonini bersa, tashishga qabul qilinadi. Ushbu bagaj HKga joylashtirishda tashish uchun tutqichlar va uni mahkamlash uchun moslamalarga ega bo'lishi kerak.

4.5.9. Bir nechta Tashuvchining havo kemalarida me'yordan ortiq, og'ir vaznli yoki nogabarit bagajni tashish zarur bo'lganda, yo'lovchi bunday tashish uchun ushbu Tashuvchilarining roziligini olishi kerak.

## **4.6. ME'YORDAN ORTIQCHA BAGAJ UCHUN TO'LOV HUJJATLARI**

4.6.1. Nogabarit bagaj, og'ir vaznli bagaj, uy hayvonlari va uy qushlarini tashish bunday bagajning haqiqiy og'irligidan kelib chiqib, «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tomonidan belgilangan bagaj tariflari bo'yicha yo'lovchining bagaj sifatida tashiladigan boshqa buyumlaridan qat'i nazar, to'lanadi, ko'rish qobiliyati cheklangan yo'lovchi bilan birga ketayotgan kuzatuvchi it, shuningdek nogironlar va hayot

faoliyati cheklangan boshqa shaxslar orasidan bo‘lgan yo‘lovchi foydalanayotgan kreslo-aravacha bundan mustasno.

4.6.2. Me'yordan ortiqcha bagaj uchun to‘lov kvitansiyasi yoki elektron ko‘p maqsadli hujjat (EMD) yo‘lovchining bagaj tashish uchun to‘lovni amalga oshirganligini tasdiqlaydi.

#### **4.7. HK SALONIDA QO‘SHIMCHA JOYLARNI TAQDIM ETGAN HOLDA BAGAJNI TASHISH**

4.7.1. Tashish vaqtida alohida ehtiyyot choralarini yoki unga ishlov berishning alohida sharoitlarini (mo‘rt va sinadigan buyumlar, kino va fotoapparatlar, tele va videoapparatlar, radioapparatlar, maishiy orgtexnika, musiqa asboblari, elektron va optik asboblar va hokazo) talab qiladigan yo‘lovchi bagaji HK salonida alohida yo‘lovchi o‘rindig‘ida (o‘rindiqlarida) joylashtirilgan holda tashilishi mumkin.

4.18.5/ (3.8.10). Elektr yuritmali kreslo-aravachadan foydalanadigan yo‘lovchilar kreslo-aravacha akkumulyator qisqichlarini ajratish uchun kalitlar/moslamalar to‘plamini, shuningdek, ICAOning xavfli yuklarni havo orqali xavfsiz tashish bo‘yicha texnik yo‘riqnomalariga muvofiq akkumulyator uchun qadoqni o‘zлari bilan olib yurishlari shart. Elektr yuritmali kreslo-aravacha akkumulyatorining klemmalarini ajratish va ulash yo‘lovchilar tomonidan mustaqil ravishda yoki xizmatlarga bo‘lgan ehtiyoj to‘g‘risidagi so‘rov bo‘yicha – Xizmat ko‘rsatuvchi tashkilot tomonidan amalga oshiriladi.

4.18.6. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ nogironlar va hayot faoliyati cheklangan boshqa shaxslardan iborat yo‘lovchilarga HKga chiqishdan oldin o‘z kreslo-aravachasida (elektr yuritmali aravachadan tashqari) yoki shaxsiy harakatlanish vositasida qolish imkoniyatini ta‘minlaydi.

4.18.7. Yo‘lovchida nogironlik aravachasi yoki individual harakatlanish vositasi mavjud bo‘lsa, bevosita HK bortiga joylashtirishdan oldin yoki joylashtirishni nazorat qilish peshtaxtasidan o‘tishdan oldin, Xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotning joylashtirish bo‘yicha agenti / «FLY KHIVA GROUP» MCHJ vakili / Bortkuzatuvchi yo‘lovchiga yoki yo‘lovchiga hamrohlik qiluvchi shaxsga aravachani/individual harakatlanish vositasini tashish holatiga keltirishni va uni HK borti ostida yoki HK eshigi oldida (teleskopik trap orqali joylashtirishda) HK BYBga aravachani/individual harakatlanish vositasini yuklash uchun qoldirishni taklif qiladi. Bunda yo‘lovchiga belgilangan aeroportda (yo‘lovchi tushirilgandan so‘ng HK borti ostida yoki belgilangan aeroportning uchib kelish zalida – belgilangan aeroportga xizmat ko‘rsatuvchi tashkilot talablariga muvofiq) aravacha yoki individual harakatlanish vositasini olish joyi haqida ma’lumot beriladi.

#### **4.19. YO‘LOVCHILAR TOMONIDAN RO‘YXATDAN O‘TGANDAN SO‘NG HK BORTIGA CHIQISHDAN OLDIN FOYDALANILADIGAN BOLALAR ARAVACHALARINI TASHISH UCHUN RASMIYLASHTIRISH**

4.19.1. Bolali tashishda «FLY KHIVA GROUP» MCHJ reyslarida yo‘lovchi belgilangan bagajni bepul tashish me’yордан ortiqcha va to‘lov undirmasdan bitta bolalar aravachasini tashish huquqiga ega.

4.19.2. Bolali yo‘lovchini ro‘yxatdan o‘tkazishda yo‘lovchida bolalar aravachasi mavjud bo‘lganda:

a) Bolalar aravachasi tarozida tortiladi.

b) Bolalar aravachasining og‘irligi haqidagi ma’lumotlar avtomatlashtirilgan ro‘yxatga olish tizimiga kiritiladi.

c) Bolalar aravachasi ro‘yxatdan o‘tkazilgan bagaj uchun bagaj yorlig‘i bilan belgilanadi, bagaj yorlig‘ining yirtib olinadigan taloni yo‘lovchiga beriladi.

d) Bolalar aravachasi bagajni bepul tashish me’yордан tashqari ro‘yxatdan o‘tkazilgan bagaj sifatida tashishga qabul qilinadi.

4.19.3. Bolali yo‘lovchida bolalar aravachasi mavjud bo‘lganda bevosita HK bortiga joylashishdan oldin yoki joylashtirishni nazorat qilish peshtaxtasidan o‘tishdan oldin, Xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotning chiqish bo‘yicha agenti / «FLY KHIVA GROUP» MCHJ vakili / Bortkuzatuvchi yo‘lovchiga bolalar aravachasini tashish holatiga keltirishni va uni HK borti ostida yoki bolalar aravachasini HK BYBga yuklash uchun HK eshigi oldida qoldirishni taklif qiladi. Bunda yo‘lovchi belgilangan aeroportda aravachani olish joyi haqida xabardor qilinadi (yo‘lovchi HKdan tushirilgandan so‘ng HK borti ostida yoki belgilangan aeroportning uchib kelish zalida – belgilangan aeroportning Xizmat ko‘rsatuvchi tashkiloti talablariga muvofiq).

## **5-BOB. MA'MURIY RASMIYATCHILIKLAR**

### **5.1. UMUMIY TALABLAR**

5.1.1. O'zRga kelayotgan, O'zRdan ketayotgan va O'zR hududida tranzit o'tib ketayotgan yo'lovchilarga, shuningdek O'zRga olib kirilayotgan va O'zRdan olib chiqilayotgan bagaj, yuklarga O'zR qonunchiligidagi belgilangan pasport, bojxona va boshqa qoidalar tatbiq etiladi.

5.1.2. Yo'lovchi, yuk jo'natuvchi, yuk oluvchi aviatsiya xavfsizligini ta'minlash, bojxona, sanitariya-karantin, immigratsiya, veterinariya, fitosanitariya, valyuta va boshqa nazorat turlarini amalga oshirishga taalluqli yo'lovchi, bagaj, yukni havo transportida tashish amalga oshirilayotgan mamlakatning vakolatli organlari qonunlari va me'yoriy hujjatlari talablariga rioya qilishlari shart.

5.1.3. Chegara, bojxona, sanitariya-karantin, veterinariya, fitosanitariya va boshqa turdag'i nazoratdan o'tishda yo'lovchi, yukni jo'natuvchi, yukni oluvchi tegishli davlat nazorati organlari talablarini bajarishi shart.

5.1.4. Yo'lovchi, yuk jo'natuvchi, yuk oluvchi davlat chegarasi orqali o'tkazish manzillarida yo'lovchi, bagaj, yuk havo transportida qaysi mamlakatdan (mamlakatdan) yoki uning hududi orqali tashilsa, o'sha mamlakatning vakolatli davlat organlari tomonidan belgilangan kirish, chiqish, tibbiy va boshqa hujjatlarni taqdim etishlari shart.

5.1.5. Yo'lovchi, bagaj, yukni xalqaro havo transportida tashish munosabati bilan yuzaga keladigan davlat nazorati organlari va yo'lovchi, yuk jo'natuvchi, yuk qabul qiluvchi o'rtafigi o'zaro munosabatlarni tartibga solish faqat yo'lovchi, yuk jo'natuvchi, yuk qabul qiluvchining vakolatiga kiradi va «FLY KHIVA GROUP» MCHJning majburiyati hisoblanmaydi.

5.1.6. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ vakolatli davlat organlari tomonidan berilgan yo'lovchi, bagaj, yukni havo transportida tashishda taqdim etiladigan hujjatlarning mavjudligi, ishonchliligi va to'g'ri rasmiylashtirilishi uchun javobgar emas.

5.1.7. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ, agar ushbu tashish uchun hujjatlar yo'lovchi, yuk jo'natuvchi tomonidan to'liq taqdim etilmagan yoki noto'g'ri rasmiylashtirilgan bo'lsa, yo'lovchi, bagaj, yukni havo transportida tashishni rad etish huquqiga ega.

5.1.8. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ yo'lovchi, yukni jo'natuvchi, yukni oluvchi tomonidan davlat nazorati organlari talablariga rioya etilmaganligi sababli yo'lovchi, yukni jo'natuvchi, yukni oluvchi oldida uning qilgan xarajatlari uchun javobgar bo'lmaydi.

5.1.9. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ yo'lovchining chegara, bojxona, sanitariya-karantin, veterinariya, fitosanitariya yoki boshqa nazoratdan o'tishi munosabati bilan reysga kechikkanligi uchun javobgar bo'lmaydi.

### **5.2. JARIMALAR VA BOSHQA XARAJATLARNI TO'LASH**

5.2.1. Vakolatli davlat organlari «FLY KHIVA GROUP» MCHJ zimmasiga belgilangan mamlakatga, tranzit mamlakatga kirishi rad etilgan yo'lovchini jo'nash aeroportiga yoki boshqa aeroportga qaytarish majburiyatini yuklagan taqdirda, yo'lovchi yoki uning taklifini rasmiylashtirgan tashkilot «FLY KHIVA GROUP» MCHJga ushbu tashish bilan bog'liq barcha xarajatlarni qoplashi shart.

5.2.2. Yo'lovchi «FLY KHIVA GROUP» MCHJga, shuningdek, ushbu yo'lovchining belgilangan mamlakatga kirishi rad etilishi munosabati bilan «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tomonidan amalga oshirilgan boshqa xarajatlarni (jarima, garov to'lovi) qoplashi shart.

5.2.3. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ yo'lovchi yoki yo'lovchini rasmiylashtirgan tashkilot tomonidan foydalanilmagan tashish uchun kiritilgan har qanday summani yoki yo'lovchi yoki yo'lovchi chiptasi uchun to'lovni amalga oshirgan tashkilot tomonidan to'langan va «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tasarrufida bo'lgan har qanday boshqa summani tegishli tarifni to'lash va ushbu yo'lovchining vakolatli organlari talabiga ko'ra deportatsiya bilan bog'liq barcha xarajatlarni qoplash hisobiga zararni qoplashni talab qilish huquqiga ega.

## **6-BOB. JAVOBGARLIKNI SUG'URTALASH**

6.1. HK yo'lovchisi havo transportida tashish davrida baxtsiz hodisalardan majburiy sug'urtalanishi kerak. HK yo'lovchisining hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zarar, shuningdek, bagaj va yo'lovchining yonidagi buyumlarning yo'qolishi, kamomadi yoki shikastlanishi (buzilishi) uchun javobgarlikni majburiy sug'urta qilish «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tomonidan amalga oshiriladi.

6.2. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tomonidan yo'lovchilarни majburiy sug'urta qilish O'zbekiston Respublikasi qonun hujjalarda nazarda tutilgan tartibda va shartlarda «FLY KHIVA GROUP» MCHJ va majburiy sug'urtaning ushbu turini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lgan Sug'urtalovchi o'rtaida Sharhnomalar tuzish orqali amalga oshiriladi.

6.3. Sug'urta hodisasi yuz berganda «FLY KHIVA GROUP» MCHJ shaxsga doir ma'lumotlari mavjud bo'lgan har bir jabrlanuvchini jabrlanuvchilarning huquqlari va yetkazilgan zararni qoplash uchun jabrlanuvchilarning harakatlari tartibi to'g'risida xabardor qiladi.

## **7-BOB. BAJARILMAGAN TASHISH UCHUN SUMMALARNI QAYTARISH**

### **7.1. UMUMIY TALABLAR**

7.1.1. Tashish haqini qaytarish «FLY KHIVA GROUP» MCHJ yoki uning topshirig'iga binoan tashish haqi to'langan joydagi Vakolatli agent tomonidan amalga oshiriladi.

7.1.2. Yo'lovchi parvozdan majburiy yoki ixtiyoriy ravishda voz kechgan taqdirda, «FLY KHIVA GROUP» MCHJ foydalanilmagan tashish hujjati bo'yicha summalarini qaytaradi. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ summani qaytarishni faqat «FLY KHIVA GROUP» MCHJning o'zi yoki uning Vakolatli agenti tomonidan berilgan tashish hujjati va/yoki turli yig'imlar orderi taqdim etilganda amalga oshiradi. Pulni qaytarish ushbu Qoidalar va «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tariflarini qo'llash shartlariga muvofiq amalga oshiriladi.

7.1.3. Foydalanilmagan tashish hujjati va/yoki turli yig'imlar orderi bo'yicha summalarini qaytarish, agar «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tariflarini qo'llash shartlarida boshqa tartib ko'rsatilmagan bo'lsa, tashish hujjati va/yoki turli yig'imlar ordering amal qilish muddati davomida amalga oshiriladi.

7.1.4. «FLY KHIVA GROUP» MCHJning operatsion faoliyati to'xtatilganligi, «FLY KHIVA GROUP» MCHJ ekspluatant sertifikatining amal qilishi to'xtatilganligi, «FLY KHIVA GROUP» MCHJ ekspluatant sertifikatining bekor qilinganligi, ekspluatant sertifikatining amal qilishiga cheklar kiritilganligi, litsenziyaning amal qilishi to'xtatilganligi, litsenziyaning bekor qilinganligi, litsenziyaning amal qilishi to'xtatilganligi munosabati bilan tashish haqini qaytarish O'zbekiston Respublikasi qonun hujjalarga muvofiq «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tomonidan amalga oshiriladi.

### **7.2. BAJARILMAGAN TASHISH QIYMATINI QAYTARISH HUQUQIGA EGA BO'LGAN SHAXSLAR**

7.2.1. Tashish haqini qaytarish to'g'risidagi talab ushbu Qoidalar va Yo'lovchini havo transportida tashish shartnomasida belgilangan tartibda taqdim etiladi.

7.2.2. Foydalanilmagan tashish hujjati bo'yicha tashish haqini qaytarish ushbu hujjalarda ko'rsatilgan shaxsga yoki to'lojni tasdiqlovchi hujjat va shaxsni hamda ushbu summalarini olish huquqini tasdiqlovchi hujjat (jismoniy shaxslar uchun – notarial tasdiqlangan ishonchnoma yoki yuridik shaxslarning vakillari uchun – yuridik shaxsning vakolatli organi tomonidan tasdiqlangan ishonchnoma) taqdim etilganda ushbu tashish uchun haq to'lagan shaxsga, yoxud vakolatli shaxsga – shaxsni tasdiqlovchi hujjat va pul summalarini olish huquqini tasdiqlovchi hujjat taqdim etilganda amalga oshiriladi.

### **7.3. TO'LOV SUMMALARINI QAYTARISH**

7.3.1. Foydalanilmagan tashish hujjati va/yoki turli yig'imlar orderi bo'yicha qaytariladigan summalar miqdori «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tariflarini qo'llash shartlari bilan belgilanadi.

7.3.2. Yo'lovchi tashishdan majburiy ravishda bosh tortganda unga quyidagilarni hisobga olgan holda aniqlanadigan summa qaytariladi:

a) agar tashish bajarilmagan bo'lsa – tashish uchun to'langan barcha summa qaytariladi;

b) agar tashish qisman bajarilgan bo‘lsa – tashishning qolgan bajarilmagan qismi qiymatiga mos keladigan summa qaytariladi, parvozlar xavfsizligini ta’minlash maqsadida zaxira aerodromida HK majburiy qo‘nish holatlari bundan mustasno.

7.3.3. Yo‘lovchi tashishdan ixtiyoriy ravishda voz kechgan taqdirda, yo‘lovchiga «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tariflarini qo‘llash shartlariga muvofiq summa qaytariladi.

7.3.4. Pul mablag‘larini qaytarish chipta sotib olingan joyda, «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tariflarini qo‘llash shartlariga muvofiq, tashish rasmiylashtirilgan valyutada va to‘lov shaklida amalga oshiriladi.

7.3.5. Yo‘lovchi tomonidan elektron chipta «FLY KHIVA GROUP» MCHJning internet-saytida kredit karta bilan to‘langan holda sotib olingan taqdirda, elektron chiptani qaytarish «FLY KHIVA GROUP» MCHJning internet-saytida «Bronni boshqarish», «Chiptalarni qaytarish» bo‘limida internet orqali tegishli xabar yuborish orqali amalga oshiriladi. Agar buyurtma to‘lovi elektron to‘lov tizimlari yoki aggregator (ositachi tizim) yordamida amalga oshirilgan bo‘lsa, u holda pul mablag‘larini qaytarish yo‘lovchi tomonidan ko‘rsatilgan rekvizitlarga, «FLY KHIVA GROUP» MCHJ internet-saytining «Bronni boshqarish», «Chiptalarni qaytarish» bo‘limida, ariza to‘ldirilgandan so‘ng amalga oshiriladi.

7.3.6. Yo‘nalish-kvitansiya faqat axborot xususiyatiga ega bo‘lib, yo‘lovchining foydalanilmagan tashish uchun pul olishi uchun hujjat hisoblanmaydi. Foydalanilmagan (qisman foydalanilgan) elektron chipta bo‘yicha summalarini qaytarish elektron chiptani rasmiylashtirishda ma’lumotlaridan foydalanilgan shaxsni tasdiqlovchi hujjat bo‘yicha amalga oshiriladi. Umumfuqarolik pasportida ilgari berilgan xorijga chiqish pasporti to‘g‘risida belgi mavjud bo‘lgan taqdirda (elektron chipta xorijga chiqish pasportidan foydalangan holda rasmiylashtirilgan taqdirda) summalarini qaytarish uchun xorijga chiqish pasportini ko‘rsatish talab etilmaydi. Agar aviachipta uchun to‘lov bank kartasi orqali amalga oshirilgan bo‘lsa, pul mablag‘lari faqat ushbu bank kartasiga qaytarilishi mumkin.

7.3.7. HKni (havo charterini) fraxtlash shartnomasi bo‘yicha bajarilgan tashish uchun to‘langan pul mablag‘larini yo‘lovchilarga qaytarish, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan tartibda, HKni (havo charterini) fraxtlash shartnomasi bo‘yicha bajarilgan tashish qiymatini yo‘lovchi to‘lagan shaxs tomonidan amalga oshiriladi.

## 8-BOB. VAKOLATLAR

### 8.1. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ VAKOLATLARI

8.1.1. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ HK jo‘natilishini ogohlantirishsiz bekor qilish, kechiktirish yoki boshqa vaqtga ko‘chirish, jadvalda (parvoz rejasida) nazarda tutilgan tashish yo‘nalishini o‘zgartirish, shuningdek, agar bunday harakatlar parvozlar xavfsizligini va/yoki aviatsiya xavfsizligini ta’minlash uchun zarur bo‘lsa, qo‘nish manzilini o‘zgartirish huquqiga ega.

8.1.2. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ quyidagi hollarda Yo‘lovchini havo transportida tashish shartnomasini bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega:

a). Yo‘lovchi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan pasport, bojxona, sanitariya va boshqa talablarning havo transportida tashishiga taalluqli qismini, shuningdek, jo‘nash, kelish yoki tranzit davlatlarining tegishli organlari tomonidan belgilangan qoidalarni buzish.

b). Yo‘lovchining ushbu Qoidalarda unga qo‘yilgan talablarni bajarishdan bosh tortishi.

c). Agar yo‘lovchining sog‘lig‘i holati havo transportida tashishning alohida sharoitlarini talab qilsa yoki yo‘lovchining o‘zi yoki boshqa shaxslarning xavfsizligiga tahdid solsa.

d). Yo‘lovchining bagajni bepul tashishning belgilangan me’yorlaridan ortiq bo‘lgan o‘z bagajini tashish va (yoki) majburiy ravishda to‘lanishi kerak bo‘lgan bagajni tashish uchun haq to‘lashdan bosh tortishi.

e). Yo‘lovchining o‘zi bilan birga ketayotgan bolani imtiyozli tarif bo‘yicha tashish haqini to‘lashdan bosh tortishi, ikki yoshdan katta bo‘limgan bolani unga alohida joy ajratmasdan bepul tashish hollari bundan mustasno.

f). Yo‘lovchining HK bortida HK parvozi xavfsizligiga tahdid yoki boshqa shaxslarning hayoti yoki sog‘lig‘iga xavf tug‘diradigan xulq-atvor qoidalarni buzishi.

g). Yo‘lovchi tomonidan HK komandirining buyruqlarini bajarmaslik,

h). Yo'lovchining yonidagi buyumlarda, shuningdek bagajida ushbu Qoidalarga muvofiq havo transportida tashish taqilangan buyumlar yoki moddalarning mavjudligi.

8.1.3. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tashabbusi bilan Yo'lovchini havo transportida tashish shartnomasining amal qilishi to'xtatilgan taqdirda, yo'lovchiga «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tariflarini qo'llash shartlariga muvofiq foydalanilmagan havo transportida tashish uchun to'langan summa qaytariladi, ushbu Qoidalarning 9.1.2-bandining f), g) kichik bandlarida nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno, bunda havo transportida tashish uchun to'langan summa yo'lovchiga qaytarilmaydi.

## **8.2. YO'LOVCHINING VAKOLATLARI**

8.2.1. Yo'lovchining huquqlari Yo'lovchini havo transportida tashish shartnomasi, ushbu Qoidalalar, shuningdek O'zbekiston Respublikasining Fuqaro aviatsiyasi sohasidagi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

8.2.2. Yo'lovchi Havo transportida tashish shartnomasini bir tomonlama bekor qilish va boshlang'ich aeroportda, tranzit/transfer aeroportida «FLY KHIVA GROUP» MCHJni xabardor qilgan holda tashishdan ixtiyoriy ravishda voz kechish huquqiga ega.

8.2.3. Tashuvdan ixtiyoriy ravishda voz kechgan yo'lovchi «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tariflarini qo'llash shartlariga muvofiq ilgari foydalanilmagan havo transportida tashish uchun to'langan qiymatni qaytarib olish huquqiga ega.

8.2.4. Yo'lovchi tashishdan majburiy ravishda bosh tortganda, yo'lovchiga yo'lovchining tashish hujjatida ko'rsatilgan manzilga amalga oshiriladigan «FLY KHIVA GROUP» MCHJning eng yaqin reysida tashishdan foydalanish yoki foydalanilmagan tashish uchastkasi uchun tashish qiymatini yoki tashish qiymatining bir qismini yig'imni ushlab qolmasdan qaytarib olish huquqi beriladi.

## **9-BOB. JAVOBGARLIK**

### **9.1. UMUMIY TALABLAR**

9.1.1. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida, Yo'lovchini havo transportida tashish shartnomasida belgilangan tartibda, shuningdek, ushbu Qoidalarga muvofiq yo'lovchi oldida javobgar bo'ladi.

9.1.2. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ va yo'lovchi bojxona, valyuta, sanitariya, karantin va boshqa qoidalarni buzganligi uchun O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

### **9.2. YO'LOVCHINING HAYOTI YOKI SOG'LIG'IGA ZARAR YETKAZGANLIK UCHUN «FLY KHIVA GROUP» MCHJ NING JAVOBGARLIGI.**

9.2.1. «FLY KHIVA GROUP» MCHJning havo transportida yo'lovchining hayoti yoki sog'lig'iga yetkazilgan zarar uchun javobgarligi xalqaro shartnomalar, fuqarolik qonunchiliği va O'zbekiston Respublikasining Havo kodeksi bilan tartibga solinadi.

9.2.2. Tashuvchi yo'lovchini havo transportida tashish paytida uning o'limi yoki sog'lig'iga shikast yetkazilishi natijasida yetkazilgan zarar uchun, agar tashuvchi zararning oldini olish uchun barcha zarur choralarни ko'rganligini yoki bunday choralarни ko'rish mumkin emasligini isbotlay olmasa, mulkiy javobgar bo'ladi.

9.2.3. Yo'lovchiga yengib bo'lmas kuch ta'siri natijasida o'lim yoki sog'lig'iga shikast yetkazilgan taqdirda, tashuvchi, agar zararning kelib chiqishi yoki ko'payishiga jabrlanuvchining o'zining qo'pol ehtiyoitsizligi sabab bo'lganligini isbotlay olmasa, belgilangan javobgarlikka tortiladi.

9.2.3. Boshqa hollarda, agar tashuvchi jabrlanuvchining o'zining qo'pol ehtiyoitsizligi zararning kelib chiqishiga yoki ko'payishiga olib kelganligini isbotlasa, fuqarolik qonunchiligining umumiy me'yorlariga muvofiq zararni qoplash miqdori kamaytirilishi yoki zararni qoplash rad etilishi mumkin. Oldingi tahririga qarang.

9.2.4. Tashuvchi yo'lovchining o'limi yoki sog'lig'iga zarar yetkazilganligi uchun yetkazilgan zarar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari va fuqarolik qonunchiligidagi belgilangan tartibda va

miqdorlarda qoplanishini ta'minlashi shart.

### **9.3. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ NING BAGAJ, SHUNINGDEK, YO'LOVCHI YONIDAGI BUYUMLARNING YO'QOLISHI, KAMOMADI, SHIKASTLANISHI (BUZILISHI) UCHUN JAVOBGARLIGI**

9.3.1. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ ro'yxatdan o'tkazilgan bagajning yo'qolishi, kamomadi yoki shikastlanishi uchun uni tashish uchun qabul qilgan paytdan boshlab oluvchiga berilgunga yoki boshqa vakolatli shaxsga berilgunga qadar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

9.3.2. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ Tashuvchi, agar ushbu buyumlarning yo'qolishi yoki shikastlanishi tashuvchining aybi bilan sodir bo'lganligi isbotlansa, yo'lovchining yonidagi buyumlarning saqlanishi uchun moddiy javobgar bo'ladi.

9.3.3. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ yo'lovchilarning ro'yxatdan o'tkazilgan bagajidagi mo'rt, qimmatbaho va tez buziladigan buyumlar uchun javobgar emas. Pul, qimmatbaho buyumlar, hujjatlar, tibbiy ma'lumotnomalar, rentgen suratlari, negativlar, alohida qimmatli, mo'rt buyumlar, kredit kartalari, qimmatli qog'ozlar va hujjatlar, qimmatbaho metallar, toshlar, marvarid va ulardan yasalgan buyumlar yo'lovchining nazorati ostida qo'l yukxonasida tashilishi kerak. "FLY KHIVA GROUP" MCHJ yo'lovchining ro'yxatdan o'tkazilgan bagajidagi tez buziladigan oziq-ovqat mahsulotlarining, mo'rt va shisha buyumlarning buzilishi uchun javobgar emas.

### **9.4. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ NING BAGAJ, SHUNINGDEK YO'LOVCHI YONIDAGI BUYUMLAR YO'QOLGANLIGI, KAMOMADI, SHIKASTLANGANLIGI (BUZILGANLIGI) UCHUN JAVOBGARLIGI MIQDORI**

9.4.1. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ O'zbekiston Respublikasi hududida yo'lovchi va bagajni havo transportida tashish shartnomasini bajarishda quyidagilarning yo'qolishi, kamomadi uchun javobgar bo'ladi:

a). Qiymati e'lon qilingan holda havo transportida tashish uchun qabul qilingan bagaj – e'lon qilingan qiymat miqdorida.

b). Qiymati e'lon qilinmasdan havo transportida tashish uchun qabul qilingan bagaj – O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari, fuqarolik qonunchiligidagi belgilangan tartibda va miqdorlarda.

c). Yo'lovchining yonida bo'lgan buyumlar – ularning qiymati miqdorida.

9.4.2. To'liq yoki qisman yo'qolgan bagaj, shuningdek yo'lovchining yonidagi buyumlarning qiymati yo'qolgan mol-mulkning kassa tovar chekida ko'rsatilgan narxi bilan, u mavjud bo'lmaganda esa – xuddi shunday tovarning o'rtacha narxi bilan, biroq mazkur Qoidalarning 9.4.1-bandi b) kichik bandida belgilangan limitlar doirasida aniqlanadi.

9.4.3. Xalqaro havo transportida tashishlarda bagajning, shuningdek yo'lovchining yonidagi buyumlarning yo'qolishi, yetishmasligi yoki shikastlanishi (buzilishi) uchun «FLY KHIVA GROUP» MCHJ xalqaro shartnomalar va O'zR HKod ga muvofiq javobgar bo'ladi.

9.4.4. Yo'lovchi tomonidan shikastlangan chamadon, yo'l sumkasi yoki bagajni tashish uchun mo'ljallangan boshqa moslamaning qiymatini qoplash to'g'risida talab qo'yilganda, bagaj shikastlangan (buzilgan) taqdirda, kompensatsiya miqdori shikastlangan chamadon, yo'l sumkasi yoki bagajni tashish uchun mo'ljallangan boshqa moslamani tiklash-ta'mirlash qiymatini tasdiqlovchi kvitansiya bilan belgilanadi. Ko'rsatib o'tilgan kvitansiya mavjud bo'lmagan taqdirda kompensatsiya shikastlangan bo'sh chamadon, yo'l sumkasi yoki bagajni tashish uchun boshqa moslamaning har bir kilogramm og'irligi uchun 100000 so'm hisobidan amalga oshiriladi. Shikastlangan bo'sh chamadon, yo'l sumkasi yoki bagajni tashish uchun mo'ljallangan boshqa moslamaning ma'lum qilingan vazni haqiqiy vaznga muvofiqligiga shubha tug'ilgan taqdirda, vakolatli shaxs yo'lovchidan shikastlangan mol-mulkning haqiqiy vaznni tasdiqlovchi hujjatlarni yoki uning xususiyatlarini identifikasiya qilish uchun shikastlangan mol-mulkning markasi, turi, nomini o'z ichiga olgan axborotni talab qilib olishga haqli.

## **9.5. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ NING YO'LOVCHI, BAGAJ, YUKNI YETKAZIB BERISH KECHIKTIRILGANLIGI UCHUN JAVOBGARLIGI**

9.5.1. Xalqaro havo tashuvlarida yo'lovchi, bagaj yoki yukni belgilangan manzilga yetkazib berish kechiktirilganligi uchun «FLY KHIVA GROUP» MCHJ xalqaro havo tashuvlariga oid Konvensiyalar, ICAO, IATA hujjatlari, O'zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligi, O'zbekiston Respublikasining Havo kodeksi, shuningdek O'zbekiston Respublikasining amaldagi xalqaro shartnomalari va bitimlariga muvofiq javobgar bo'ladi.

## **9.6. YO'LOVCHINING JAVOBGARLIGI**

9.6.1. Yo'lovchi aviatsiya xavfsizligini ta'minlash, bojxona, sanitariya-karantin, immigratsiya, veterinariya, fitosanitariya, valyuta va boshqa nazorat turlari bo'yicha talablarni bajarishga taalluqli bo'lgan, yo'lovchi va bagajni havo transportida tashish amalga oshirilayotgan mamlakatning davlat, vakolatli organlarining qonunlari, qarorlari va boshqa me'yoriy hujjatlariga rioya qilmaganligi uchun javob beradi.

9.6.2. Yo'lovchi va bagajni havo transportida tashishda taqdim etiladigan, davlat, vakolatli organlar tomonidan berilgan hujjatlarning mavjudligi, ishonchliligi va to'g'ri rasmiylashtirilishi uchun yo'lovchi javobgardir.

9.6.3. Yo'lovchining ushbu Qoidalarni buzganligi uchun javobgarligi quyidagilar nazarda tutiladi:

- a) O'zR ichki havo yo'llarida – O'zR qonunchiligiga muvofiq.
- b) Xalqaro havo yo'llarida - xalqaro havo huquqi (xususan - 1963-yilda Tokioda imzolangan «Havo kemasi bortida sodir etilgan jinoyatlar va boshqa ba'zi harakatlar to'g'risida»gi xalqaro konvensiya) va parvozni amalga oshirish uchun foydalanilgan havo kemasi qaysi davlatda ro'yxatdan o'tkazilganligi yoki ekspluatatsiya qilinayotganligidan qat'i nazar, havo kemasi qo'ngan davlatda amalda bo'lgan qonunchilik talablariga muvofiq.

9.6.4. Yo'lovchi «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tomonidan yo'lovchi va bagajni havo transportida tashish bilan bog'liq davlat nazorati organlari talablariga rioya qilmaganligi sababli yuzaga kelgan xarajatlar uchun javobgar bo'ladi.

9.6.5. Agar yo'lovchining aybi bilan «FLY KHIVA GROUP» MCHJga zarar yetkazilgan bo'lsa, yo'lovchi yetkazilgan zarar doirasida moddiy javobgar bo'ladi.

9.6.6. Yo'lovchi quyidagilar bajarilmaganligi uchun javobgar bo'ladi:

- a). havo transportida tashish qoidalari (otosuratga olish, kinoga olish va radioaloqa vositalaridan foydalanish va hokazo);
- b). HK komandirining buyruqlari;
- c) yong'in xavfsizligi qoidalari, sanitariya-gigiyena va sanitariya-epidemiyaga qarshi qoidalari;
- d). xavfsizlikni ta'minlash qoidalari (eshikni, HK lyukini ochishga urinish, xavfsizlik kamarini taqishdan bosh tortish, HKda yoki belgilanmagan joyda chekish va hokazo).

9.6.7. Yo'lovchi tashish taqiqlangan yoki ushbu Qoidalarda belgilangan tashish talablari va shartlariga rioya qilinmagan holda tashish uchun topshirilgan buyumlarni bagajda tashish uchun javobgar bo'ladi.

9.6.8. Yo'lovchi jamoat tartibini, aerovokzallar va shahar agentliklari, aeroportlar, aerodromlar va HK bortidagi tartibni buzganligi uchun, shu jumladan boshqa yo'lovchilar yoki «FLY KHIVA GROUP» MCHJ va/yoki Xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarning xodimlariga nisbatan noqonuniy xatti-harakatlari uchun javobgar bo'ladi.

9.6.9. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ HK bortidagi har bir yo'lovchi aviatsiya xavfsizligini ta'minlash bo'yicha belgilangan me'yorlar va talablarni bajarishi shart.

9.6.9.1. O'zbekiston Respublikasi ichki havo yo'llarida aviatsiya xavfsizligini ta'minlashning belgilangan me'yorlari, qoidalari va talablarini buzganlik uchun yo'lovchi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladi.

9.6.9.2. Xalqaro havo liniyalarida aviatsiya xavfsizligini ta'minlashning belgilangan me'yorlari, qoidalari va talablarini buzganlik uchun yo'lovchi xalqaro havo huquqi (fuqaro aviatsiyasi sohasidagi xalqaro Konvensiyalar) va belgilangan mamlakat yoki oraliq qo'nish mamlakati qonunchiligiga muvofiq, HK ro'yxatdan o'tgan yoki ishlayotgan mamlakatdan qat'i nazar, javobgar bo'ladi.

9.6.9.3. Yo'lovchilar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga va hududigam hududidan yoki hududi orqali yo'lovchilar va bagaj tashish amalga oshirilayotgan mamlakat qonunchiligiga, yo'lovchilar va bagajni tashish, parvozlar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha talablarni va chegara, bojxona, sanitariya-karantin, veterinariya, karantin fitosanitariya nazorat turlari bilan bog'liq talablarni bajarishga rioya qilishlari shart.

9.6.10. Ekipaj talablari va mazkur Qoidalar bajarilmagan holatlar, keyinchalik dalolatnomani aeroportdag'i Ichki ishlar liniya bo'limiga topshirish uchun, qoidabuzar yo'lovchi ishtirokida tuziladigan dalolatnomaga bilan rasmiylashtiriladi. Bunda amaldagi qonun hujjatlarining qoidalari va talablari qo'llaniladi.

## **9.7. YO'LOVCHILARNI HAVO TRANSPORTIDA TASHISHNING HUQUQIY NORMALARI**

9.7.1. O'zR Havo kodeksiga muvofiq HK komandiri HK parvozi xavfsizligini ta'minlash maqsadida quyidagi huquqlarga ega:

a). HK bortida bo'lган har qanday shaxsga buyruqlar berish va ularning bajarilishini talab qilish.

b). O'z harakatlari bilan HK parvozi xavfsizligiga bevosita tahdid solayotgan va HK komandirining buyruqlariga bo'ysunishdan bosh tortayotgan shaxslarga nisbatan barcha zarur choralarini (shu jumladan majburlov choralarini) qo'llash. HK eng yaqin aeroportga yetib kelgach, HK komandiri bunday shaxslarni keyingi tashishni rad etishga, jinoyat alomatlari mayjud bo'lган qilmish sodir etilgan taqdirda esa, ularni qabul qiluvchi mamlakatning huquqni muhofaza qilish organlariga topshirishga haqli. Ushbu shaxslar xalqaro huquq normalariga, O'zbekiston Respublikasi yoki ular joylashgan mamlakat qonunlariga muvofiq ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin.

9.7.2. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tashabbusi bilan havo transportida tashish shartnomasining amal qilishi yo'lovchi tomonidan HK bortida o'zini tutish qoidalari buzilishi va parvoz xavfsizligiga tahdid yoki boshqa shaxslarning hayoti yoki sog'lig'iga xavf tug'dirishi, shuningdek yo'lovchi tomonidan HK komandirining farmoyishlari bajarilmasligi oqibatida to'xtatilgan taqdirda, yo'lovchiga havo transportida tashish uchun to'langan to'lov qaytarilmaydi.

## **9.8. PARVOZGA TAYYORGARLIK KO'RISHDA VA HK BORTIDA YO'LOVCHINING O'ZINI TUTISH QOIDALARI**

9.8.1. Ushbu Qoidalar «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tomonidan tashilayotgan barcha yo'lovchilar uchun majburiydir.

9.8.2. Yo'lovchi parvozga tayyorgarlik ko'rishda:

a). O'zining qo'l yuki va bagajini shaxsan o'rab-joylashi yoki ularga begona buyumlar qo'yilishini istisno qilish maqsadida ularni boshqa shaxslar tomonidan o'rab-joylashda doimo hozir bo'lishi.

b). Olib ketilayotgan ashyo va buyumlarni «FLY KHIVA GROUP» MCHJ mas'uliyatiga topshirunga qadar shaxsiy nazoratsiz qoldirmasligi kerak.

9.8.3. Yo'lovchi reysga rasmiylashtirilayotganda va parvozdan oldingi rasmiyatichiliklardan o'tayotganda:

a). Qo'lida shaxsini tasdiqlovchi hujjat bo'lishi.

b). Xizmat ko'rsatuvchi tashkilotning ro'yxatdan o'tkazish agentlarini yoki «FLY KHIVA GROUP» MCHJ xodimlarini unda tashishga ruxsat berilgan qurol borligi va bagajida elektron asboblar mavjudligi to'g'risida xabardor qilishi.

c). – «Yukni kim o'radi?», – «Yuk yo'lovchining nazoratsiz qoldimi?» savollariga javob berishga va yuk tarkibini sanab o'tishga tayyor bo'lishi.

d). AXX xodimiga yoki aeroportning istalgan xodimiga yo'lovchini parvoz xavfsizligidan xavotirga soladigan barcha hodisalar haqida xabar berishi.

e). Parvozdan oldingi tekshiruvdan o'tishi.

f). Ko'zdan kechirish uchun qo'l yuki va bagajni, shuningdek, yo'lovchining shaxsiy buyumlari va narsalarini ko'rsatishi.

g). AXX xodimini tashishga ruxsat etilgan qurol borligi to'g'risida zarur hujjatlarni ko'rsatgan holda xabardor qilishi.

h). Elektron asboblar va aloqa vositalari mavjudligi to'g'risida AXX xodimini xabardor qilishi lozim.

9.8.4. Yo'lovchi tekshiruvdan o'tish va HKga joylashishni kutish davrida aeroport ma'muriyati tomonidan belgilangan aviatsiya xavfsizligi qoidalarini bajarishi va ularni ta'minlashda aviatsiya xodimlariga yordam berishi kerak.

9.8.5. HK bortidagi yo'lovchi quyidagilarga majbur:

a) HK komandiri yoki ekipaj a'zosining HK komandiri nomidan parvoz xavfsizligi va HK salonidagi odamlar, mulkning saqlanishi, havo transportida tashish shartnomasini bajarish bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatish tartibi va imkoniyatini ta'minlash bo'yicha berilgan buyruqlarini bajarish;

b) HK salonida joylashish taloniga muvofiq, zarur hollarda esa parvoz xavfsizligini ta'minlash maqsadida – HK ekipaj a'zosining ko'rsatmasiga muvofiq joy egallash;

c) qo'l yukini maxsus ajratilgan joylarga joylashtirish;

d) «Belbog'larni taqing» tablosi yoqilganda bog'lash tasmalarini taqish va u o'chunga qadar ularni taqilgan holda qoldirish.

9.8.6. HK bortida yo'lovchiga quyidagilar taqilanadi:

a) giyohvand moddalarni iste'mol qilish, tamaki mahsulotlarini (nosvoy va boshqalar) chekish, shuningdek, elektron sigaretalardan foydalanish;

b) tashuvchi tomonidan taklif etilgan alkogolli mahsulotlarni belgilangan normadan ortiqcha iste'mol qilish, shuningdek boj olinmaydigan savdo do'konlaridan sotib olingan alkogolli mahsulotlarni iste'mol qilish;

c) uchuvchilar kabinasiga kirish;

d) HK ekipaj a'zolarining xizmat majburiyatlarini bajarishiga to'sqinlik qilish yoki ularning harakatlariga aralashish;

e) HKni boshqarish, uchish va qo'nish paytida elektron asboblar va aloqa vositalaridan foydalanish, shuningdek parvozning barcha bosqichlarida fotosuratga olish va videotasvirga olish;

f) HKning mol-mulkini (pledlar, yostiqlar, idish-tovoqlar, oshxona anjomlari, elektron qurilmalar, qutqaruvin nimchalari va boshqalarni) bortdan olib ketish yoki shikast yetkazish;

g) jamoat tartibini buzish va atrofdagilarni zaruratsiz bezovta qilish;

h) HK ekipaj a'zolarining tegishli ko'rsatmalarisiz avariya-qutqaruvin uskunalaridan foydalanish;

i) HK ekipaj a'zolarining ruxsatisiz yoki ko'rsatmisisiz boshqa joylarga o'tish.

9.8.7. Yo'lovchi bilan tuzilgan havo transportida tashish shartnomasi tashuvchi tomonidan tashish yo'nalishining istalgan manzilida havo kemasi bortida parvoz xavfsizligiga tahdid soluvchi yoki shaxslarning hayoti yoki sog'lig'iga va ularning mol-mulkiga tahdid soluvchi Xulq-atvor qoidalari talablari buzilgan hollarda bekor qilinishi mumkin.

9.8.8. Yo'lovchining huquqlari:

a) Yo'lovchi HK ekipaj a'zolaridan havo transportida tashish shartnomasida belgilangan xizmatlarni ko'rsatishni talab qilishga haqli.

b) Yo'lovchi HK ekipaj a'zolaridan jamoat tartibini buzadigan, uni yoki boshqa shaxslarni zaruratsiz bezovta qiladigan, ularning sha'ni va qadr-qimmatiga, mol-mulkiga, sog'lig'i yoki hayotiga tahdid soladigan xatti-harakatlarga ega yo'lovchiga ta'sir ko'rsatishni talab qilish, shuningdek HK ekipaj a'zolarining bunday xatti-harakatlari ustidan shikoyat qilish huquqiga ega.

9.8.9 Ushbu Qoidalari talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjalarda belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

## 10-BOB. TALABLAR, SHIKOYATLAR, DA'VOLAR QO'YISH TARTIBI

### 10.1. UMUMIY TALABLAR

10.1.1. Yo'lovchi, yuk jo'natuvchi, yuk qabul qiluvchining talabiga ko'ra, tashish hujjalari taqdim etilganda, «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tijorat dalolatnomasini (PIR / Yuk tashishdagi nosozlik dalolatnomasi) tuzishi shart. Dalolatnomalar bilan «FLY KHIVA GROUP» MCHJ, yo'lovchi, yuk jo'natuvchi yoki yuk qabul qiluvchining mulkiy javobgarligi uchun asos bo'lishi mumkin bo'lgan holatlar tasdiqlanadi.

10.1.2. Tijorat dalolatnomasi (PIR / Yuk tashishda nosozlik to'g'risidagi dalolatnomasi) bagaj yoki yukni berishda quyidagi holatlarni tasdiqlash uchun tuziladi:

a). Yukning haqiqiy nomi, uning og‘irligi yoki yuk o‘rnlari sonining tashish hujjatida ko‘rsatilgan ma’lumotlarga mos kelmasligi.

b). Yukning shikastlanishi / buzilishi.

c). Ro‘yxatdan o‘tgan bagajning yetishmasligi yoki shikastlanishi/buzilishi.

d). Tashish hujjatlarisiz bagaj yoki yukni yoxud bagaj yoki yuksiz tashish hujjatlarini aniqlash.

10.1.3. «FLY KHIVA GROUP» MCHJga da’vo qo‘zg‘atilgunga qadar, Yo‘lovchi va bagajni havo transportida tashish shartnomasi, Yukni havo transportida tashish shartnomasi buzilgan taqdirda, «FLY KHIVA GROUP» MCHJ nomiga ariza yoki shikoyat taqdim etiladi.

## **10.2. YO‘LOVCHI VA BAGAJNI HAVO TRANSPORTIDA TASHISH SHARTNOMASI BUZILGAN TAQDIRDA TALABLAR QO‘YISH HUQUQIGA EGA BO‘LGAN SHAXSLAR**

10.2.1. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ ro‘yxatdan o‘tgan bagaj yo‘qolgan, yetishmagan yoki shikastlangan/buzilgan, uni yetkazib berish muddati o‘tkazib yuborilgan, shuningdek, «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tashabbusi bilan Yo‘lovchini havo transportida tashish shartnomasi bekor qilingan taqdirda, yo‘lovchi yoki u vakolat bergen shaxs (pasport nusxasi yoki tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnoma nusxasi taqdim etilgan taqdirda ishonchnoma asosida – voyaga yetmagan yo‘lovchiga nisbatan) ushbu Qoidalarning 10.4-bandida ko‘rsatilgan hujjatlarni taqdim etgan holda shikoyat va da’vo qo‘zg‘atish huquqiga ega.

10.2.2. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ yukni havo transportida tashish shartnomasi buzilgan taqdirda quyidagilarga shikoyat bildirish va da’vo qilish huquqiga ega:

a). Yuk yo‘qolgan taqdirda – yukni oluvchi «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tomonidan yukni jo‘natuvchiga berilgan, belgilangan aeroportning yuk yetib kelganligi (kelmaganligi) to‘g‘risidagi belgisi qo‘yilgan Yuk hujjatini, bunday Yuk hujjatini taqdim etish imkonni bo‘limganda esa – yuk qiymati to‘langanligi to‘g‘risidagi hujjatni va belgilangan aeroportning yuk yetib kelganligi (kelmaganligi) to‘g‘risidagi belgisi qo‘yilgan «FLY KHIVA GROUP» MCHJning yuk jo‘natilganligi to‘g‘risidagi ma’lumotnomasini taqdim etganda.

b). Yuk kamomadi yoki shikastlanishi / buzilishi holatida - yuk qabul qiluvchi Yuk xati yoki tijorat dalolatnomasini (yukni tashishda nosozlik to‘g‘risidagi dalolatnoma) taqdim etganda.

c). Yukni yetkazib berish kechiktirilgan taqdirda – yuk qabul qiluvchi Yuk hujjatini taqdim etganda.

d). Sug‘urtalovchi – tegishli tashish hujjatlari, shuningdek sug‘urta shartnomasi tuzilganligi va sug‘urta tovoni to‘langanligi faktlarini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilganda.

## **10.3. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ GA SHIKOYAT BILDIRISH MUDDATI**

10.3.1. «FLY KHIVA GROUP» MCHJga O‘zbekiston Respublikasi hududida havo transportida tashishda da’vo olti oy ichida, jarimani to‘lash to‘g‘risidagi da’vo esa 45 kun ichida taqdim etilishi mumkin. Ko‘rsatilgan muddat quyidagicha hisoblanadi:

a) ro‘yxatdan o‘tkazilgan bagaj, yuk yoki pochtaning kamomadi yoki shikastlanganligi, shuningdek bagaj, yuk yoki pochtani yetkazib berish kechiktirilganligi uchun tovon undirish to‘g‘risidagi da‘volar bo‘yicha – ular berilgan kundan boshlab;

b) yukning yo‘qolganligi uchun tovon undirish to‘g‘risidagi da‘volar bo‘yicha – yetkazib berish muddati tugaganidan keyin 10 kun o‘tgach;

c) yetkazib berish muddati tugagan paytdan boshlab bagaj yoki pochta yo‘qolganligi uchun tovon to‘lash to‘g‘risidagi da‘volar bo‘yicha;

d). Qolgan barcha hollarda zararni qoplash to‘g‘risida – da’vo qo‘zg‘atilishiga asos bo‘lgan voqeа yuz bergen kundan boshlab.

10.3.2. Xalqaro havo transportida tashishda «FLY KHIVA GROUP» MCHJga nisbatan da’vo quyidagi muddatlarda taqdim etilishi mumkin:

a). Bagaj yoki yukka zarar yetkazilgan taqdirda, uni olish huquqiga ega bo‘lgan shaxs «FLY KHIVA GROUP» MCHJga zararni aniqlash to‘g‘risida darhol, biroq bagaj olingan kundan boshlab 7 kundan va yuk olingan kundan boshlab 14 kundan kechiktirmay yozma da’vo taqdim etishi kerak.

Yetkazib berish kechiktirilgan taqdirda, da'vo 21 kundan kechiktirmay taqdim etilishi kerak, bu bagaj yoki yuk oluvchining ixtiyorida topshirilgan kundan boshlab hisoblanadi (mazkur xabarnoma tijorat dalolatnomasini tuzish uchun asos bo'ladi).

10.3.3. «FLY KHIVA GROUP» MCHJ, agar da'vo muddatini o'tkazib yuborishning uzrli sababini e'tirof etsa, belgilangan muddat tugagandan so'ng da'voni ko'rib chiqish uchun qabul qilishga haqlidir.

#### **10.4. DA'VO BILDIRISH TARTIBI**

10.4.1. Taqdim etilayotgan da'vo yozma ravishda ariza shaklida bayon etilishi va uni ko'rib chiqish uchun zarur bo'lган barcha ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak.

10.4.2. Da'vo arizasida quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

- a). Da'vo taqdim etilayotgan Tashuvchining nomi.
- b). Da'vo bildirgan muassasa, korxona, tashkilot yoki shaxsning nomi va manzili, aloqa telefonlari, elektron pochta manzili, faks.
- c). Da'voga asos bo'lган holatlari, da'veoning mazmuni.
- d). Da'vo bo'yicha to'lov summasi miqdori va uning hujjatlar bilan tasdiqlangan hisob-kitobi.
- e). Da'voga ilova qilingan hujjatlar ro'yxati.
- f). Ariza beruvchining imzosi.

10.4.3. Da'vo arizasiga quyidagilar ilova qilinishi kerak:

a) Havo transportida tashish shartnomasi tuzilganligini tasdiqlovchi va ariza beruvchining da'vo qilish huquqini tasdiqlovchi asl hujjatlar.

b) «FLY KHIVA GROUP» MCHJ tomonidan berilgan, bagaj yoki yukning kamomadi yoki shikastlanganligini tasdiqlovchi tijorat dalolatnomasi.

c) Bagaj, yukning yo'qolishi, yetishmasligi yoki shikastlanishi natijasida yetkazilgan zarar miqdorini tasdiqlovchi asl hujjat.

d) Ariza beruvchining ixtiyoriga ko'ra boshqa hujjatlar. Tegishli hujjatlarsiz da'vo arizasining berilishi da'volarni taqdim etish uchun belgilangan muddatni uzmaydi. Tijorat dalolatnomasi yoki yuqorida ko'rsatilgan boshqa hujjatlarning yo'qligi yo'lovchi, yuk jo'natuvchi yoki yuk qabul qiluvchini da'vo qilish huquqidan mahrum qilmaydi, lekin da'voga asoslangan javob tayyorlash jarayonini qiyinlashtirishi yoki uzoqroq davom etishiga olib kelishi mumkin.

10.4.4. Bagaj yo'qolgandagi shikoyatlarga quyidagilar ilova qilinishi kerak:

- a) Chipta (yo'nalish-kvitansiya).
- b) Qo'nish taloni.
- c) Bagaj yorlig'ining yirtib olinadigan taloni.
- d) Bagajning yetib kelmaganligi to'g'risida ariza (ma'lumotnomasi).
- e) Bagaj qiymati e'lon qilinganda – tasdiqlovchi hujjatlar.
- f) Pul kompensatsiyasini o'tkazish uchun yo'lovchining bankdagi hisobvarag'ining to'liq rekvizitlari.

10.4.5. Bagaj shikastlanganda shikoyatlarga quyidagilar ilova qilinishi kerak:

- a) Chipta (yo'nalish-kvitansiya).
- b) Qo'nish taloni.
- c) Bagaj yorlig'ining yirtib olinadigan taloni.
- d) Bagajga zarar yetkazilganligi to'g'risidagi tijorat dalolatnomasi.
- e) Bagaj shikastlanishining fotosuratlari.
- f) chemodan yoki sumkani ta'mirlash qiymatini tasdiqlovchi hujjat (kassa va tovar cheki yoki ta'mirlash tashkilotining ma'lumotnomasi) yoki ta'mirlash mumkin emasligini tasdiqlovchi hujjat.
- g) agar ta'mirlashni amalga oshirishning iloji bo'lmasa, chamadon yoki sumkaning qiymatini tasdiqlovchi hujjat (eng yaqin artikullarning qiymati to'g'risidagi ma'lumotnomasi yoki axborot xati, xarid uchun tovar yoki kassa cheki) bo'lishi kerak.

h) Pul kompensatsiyasini o'tkazish uchun yo'lovchining bankdagi hisobvarag'ining to'liq rekvizitlari.

10.4.6. «FLY KHIVA GROUP» MCHJga bagajning shikastlanganligi to'g'risida da'vo taqdim etilganda, yo'lovchi bagajning shikastlanganligi faktini va «FLY KHIVA GROUP» MCHJning ayni tasdiqlovchi

hujjatlarni taqdim etish bilan bir qatorda, «FLY KHIVA GROUP» MCHJdan to‘lov amalga oshirilgunga qadar, shikastlangan bagajni topshirish dalolatnomasi bo‘yicha «FLY KHIVA GROUP» MCHJ vakiliga topshirishi yoki shikastlangan bagajning fotosuratlarini «FLY KHIVA GROUP» MCHJning pochta manziliga yuborishi shart (boshqa shaharlik ariza beruvchi uchun).

10.4.7. Reys kechiktirilgandagi shikoyatlarga quyidagilar ilova qilinishi kerak:

a) Reys kechiktirilgani to‘g‘risida aeroport belgisi qo‘yilgan chipta (yoki «FLY KHIVA GROUP» MCHJ yoki aeroport vakillari tomonidan tasdiqlangan ma’lumotnomasi).

b) Pul kompensatsiyasini o‘tkazish uchun yo‘lovchining bankdagi hisobvarag‘ining to‘liq rekvizitlari.

10.4.8. Reys bekor qilinganda shikoyatlarga quyidagilar ilova qilinishi kerak:

a) Chipta (yo‘nalish-kvitansiya).

b) Pul kompensatsiyasini o‘tkazish uchun bank hisobvarag‘ining to‘liq rekvizitlari.

10.4.9. Yo‘lovchi tashishdan majburiy bosh tortgandagi shikoyatga quyidagilar ilova qilinishi kerak:

a) Chipta (yo‘nalish-kvitansiya).

b) Yo‘lovchining tashishdan majburiy bosh tortish sababini tasdiqlovchi hujjatlar.